

SOG'LOM JAMOAT NIMA?



MARK DEVER

“Masihning bu dunyo uchun asosiy rejasi jamoat bo‘lib, hech qanday zahira reja yo‘q. Har bir cho‘pon va har bir imonli kishi sog‘lom jamoat qanday bo‘lishi kerakligi hamda qanday qilib o‘z jamoatini iloji boricha sog‘lom jamoatga aylantirish haqida bilishga harakat qilishi lozim. Mark Deverning tushunishga oson va samimiy ushbu kitobi bu borada sizga yordam beradi. Bu dunyo Iso Masihga hamda U haqidagi Xushxabarga muhtoj, bu esa sog‘lom jamoatlarga ham muhtoj ekanini anglatadi. Agar siz ushbu ikkita tushuncha bir-biriga qanday bog‘liqligini tushunmasangiz, demak siz bu kitobni o‘qishingiz kerak.”

Kevin DeYong, Shimoliy Karolinadagi
Christ Covenant Jamoatining katta cho‘poni,
Reformed Theological Seminariyasida Tizimli
Ilohiyotshunoslik bo‘yicha assistent professor

“Xudbin bo‘lganimiz uchun biz jamoatni o‘zimiz istagandek shakllantirishga moyilmiz. Biroq Mark Dever bizni Xudo O‘z jamoati uchun niyat qilgan narsalarga diqqat qilishga chaqiradi. Har bir jamoat Xudoning Kalomiga binoan sog‘lom bo‘lishga intilishi lozim va har bir imonli kishi o‘zining mahalliy jamoatining sog‘lom bo‘lishi haqida qayg‘urishi kerak. Bu kitob imonli kishilarga Xudoning ulug‘vorligi va tabiatini aks ettiruvchi jamoatlarni ko‘tarishda yordam beruvchi juda foydali manba hisoblanadi.”

Yujin Lou, Singapurdagi Grace Baptist
Jamoatining yetakchi cho‘poni

“Bu kitobni o‘qish xuddi jazirama issiq kunda salqin ichimlik ichishga o‘xshaydi! Bu kitob har tomonlama – qisqa va lo‘ndaligi, amaliy ekanligi, ta‘limoti hamda missiyaga e‘tibor qaratganligi menga yoqadi. Men xursandchilik va samimiylilik bilan uni cho‘ponlarga ham, jamoat a‘zolariga ham tavsiya qilaman.”

Klint Presli, Cho‘pon, Hickory Grove Baptist
Jamoati, Sharlott, Shimoliy Karolina

“Men ushbu kitobdan va uning muallifidan umrimning oxirigacha minnatdorman. Ekspozitsion va‘z tinglash va sog‘lom jamoat a‘zosi bo‘lish hayotimni o‘zgartirib yubordi. Keyin ushbu kitobning tamoyillari jamoatimni qanday o‘zgartirayotganini ham ko‘rdim. Siz qaysi yurtda yashashingizdan va madaniyatingizdan qat‘iy nazar, sog‘lom masihiy bo‘lish uchun sizga sog‘lom jamoat kerak. Ushbu amaliy kitobni o‘qing va mahalliy jamoatingizga nisbatan muhabbatingiz ortib borsin.”

Keri Folmar, *“Ayollar mahalliy jamoatda qanday qilib ruhan o‘sishlari mumkin?”* kitobining muallifi

“*“Sog‘lom jamoat nima?”* kitobi masihiylarni jamoat qanday bo‘lishi kerakligi haqida Muqaddas Kalomga asoslangan e‘tiqodlar bilan qayta tanishtiradi. Ekspozitsion va‘zdan tortib umumiy ibodatgacha, Xushxabar ta‘limotidan tortib jamoat a‘ziligigacha va boshqa ko‘p narsalarda bu kitobcha jamoatning xususiyatlari va xizmatlari bo‘yicha

ishonchli qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Jamoatingizning barcha a'zolari uchun ushbu kitobning nusxasini oling va jamoatingiz uchun maqsadingizni Xudoning Kalomiga moslashtiring."

Jef Chang, Tarixiy ilohiyot bo'yicha assistent professor va Midwestern Baptist Theological Seminariyasi qo'shidagi Sperjen kutubxonasi (Spurgeon Library) kuratori, "*Spurgeon the Pastor*" kitobining muallifi

"Muhim haqiqatlar oddiy so'zlar bilan tushuntirilishi lozim. Hozir qo'lingizda aynan shunday kitobni, ya'ni jamoat borasida Kalomga asoslangan tushunchalar bayon etilgan kitobni ushlab turibsiz. Ko'pchilik qarindoshlarimiz, do'stlarimiz, qo'ni-qo'shnilarimiz va hamkasblarimiz jamoat haqida noto'g'ri tushunchaga ega, bu esa e'tiqodga zarar keltiradi. Bu kitobni o'qib chiqing, bir nechta nusxa ko'chiring va boshqalarga tarqating. Mark Dever ushbu kitobda bayon etgan haqiqatlar ko'p odamlarga va mahalliy jamoatlarga foydali bo'lishi mumkin. Rabbimizning jamoatdagi ulug'vorligi yanada oshishi uchun bu kitob foydali bo'lsin."

Kennet Bugua, Katta cho'pon, Emmanuil Baptist Jamoati, Nairobi, Keniya

SOG'LOM JAMOAT NIMA?

9 Belgi: Sogʻlom jamoatlarni koʻtarish harakatida

Tahrirchilar Mark Dever va Jonatan Liman

Kalomiylar teologiya: Jamoat Xushxabarni qanday toʻgʻri oʻrgatadi,
Nik Roark va Robert Klayn

Jamoat tartib-intizomi: Jamoat Rabbimiz Isoning nomini qanday
himoya qiladi, Jonatan Liman

Jamoat oqsoqollari: Qanday qilib Xudoning xalqini Isodek
boqish kerak, Jerami Rinni

Jamoat aʼzolari: Isoning kim ekanini dunyo qanday biladi,
Jonatan Liman

Yuqoridan tugʻilish: Xuda odamlarni qanday yaratadi,
Maykl Lourens

Umumiy sajda: Jamoat Xudoning xalqi sifatida qanday
toʻplanadi, Mett Merker

Diakonlar: Qanday qilib ular jamoatni mustahkamlaydi va
xizmat qiladi, Mett Smezerst

Shogirdlik: Isoga ergashishda boshqalarga qanday yordam berish
kerak, Mark Dever

Xushxabar tarqatish: Qanday qilib butun jamoat Iso haqida
gapiradi, J. Mak Stayls

Ekpozitsion va'z qilish: Bugun Xudoning So'zini qanday aytamiz, Devid Helm

Xushxabar: Qanday qilib jamoat Masihning go'zalligini aks ettiradi, Rey Ortland

Elchilik xizmati: Mahalliy jamoat qanday qilib jahon miqyosiga chiqadi, Endi Jonson

Ibodot: Birgalikda ibodat qilish qanday qilib jamoatni shakllantiradi, Jon Onvuchekva

Sog'lom ta'limot: Qanday qilib jamoat Xudoning sevgisi va muqaddasligida o'sib boradi, Bobbi Jeymison

Sog'lom jamoat nima?, Mark Dever

Sog'lom jamoat a'zosi bo'lish nima?, Tabiti Enyab'viley

SOG'LOM JAMOATLARNI KO'TARISH HARAKATIDA

SOG'LOM JAMOAT NIMA?

MARK DEVER

CROSSWAY
WHEATON, ILLINOIS

BUILDING HEALTHY CHURCHES

WHAT IS A HEALTHY CHURCH?

MARK DEVER

CROSSWAY
WHEATON, ILLINOIS

Sog'lom jamoat nima?
Mark Dever tomonidan

Mualliflik huquqi © 2026–yil
Marvarid Xizmatlari



What Is a Healthy Church?

By Mark Dever

Copyright © 2005, 2007, 2024 by Mark E. Dever and 9Marks

Published by Crossway, 1300 Crescent Street, Wheaton,
Illinois 60187

Barcha huquqlar himoyalangan. Bu nashrning biror qismi qayta chiqarilishi, qidirish tizimida saqlanishi yoki boshqa shaklda, boshqa yo'l bilan, elektron, mexanik, fotonusxa, ko'chirib olish yoki boshqa usul bilan nashriyotni oldindan ogohlantirmay yetkazilishi mumkin emas. AQShning mualliflik huquqida ko'zda tutilgan qonunlari bundan mustasnodir. Crossway AQShda ro'yxatdan o'tgan savdo belgisi hisoblanadi.

Originally published in English by Crossway with all International rights owned by Crossway and 9Marks.

This edition published by arrangement with 9Marks.

All rights reserved.

9Marks ISBN: 979-8-89218-242-3

Muqaddas Bitiklardan parchalar 2024 Muqaddas Yozuvning So'zma-So'z Tarjimasidan [MYSST] olingan. Ruxsat bilan ishlatiladi. Barcha huquqlar himoyalangan.

Muqaddas Bitiklardan olingan parchalardagi ta'kidlar muallif tomonidan kiritilgan.

Men bilgan
sadoqatli cho‘ponlar
Xerold Pyordi,
Uolli Tomas
va Ed Xenegar uchun
Xudodan minnatdorman

MUNDARIJA

TO'PLAMLAR UCHUN SO'ZBOSHI.....	17
So'zboshi: MASAL.....	19
Kirish: SIZ JAMOATDA NIMA IZLAYAPSIZ?.....	23

1–Qism: SOG'LOM JAMOAT NIMA?

1	SIZNING MASIHIYLIGINGIZ VA JAMOATINGIZ	31
2	JAMOAT NIMA ... VA NIMA EMAS?	43
3	HAR BIR JAMOAT NIMAGA INTILISHI LOZIM: SOG'LOM BO'LISHGA	51
4	XUDONING TABIATINI NAMOYON QILISH UCHUN YAKUNIY KO'RSATMA	63
	Muhim maslahatlar: Agar jamoatdan ketish haqida o'ylayotgan bo'lsangiz	73

2–Qism: SOG'LOM JAMOATNING ASOSIY BELGILAR

5	EKSPOZITSION VA'Z QILISH.....	81
6	XUSHXABAR TA'LIMOTI.....	89
	Muhim maslahatlar: Yaxshi jamoatni qanday topish mumkin?.....	99

3-Qism: SOG'LOM JAMOATNING MUHIM BELGILARI

- 7 YUQORIDAN TUG'ILISH VA
XUSHXABARNI TARQATISH BO'YICHA
KALOMGA ASOSLANGAN TUSHUNCHA105
- 8 JAMOAT A'ZOLIGI BO'YICHA KALOMGA
ASOSLANGAN TUSHUNCHA115
- 9 KALOMGA ASOSLANGAN JAMOAT
TARTIB-INTIZOMI123
- 10 KALOMGA ASOSLANGAN SHOGIRDLIK VA
RUHAN O'SISH.....131
- 11 KALOMGA ASOSLANGAN
JAMOAT YETAKCHILIGI.....139
- 12 IBODAT BO'YICHA KALOMGA ASOSLANGAN
TUSHUNCHA VA UNI AMALDA QO'LLASH147
- 13 ELCHILIK XIZMATI BO'YICHA KALOMGA
ASOSLANGAN TUSHUNCHA VA UNI AMALDA
QO'LLASH155

Xulosa: SHINA YO'L BILAN TO'QNASHGANDA
(nazariya amaliyotga taqdim etilganida)163

Ilova: SOG'LOM JAMOATNING ODATIIY AHDI.....167

ALOHIDA MINNATDORCHILIKLAR.....169

MUQADDAS KITOBGA IQTIBOSLAR.....171

TO'PLAMLAR UCHUN SO'ZBOSHI

Sog'lom jamoatni ko'tarish sizning javobgarligingiz ekaniga ishonasizmi? Agar siz masihiy bo'lsangiz, buning shunday ekaniga ishonamiz.

Iso sizga shogird orttirishni buyurgan (Matto 28:18-20). Yahudo o'zlarigizni imonda mustahkamlashingiz lozimligini aytgan (Yahudo 20-21). Petrus esa sizga berilgan in'omdan foydalanib, boshqalarga xizmat qilishga chaqiradi (1-Petrus 4:10). Jamoatingiz kamol topishi uchun Pavlus sizni mehr-muhabbat bilan haqiqatni aytishga da'vat qiladi (Efesliklar 4:13, 15). Bu fikrlarni qayerdan olganimizni ko'ryapsizmi?

Siz jamoatning oddiy a'zosi yoki yetakchi bo'lishingizdan qat'iy nazar, "Sog'lom jamoatlarni ko'tarish harakatida" kitoblar to'plami Kalomdagi ana shunday amrlarni ado etishingiz va sog'lom jamoat barpo qilishda o'z hissangizni qo'shishda yordam berish uchun yozilgan. Qisqacha aytadigan bo'lsak, Iso sizning jamoatingizni sevgani kabi, siz ham jamoatingizga mehr-muhabbat ko'rsatishda unib-o'sishingiz uchun ushbu kitoblar sizga yordam berishiga umid qilamiz.

"9 Belgi" tashkiloti Mark sog'lom jamoatning to'qqizta belgisi deb atagan har bir belgi haqida qisqa va o'qishga oson kitoblar va yana bir nechta kitoblar nashr etdi. Ekspozitsion va'z, Kalomiy teologiya, sog'lom ta'limot, Xushxabar, yuqoridan tug'ilish, Xushxabar tarqatish, jamoat a'zoliqi, jamoat tartib-intizomi, shogirdlik va ruhan o'sish, jamoat oqsoqollari, jamoat diakonlari, ibodatlar, missiyalar va umumiy sajda haqidagi kitoblarni izlang.

Mahalliy jamoatlar Xudoning ulug'vorligini odamlarga ko'rsatish uchun mavjud. Buni esa Iso Masih haqidagi Xushxabarga e'tiborimizni qaratish, qutqarilish uchun Unga imon keltirish, Xudoning muqaddasligi, birligi va muhabbati bilan bir-birimizni sevisish orqali amalga oshiramiz. Qo'lingizdagi kitob sizga foyda berishi uchun duo qilamiz.

Samimiyat bilan, to'plamni tahrir qilgan Mark Dever va Jonatan Liman

SO'ZBOSHI

MASAL

Xudo a'zolarining har birini tanada O'zi xohlaganidek joylashtirdi. Agarda hammasi bitta a'zo bo'lganida edi, tana qayerda bo'lar edi? Ammo endi a'zolar ko'p, tana esa bittadir. Ko'z qo'lga: "Sen menga kerak emassan", yoki bosh oyoqlarga: "Sizlar menga kerak emassizlar", – deb ayta olmaydi. (1-Korinfliklar 12:18-21)

Jamoatda Burun bilan Qo'l suhbatlashmoqda. Quloq va Og'iz boshchiligidagi tonggi xizmat hozirgina tugadi va Qo'l Burunga oilasi bilan birga boshqa jamoat topishga qaror qilganini aytayotgan edi.

"Rostdanmi?" dedi Burun Qo'lning gapini eshitib. "Nega?"

"Bilmayman," dedi Qo'l yerga qarab. U odatda jamoat tanasining boshqa a'zolariga qaraganda sekinroq gapirardi. "Menimcha, men va xotinim izlagan narsa bu jamoatda yo'qligi uchun bo'lsa kerak," dedi Qo'l.

"Xo'sh, sizlar jamoatda nima izlagandingiz?" deb so'radi Burun. U bu so'zlarni hamdardlik ohangida aytdi. Lekin ularni aytayotib ham Qo'lning javobini jiddiy qilmasligini ichida bilar edi. Agar Qo'llar oilasi Burun hamda boshqa yetakchilarning

jamoat tanasini to'g'ri yo'ldan boshlab borayotganini ko'ra olishmasa, unda tana ularsiz ham bu ishini qila oladi.

Javob berishdan avval Qo'l yaxshilab o'ylashi kerak edi. U bilan Qo'l xonimga cho'pon Og'iz va uning oilasi yoqardi. Hamdu sano xizmatining rahbari Quloq ham yaxshi munosabatda edi. "Menimcha, biz o'zimizga o'xshagan odamlar bor joyni qidiraymiz, shekilli", dedi nihoyat Qo'l ikkilanib. "Biz avval Oyoqlar bilan birga vaqt o'tkazib ko'rdik, lekin ular bilan til topisholmadik. Keyin Oyoq barmoqlaridan iborat kichik guruhga qo'shildik. Lekin ular faqat paypoq, oyoq kiyim va hidlar haqida gapiraverishdi. Bu esa bizga qiziq bo'lmadi."

Bu gal Burun unga hayrat bilan qaradi: "Ular hidlarga ahamiyat berishayotganidan xursand emasmisiz?"

"Xursandman, albatta. Lekin bu biz uchun emas. Keyin sizlar, ya'ni yuz a'zolari uchun bo'lgan yakshanba maktabiga ham qatnashdik. Yodingizdami? Ikki oy ilgari yakshanba kunlari bir necha marotaba kelgandik."

"Kelganingizdan xursand bo'lganmiz."

"Rahmat. Lekin u yerda hamma gapirishni, tinglashni, hidlashni va tatib ko'rishni xohlardi. Bu narsa menda go'yo sizlar hech qachon ish qilishni va qo'llaringizni kir qilishni istamagandek taassurot qoldirgan. Xullas, men ayolim bilan Sharqiy tomondagi yangi jamoatni borib ko'rish haqida o'ylayapmiz. Eshitishimizcha, u yerda qarsaklar ko'p chalinar, qo'llar yuqoriga ko'tarilar ekan. Hozir bizga aynan shu narsa kerak."

"Hm", dedi Burun. "Nima demoqchi bo'layotganingizni tushundim. Sizlarning ketishingizdan xursand bo'lmaymiz."

Lekin, menimcha, o'zlaringizga ma'qul kelgan yo'lni tanlashlaringiz kerak."

Shu payt boshqalar bilan gaplashib turgan Qo'l xonim kelib, eri va Burunning suhbatiga qo'shildi. Eri unga Burun bilan nima haqida gaplashayotganini qisqacha aytib berdi va Burun Qo'llarning ketishidan xursand bo'lmasligini yana bir bor takrorladi. Ammo u yana ularning ehtiyojlari qondirilmayotganini tushunib turganini aytdi.

Qo'lning ayoli bosh iring'ab tasdiqladi. U muloyim ko'rinishni xohladi, lekin rostini aytganda, bu jamoatdan ketayotganidan xafa emasdi. Yillar davomida erining bu jamoat haqida bildirgan ancha-muncha tanqidiy fikrlari unga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshlagan edi. Yo'q, eri hech qachon jamoat tanasi haqida ochiqchasiga yomon gapirmagan. Aksincha, "bunday tanqidiy fikr bildirayotgani" uchun odatda uzr so'rardi. Lekin u yer bu yerda aytgan tanqidiy fikrlar o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Uning fikricha, kichik guruhlar samimiy emas, hamdu sanolar eskirgan, dasturlar jiddiy emas, va'zlar ham unchalik yoqimli emasdi. Xullas, er-xotin aniq sababini ko'rsata olmasa ham, bu jamoat ular uchun emas, degan qarorga kelishdi.

Bundan tashqari, Qo'lning ayoli qizi Pinki ham yoshlar guruhida o'zini noqulay his qilayotganini bilardi. Guruhdagilarning hech biri unga o'xshamasdi va u o'zini begonadek his qilardi.

Keyin Qo'lning ayoli Burunni va uning yetakchiligini yoqtirishi haqida bir nimalar dedi. Biroq Burunning nazarida suhbat ancha cho'zilib ketdi. Qolaversa, Qo'lning ayoli sepgan atirning o'tkir hidi Burunga yoqmadi. U ijobiy fikrlar

uchun Qo'lning ayoliga minnatdorchilik bildirib, ularning ketayotganidan xursand emasligini yana bir bor takrorladi va orqasiga o'girilib, ketdi. Bu Qo'llar kimga kerak? Aftidan, ular hech kimga kerak emas.

KIRISH

SIZ JAMOATDA NIMA IZLAYAPSIZ?

Xo'sh, siz jamoatda nima izlayapsiz? Ehtimol, bu haqda o'ylab ko'rmagandirsiz. Lekin vaqt topib, mukammal jamoat qanday bo'lishi kerakligi haqida o'ylab ko'ring. "Mukammal jamoat shunday joyki, u yerda ..."

Yoqimli musiqa – ko'p mashq qilinganini ifoda etuvchi musiqa bo'ladi. Sizga gitara va baraban kerak bo'lmaydi. Sizga hamdu sano guruhi va skripkachining o'zi yetarli bo'ladi. Yoqimli musiqa Xudoni ulug'laydi. Ehtimol, siz zamonaviy musiqa asboblarni, ya'ni gitara va baraban bo'lishini xohlarsiz. Odamlar radio orqali bu asboblarni ishtirokida musiqalar tinglashadi, shuning uchun ularga o'zlari istagan narsani bering.

Ehtimol, siz uchun va'z musiqadan muhimroqdir. Siz yaxshi va'zlarni aytiladigan, ya'ni ma'noli, lekin tushunish qiyin bo'lmagan, Kalomga asoslangan, lekin zerikarli bo'lmagan, amaliy, lekin ikir-chikirlarga va qonunlarga asoslanmasdan va'z aytiladigan jamoatni xohlarsiz. Albatta, voizning tabiati uning va'zlariga ta'sir ko'rsatadi va voizlar har xil bo'ladi: kimdir ilmiy ta'limotlarni yoqtiradi va hech qachon kulmaydi, kimdir juda ko'p qiziqarli hikoyalarni biladigan xushchaqchaq bo'ladi, yana kimdir "ko'p narsalarni o'z boshidan o'tkazgan" oilaviy maslahatchi bo'ladi. To'g'ri, men hozir hazil aralash

gapiryapman, lekin ko'pchiligimizda cho'pon qanday bo'lishi kerakligi haqida o'z qarashlarimiz bor, to'g'rimi?

Ehtimol, hayotda siz bilan bir xil holatda bo'lgan odamlardan iborat jamoatni izlayotgandirsiz. Siz ular bilan bemalol til topisha olasiz. Ular siz bilan bir xil holatda bo'lgani uchun nimalarni boshdan kechirayotganingizni tushunishadi. Ular xuddi sizdek yaqinda kollejni tamomlashgan. Yoki xuddi sizdek kichkina farzandlari bor. Yoki ular ham xuddi sizdek nafaqaga chiqish arafasida. Ular ham xuddi sizdek arzon do'konlardan yoki qimmat butiklardan narsa xarid qilish nima ekanini bilishadi. Ular ham xuddi sizdek shaharlik yoki qishloqlik.

Yoki jamoatdagi boshqa narsalar, masalan, xizmat qilish, yaxshi ishlar qilish imkoniyati siz uchun muhimroqdir. Jamoat Xushxabarni targ'ib qiladimi? Boshqa missiyalarni bajaradimi? Nochorlarga yordam beradimi? Sizga va o'g'illaringizga boshqa otalar va o'g'illar bilan uchrashish imkoniyatini beradimi? Bolalar xizmati uchun o'z hissangizni qo'shish imkoniyatini beradimi? Kichik yoki o'smir yoshdagi bolalaringizni jalb qiladigan dasturlari bormi?

Ishonamanki, ba'zi odamlar "Ruh uchun tirik" jamoatni izlashadi. Bizni aynan Ruh boshqaradi, shuning uchun siz Uning ovozini eshitishga chaqqon, qilayotgan ishlarini diqqat bilan kuzatadigan va U amalga oshira oladigan ma'lum narsalarga tez ishonadigan odamlardan iborat jamoat topishni xohlaysiz. Siz Ruhning shashtini pasaytiruvchilar hamda urf-odatlariga amal qiluvchilar orasida bo'lishdan charchadingiz. Ruh yangi narsalarni amalga oshiradi! U bizga yangi qo'shiqlar beradi!

Ehtimol, siz o'ziga xos muhit hukm suradigan jamoatni izlayotgandirsiz. Albatta, siz shunday jamoat izlayotganingizni hech qachon aytmagansiz. Biroq, agar siz savdolashadigan joy, bozor yoki faqat ibodat qilib, sham yoqadigan eski ma'bad yoki qahvaxonani eslatuvchi jamoatga o'rganib qolgan bo'lsangiz, siz izlagan mukammal jamoat xuddi shunday muhitda bo'lishi mantiqan to'g'ri bo'ladi. Bu narsalarning kutilishi tabiiy hol. Ota-onamizning uyidan ko'chib ketganimizdan keyin ba'zida ma'lum manzaralar, hidlar yoki tovushlar orqali onamiz yoki otamiz qilgan narsalarni ko'pchiligimiz his qilganmiz, to'g'rimi?

Bu narsalarning aksariyati yaxshi bo'lishi yoki hech bo'lmaganda neytral bo'lishi mumkin. To'g'risini aytsam, men jamoatda siz uchun eng muhim narsa nima ekanligi haqida o'ylashni boshlashingizni istayman.

Nima izlayapsiz? Sizni iliq qabul qiladigan joynimi? Yaqin munosabatli, samimiy, katta, shinam, zamonaviy, zavqli yoki intellektual sinov bo'ladigan joyni izlayapsizmi?

Jamoat qanday bo'lishi kerak?

Barcha masihiylarga tegishli mavzu

Muqaddas Kitobga ko'ra, jamoat qanday bo'lishi kerakligini muhokama qilishdan avval – buni ilk boblarda ko'rib chiqamiz – men nima uchun bu savolni berganimni o'ylab ko'rishingizni istayman, ayniqsa, agar siz cho'pon bo'lmasangiz. Axir, sog'lom jamoatlar mavzusidagi kitob cho'ponlar va jamoat yetakchilari uchun yozilmaganmi?

To'g'ri, bu kitob cho'ponlar uchun yozilgan, lekin har bir imonliga ham tegishli. Yodingizda bo'lsin: Yangi Ahd

mualliflari aynan ularga murojaat qilgan. Galatiya shahridagi jamoatlar soxta ta'limotlarga quloq solishni boshlaganlarida, Pavlus ularga maktub yozib, "Sizlarni Masihning inoyatiga da'vat qilgandan boshqa "xushxabar"ga shu qadar tez o'tib ketganingizdan hayronman" (Galatyaliklar 1:6) degan. Xo'sh, jamoatlaridagi soxta ta'limot uchun Pavlus "kimlarni" javobgar, deb atadi? Faqat cho'ponlar emas, balki jamoat a'zolari ham bunga javobgar ekanligini aytdi. Pavlus jamoat yetakchilariga "Bid'atni bas qilinglar!" deb yozishini kutgan bo'lishingiz mumkin. Lekin u bunday qilmadi. U butun jamoatning bunga javobgar ekanligini aytdi.

Xuddi shunday, Korinf shahridagi jamoat ham jinsiy axloqsizlikka yo'l qo'yganda, Pavlus to'g'ridan-to'g'ri jamoatga murojaat qildi (1-Korinfliklar 5). U bu muammoni hal qilishni cho'ponlar yoki jamoat yetakchilariga buyurmadi, balki butun jamoatga buyurdi.

Yangi Ahddagi maktublarning ko'pida xuddi shunday yozilgan. Pavlus, Butrus, Yoqub va Yuhanning aytgan gaplariga birinchi asrdagi jamoatlar cho'ponlari quloq solganiga ishonchim komil. Qolaversa, cho'ponlar havoriylarning maktub orqali bergan ko'rsatmalariga amal qilishda tashabbus ko'rsatganlariga ham ishonaman. Lekin havoriylar ko'rsatgan namunaga amal qilish hamda siz cho'ponlar va jamoat a'zolariga murojaat qilish orqali mas'uliyatni o'z egalariga yetkazayotganimga ishonaman. Jamoatingiz qanday jamoatga aylanishida nafaqat cho'ponlar va boshqa yetakchilar, balki siz va jamoatingizning barcha a'zolari, ya'ni barcha masihiylar Xudoning oldida birdek javobgarsiz.

Sizlarning cho‘ponlaringiz jamoatga qanday yo‘lboshchilik qilgani uchun Xudoning oldida hisob beradilar (Ibroniylar 13:17). Lekin biz, ya‘ni Rabbimiz Iso Masihning shogirdlari hisoblanganlarning har biri jamoatga qay darajada muntazam kelganimiz, bir-birimizni mehr-muhabbatga va xayrli ishlarga qanchalik undaganimiz hamda Xushxabar umidi haqidagi to‘g‘ri ta‘limotni mahkam tutishga qanchalik intilganimiz uchun Xudoning oldida javob beramiz (Ibroniylar 10:23-25).

Qadrli do‘stim, agar siz o‘zingizni masihiy deb hisoblasangiz-u, lekin sog‘lom jamoatlar haqidagi kitob faqat yetakchilar yoki “ilohiyotshunoslik” bilan shug‘ullanadigan odamlar uchun deb o‘ylasangiz, o‘zingiz esa masihiylik hayot haqidagi kitoblarni o‘qishni afzal ko‘rsangiz, balki to‘xtab, Muqaddas Kitob masihiy kim ekanligi to‘g‘risida aynan nima deyishini yana bir bor ko‘rib chiqish vaqti kelgandir. 1–bobda buni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Undan keyin jamoat nima ekanini (2–bob), jamoatlar uchun Xudoning maqsadi nima ekanini (3–bob) hamda nima uchun jamoatlar Muqaddas Kitob asosida boshqarilishi kerakligini (4–bob) ko‘rib chiqamiz.

Agar siz jamoatlarimiz Xudoning ulug‘vorligini namoyon etishi uchun Muqaddas Kitob asosida boshqarilishi kerak, degan fikrga qo‘shilsangiz, darhol 5–bobga o‘tishingiz mumkin. U yerda men sog‘lom jamoatning 9 ta belgisi ro‘yxatini keltirganman. O‘zining ikkinchi bor keladigan kuniga Kelinini tayyorlash uchun Rabbimiz bizning yakdillikdagi fikr-mulohazalarimizni ishga solsin (Efesliklar 5:25-32).

1-QISM

SOG'LOM JAMOAT NIMA?

SIZNING MASIHILIGINGIZ VA JAMOATINGIZ

Kollejlarda xizmat olib boradigan xizmatchilar ba'zida mendan talabalar bilan gaplashishimni so'rashadi. Odatda, men o'z nutqimni quyidagi so'zlar bilan boshlayman: "Agar siz o'zingizni masihiy deb hisoblasangiz, lekin doimiy boradigan jamoatingizning a'zosi bo'lmasangiz, do'zaxga tushishingiz mumkin."

Bu so'zlar ularning diqqatini tortadi.

Xo'sh, men ularni sarosimaga solyapmanmi? Men bunday deb o'ylamayman. Qo'rqitish orqali jamoatga a'zo bo'lishga undayapmanmi? Unday emas. Jamoatga a'zo bo'lish kishini haqiqiy masihiy qilib qo'yadi, deyapmanmi? Albatta, yo'q. Bunday deydigan har qanday kitobdan (yoki voizdan) voz keching.

Xo'sh, nima uchun men mana shunday ogohlantirish bilan boshlayapman? Buning sababi shuki, ular masihiyning hayotida mahalliy sog'lom jamoatga qanchalik muhtoj ekanligini tushunishlarini hamda jamoatga nisbatan Masih va Uning izdoshlariga xos bo'lgan ehtirosni baham ko'rishlarini istayman.

Bugungi kunda g'arbdagi (boshqa joylarda ham) ko'plab imonlilar masihiylikni faqat Xudo bilan shaxsiy munosabat

sifatida ko'rishadi. Odatda, ushbu "shaxsiy munosabat" ularning turmush tarziga ta'sir ko'rsatishini ham bilishadi. Ammo Xudo bilan bo'lgan ushbu muhim munosabat ikkinchi darajali shaxsiy munosabatlarni, masalan, Masih biz bilan O'z tanasi, ya'ni jamoat o'rtasida o'rnatadigan munosabatni talab qilishini ko'pchilik imonlilar tushunmaydi. Xudo bu munosabatlarni "ayrim" imonlilar orasidan o'zimizga ma'qulini tanlab olishimizni istamaydi. U bizni tana va qondan iborat, ba'zan asabimizni buzadigan odamlar bilan munosabat qilishimizni istaydi.

Agar siz o'zingizni masihiy deb hisoblasangiz, lekin o'zingiz boradigan mahalliy jamoatning munosib a'zosi bo'lmasangiz, do'zaxga tushishingiz mumkinligidan nima uchun xavotir olyapman? Masihiy inson kim ekanligi haqida men bilan birgalikda bir muddat o'ylab ko'ring.

Masihiy inson kim?

Masihiy inson – eng birinchi navbatda, Iso Masih orqali gunohlari kechirilgan va Ota Xudo bilan yarashgan insondir. Bu narsa inson gunohlari uchun tavba qilib, Xudoning O'g'li Iso Masihning mukammal hayoti, to'lov to'lagan o'limi va tirilishiga ishonishi orqali amalga oshadi.

Boshqacha aytganda, masihiy inson – o'zidan va shaxsiy axloqiy qadriyatlaridan voz kechgan kishidir. U Xudoning ochiq-oydin bayon etilgan qonunlariga qarshi chiqib, hayotini Xudodan boshqa narsalarga, masalan, obro'-e'tibor, oila, pulga sotib olish mumkin bo'lgan narsalar, boshqa odamlarning fikrlari, oilasi va yaqinlarining sha'ni, boshqa dinlarning xudolaridan marhamat izlash, bu dunyodagi

ruhlar, hatto inson qilishi mumkin bo'lgan savob amallarga bag'ishlaganini anglab yetgan. U bu "butlar" ikki tomonlama halokat keltiradigan xo'jayinlar ekanini ham tushunadi. Ular bu hayotda hech qachon to'yishmaydi. Ular oxiratda Xudoning g'azabini qo'zg'atadi, bu o'lim va hukm bo'lib, masihiy inson bu dunyo azoblarida allaqachon buni o'z boshidan o'tkazgan.

Shunday qilib, masihiy kishi biladiki, agar u bugun tunda o'lib, Xudoning oldiga borsa va Xudo undan: "Nima uchun seni O'z huzurimga kiritishim kerak?" deb so'rasa, u shunday javob beradi: "Meni O'z huzuringga kiritishing kerak emas. Men ko'p gunoh qilganman va hech qachon ularni yuva olmayman." Lekin u shu bilan to'xtab qolmaydi. U so'zini davom ettirib deydi: "Biroq Sening buyuk va'dalaring hamda inoyating tufayli men uchun to'kilgan Iso Masihning qoniga ishonaman. Uning qoni barcha gunohlarimni yuvgan, Sening muqaddas va adolatli talablaringni qondirgan va gunoh uchun sochiladigan qahringdan meni xalos qilgan!"

Masihda solih deb e'lon qilinish talabini qabul qilish orqali masihiy kishi gunoh qulligidan ozod bo'lishni boshlaydi. Butlar hamda boshqa xudolarning talabi qondirilmagan, ko'ngillari to'lmagan bir paytda, Masih amalga oshirgan ishdan Xudoning ko'ngli to'lishi Masihning ishi orqali mahkumlikdan qutqarilgan insonning ozod ekanligini anglatadi! Masihiy inson hayotida ilk bor gunohdan yuz o'girish uchun ozod bo'ldi. Endi u bir gunohni boshqa gunoh bilan almashtirish o'rniga, Muqaddas Ruh bergan ishtiyoq tufayli uni Iso Masihning O'ziga va hayotida U hukmron bo'lish istagiga almashtira oladi. Odam Ato Xudoning o'rniga taxtga o'tirishni istagan joyda masihiy inson Masihning taxtga

o'tirishidan quvonadi. U Otaning irodasi va so'zlariga to'liq itoat qilgan Isoning hayoti haqida mulohaza qiladi va o'z Najotkoriga o'xshashga intiladi.

Shunday qilib, masihiy inson – eng avvalo, Masih orqali Xudo bilan yarashgan kishidir. Masih Xudoning g'azabini qaytardi va masihiy inson endi Xudoning nazarida solih deb e'lon qilinib, solih hayot kechirishga da'vat qilindi. U endi bir kun kelib samoda Xudoning ulug'vor huzurida hozir bo'lish umidi bilan yashaydi.

Lekin bu hali hammasi emas!

Ikkinchidan, masihiy inson – Xudo bilan yarashish orqali Xudoning xalqi bilan ham yarashgan insondir. Odam Ato bilan Momo Havo gunoh qilib, bog'dan haydalganlaridan keyin Muqaddas Kitobda yozilgan ilk hikoya yodingizdami? Bu hikoya bir insonning boshqa bir insonni o'ldirgani, ya'ni Qobil Hobilni o'ldirgani haqida. Agar Xudoni taxtdan tushirishga urinish aslida o'sha taxtga o'zimiz o'tirishga urinish hisoblanadigan bo'lsa, bu taxtni boshqa bir inson bizdan tortib olishiga yo'l qo'ymaymiz. Hech qachon. Odam Atoning Xudo bilan munosabatini buzishi shu zahotiyoq barcha inson zoti orasidagi munosabatning buzilishiga sabab bo'ldi. Ya'ni hamma o'zi uchun yashaydigan bo'ldi.

Shuning uchun Iso: “Rabbiy Xudoyingni butun yuraging, butun joning va butun onging bilan sevgin” va “O'z yaqiningni o'zingni sevgandek sevgin” deb butun Tavrot va payg'ambarlarning hamma bitiklari mana shu ikki amrga tayanishini aytgani ajablanarli emas (Matto 22:34-40 ga qarang). Bu ikki amr bir-biri bilan uzviy bog'liq.

Birinchi amrdan ikkinchi amr paydo bo'ladi, ikkinchi amr esa birinchisini tasdiqlaydi.

Demak, Masih orqali Xudo bilan yarashish – Xudo bilan yarashgan boshqa barcha insonlar bilan ham yarashishni anglatadi. Pavlus Efesliklarga maktub 2–bobning birinchi qismida Iso Masih orqali Xudo ato etgan buyuk najotni tasvirlaganidan keyin bu najot yahudiylar va g'ayriyahudiylar o'rtasidagi munosabatda, aniqroq aytganda, Masihga imon keltirgan barcha insonlar o'rtasidagi munosabatda nimani anglatishini tushuntirgan. U shunday yozadi:

Chunki Masih bizning tinchligimizdir: U ikkitani (yahudiylar va majusiylarni) bitta qilib, o'rtada turgan to'siq devorini buzdi. . . . O'zida ikkitadan (yahudiylar va majusiylardan) bitta yangi odamni yaratib, tinchlik o'rnatib, adovatni xochda o'ldirsin va bir tanada ikkalasini xoch orqali Xudo bilan yarashtirsin. (Efesliklar 2:14-16)

Endi Xudoga tegishli bo'lganlarning barchasi “hamfuqaro” va “Xudoning xonadonidagilari” hisoblanadi (2:19). Biz Masih bilan “bir bo'lib”, “muqaddas ma'badga” aylandik (2:21) – tanlov uchun juda keng o'xshashliklar keltirilgan!

Oila, munosabat va tana

Darhaqiqat, oila haqida o'ylash Xudo bilan yarashish Uning xalqi bilan yarashishni anglatishini tushunishga yordam

beradi. Agar siz yetim bo'lsangiz, o'zingiz uchun ota-ona asrab ololmaysiz, ular sizni asrab olishlari mumkin. Agar sizni asrab olganlarning sharifi Smit bo'lsa, demak siz Smitlarning boshqa farzandlari bilan birga oilaviy kechki ovqatda qatnasha olasiz. Tunda siz Smit sharifidagi aka-ukalaringiz yoki opa-singillaringiz bilan bir xonada uxlashingiz mumkin. Maktabda ham o'qituvchi davomatni tekshirayotib, "Smit" shu yerdami, deb so'rganida, siz qo'lingizni ko'tarasiz. Sizdan avval akangiz ham shu paytda qo'lini ko'targan, sizdan keyin singlingiz ham ko'taradi. Siz "Smit" rolini o'ynaganingiz uchun bunday qilmaysiz, balki kimdir mehribonlik uyiga kelib, sizga "endi sening sharifing Smit bo'ladi", degani uchun shunday qilasiz. O'sha kuni siz kimdir uchun farzand, uka yoki singil bo'ldingiz.

Biroq, sizning sharifingiz Smit emas. Endi siz – masihiy, ya'ni sizga sizni asrab olgan Masihning nomi berilgan (Efesliklar 1:5). Siz endi Xudo xonadonining a'zosi. "Insonlarni gunohlardan poklovchi Iso va poklangan insonlarning hammasi bir oilaga mansubdir" (Ibroniylar 2:11) [Muqaddas Kitob, 2020].

Bu oila a'zolari bir-biriga begona bo'lgan parokanda oila emas. Ularda munosabat bor. Xudo "sizlarni O'z O'g'li Rabbimiz Iso Masih bilan muloqotga chaqirgan" paytda (1–Korinfliklar 1:9), U sizlarni oilaning barcha a'zolari bilan yaqin munosabatda bo'lishga ham da'vat etgan (1–Korinfliklar 1:2 ga qarang).

Bu esa shunchaki oddiy, yuzaki muloyimlikdan iborat rasmiy munosabat emas. Bu – har birimizning o'z qarorlarimiz, shuningdek, insoniy qarorlardan ustun bo'lgan narsa,

ya'ni Masihning Shaxsi va U qilgan ishlar orqali birlashgan tanadir. "Men bu oiladan emasman", deyish, o'z qo'lingizni yoki burningizni kesib tashlashdek ahmoqlik bo'ladi. Pavlus Korinfliklarga shunday degan: "Ko'z qo'lga: «Sen menga kerak emassan», yoki bosh oyoqlarga: «Sizlar menga kerak emassizlar», – deb ayta olmaydi" (1–Korinfliklar 12:21)!

Lo'ndasini aytganda, jamoat haqida gapirmay turib, "Masihiy inson kim?" degan savolga javob berishning iloji yo'q, har holda Kalomda shunday deyilgan. Qolaversa, jamoatni bir so'z bilan ta'riflash qiyin, chunki Yangi Ahdda u turlicha ta'riflangan: oila va munosabat, tana va kelin, odamlar va ma'bad, ayol va uning bolalari. Yangi Ahdda masihiy insonning uzoq vaqt jamoatdan yiroq bo'lgani haqida aytilmagan. Jamoat – shunchaki joy emas. U insonlar, ya'ni Xudoning Masihdagi xalqidir.

Haqiqiy jamoatga a'zo bo'lish

Inson Masihni qabul qilganida, ruhan o'sishga foydali bo'lgani uchungina mahalliy jamoatga a'zo bo'lmaydi. Balki Masih uni qanday insonga aylantirganini, ya'ni Masih tanasining a'zosi qilganini ifodalash uchun mahalliy jamoatga a'zo bo'ladi. Masih bilan birlashish – barcha masihiylar bilan birlashishni anglatadi. Biroq bu birlik mahalliy jamoat orqali hayotga tatbiq etilishi, jonli va amaliy shaklga ega bo'lishi lozim.

Ba'zida ilohiyotshunoslar Imonlilar jamoati (yer yuzidagi barcha masihiylar) hamda mahalliy jamoat (va'z tinglash, suvga cho'mdirish va Qutlug' Kechlik marosimlarida ishtirok etish uchun yig'iladiganlar, sizga yaqin bo'lgan joy) orasidagi

farq haqida gapiradilar. Ba'zi oyatlarni hisobga olmaganda (Matto 16:18 hamda Efesliklarga yozilgan maktubning bir qismi), Yangi Ahdda asosan mahalliy jamoatlar haqida bayon etilgan. Masalan, Pavlus "Korinfdagi Xudoning jamoatiga" yoki "Galatiya tumanidagi jamoatlarga" deb yozgan.

Quyidagi oyatlar bir oz jiddiy, lekin juda muhim. Umumiy jamoatga a'zolibgimiz bilan mahalliy jamoatga a'zolibgimiz o'rtasidagi munosabat ko'proq imonimiz tufayli Xudo bergan solihlik bilan kundalik turmush tarzimizdagi solihlik o'rtasidagi munosabatga o'xshaydi. Imon orqali Masihni qabul qilganimizda, Xudo bizni solih deb e'lon qiladi. Lekin hamon Xudo bizni solih bo'lishga chaqiradi. Bemalol gunoh qilib yashayotgan inson avvalo Masihning solihligida yashayotganini tekshirsin (Rimliklar 6:1-18; 8:5-14; Yoqub 2:14-15 ga qarang). Bu narsa o'zini mahalliy jamoatga bag'ishlamaganlarga ham tegishli. Mahalliy jamoatga bag'ishlanish – Masih qilgan ishni tasdiqlashning yagona yo'lidir. Agar siz Xushxabarga imon keltirib, Muqaddas Kitobni o'rganadigan masihiylar jamoasiga qo'shilishni inkor qilsangiz, chindan ham Masih tanasining a'zosi ekanligingiz haqida o'ylab ko'ring! Ibironiylarga maktub muallifining quyidagi so'zlarini diqqat bilan tinglang:

Ishonchimiz e'tirofini ikkilanmay mahkam tutaylik, chunki va'da bergan Xudo sodiqdir. Bir-birimizga e'tibor berib, sevgiga va xayrli ishlarga rag'batlantiraylik. Ba'zilarida bo'lgan odat kabi yig'inlarimizni qoldirmaylik. Aksincha, o'sha kun yaqinlashib kelayotganini ko'rib, bir-birimizga yanada ko'proq dalda beraylik. Agar

biz haqiqat bilimini olgach, ixtiyoriy ravishda gunoh qilsak, unda gunohlar uchun boshqa qurbonlik qolmaydi, biroq dushmanni yutadigan olovning qahrini va hukmni qo‘rqinchli kutish qoladi. (Ibroniylar 10:23-27)

Xudoning nazaridagi vaziyatimiz, agar u samimiy bo‘lsa, garchi bu jarayon sekin va xatolarga to‘la bo‘lsa ham, kundalik tanlovlarimizda aks etadi. Xudo O‘z xalqini albatta o‘zgartiradi. Bu yaxshi xabar emasmi? Shuning uchun ey do‘stim, agar siz solih hayot kechirishga jon kuydirmayotgan bo‘lsangiz, Masihning solihligiga egaman, deb o‘ylamang. Xuddi shunday, agar haqiqiy mahalliy jamoatga a‘zo bo‘lmasangiz, o‘zingizni Imonlilar jamoati (butun dunyo masihiylari) a‘zosiman, degan noo‘rin xayollarga berilmang.

Kamdan-kam bo‘ladigan holatni hisobga olmaganida, haqiqiy masihiy mahalliy jamoat bilan bevosita munosabat orqali boshqa imonlilarning hayoti asosida o‘z hayotini quradi. U o‘zining “kamolga yetmaganini” biladi. U hamon gunohkor bo‘lib, mahalliy jamoat deb ataladigan insonlardan tarkib topgan tananing yo‘l-yo‘riqlariga va hisobdorlikka muhtoj. Mahalliy jamoat ham unga muhtoj.

Xudoga sajda qilish hamda bir-birimizga mehr ko‘rsatish uchun, yaxshilik qilish uchun yig‘ilganimizda, Xudo bizni O‘zi va bir-birimiz bilan yarashtirganini ko‘rsatamiz. Biz Muqaddas Kitob oyatlarini yod olganimiz, ovqatlanishdan oldin ibodat qilganimiz, ushr berganimiz yoki masihiycha va‘zlarni tinglaganimiz uchun emas, balki bir-birimiz bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga, kechirishga, hatto gunohkorlarga

nisbatan mehr ko'rsatishga tayyor bo'lganimiz uchun o'zgarganimizni bu dunyoga ko'rsatamiz.

Siz bilan biz kimsasiz orolda o'tirib olib, boshqalarga sevgi, quvonch, tinchlik yoki mehr ko'rsata olmaymiz. Sevishimiz kerak bo'lgan odamlar ularni sevmasligimiz uchun sababchi bo'lganlarida ham biz bu fazilatlarini ko'rsataveramiz, ya'ni ularni sevishda davom etamiz.

Ko'ryapsizmi? Aynan shu joyda, ya'ni bir-birini sevishtga chaqirilgan gunohkor odamlar orasida Xushxabar namoyon bo'ladi. Masih bizni kechirgani kabi biz ham bir-birimizni kechirganimizda, Masih O'zini biz uchun bag'ishlagani kabi bir-birimizga o'zimizni bag'ishlaganimizda va Masih biz uchun jonini fido qilganidek, biz ham bir-birimiz uchun o'zimizdan kechganimizda, jamoat Xushxabarni yaqqol aks ettiradi.

Birgalikda biz Iso Masih haqidagi Xushxabarni namoyon eta olamiz, buni yolg'izlikda amalga oshira olmaymiz.

Ko'pincha, men masihiylar o'zlarining turli ruhiy in'omlari haqida gapirayotganlarini eshitaman. Lekin meni bir narsa qiziqtiradi: Xudo bu in'omlarni jamoatdagi masihiylarning gunohlariga nisbatan munosib javob sifatida ishlatilishi uchun bergani haqida odamlar o'ylaydilarimi? Men qilgan gunohlar Xudoning sizga bergan in'omlarini amalda ko'rsatish uchun imkoniyatdir.

Shunday qilib, erkak va ayollar, yoshlar va keksalar, oq tanli va qora tanli, osiyolik va afrikalik, boy va kambag'al, savodli va savodsiz, turli xil qobiliyat va in'omlarga ega bo'lgan odamlardan iborat guruh to'plang. Faqat ularning hammasi o'zlarining xasta, gunohkor hamda inoyat tufayli najotga erishganliklarini yaxshi tushunishlari kerak. Xo'sh,

endi sizda nimalar bor? Endi sizda jamoat tashkil qilish uchun hamma narsa bor!

Agar sizning maqsadingiz hamma masihiylarni sevish bo'lsa, sizga maslahatim shunday: avvalo bir qator xato va kamchiliklari bor masihiylar bilan yaqin munosabatda bo'lishga harakat qiling. Sakson yil davomida ularning quvonchli va qayg'uli kunlarida birga bo'ling. Keyin oldimga kelsangiz, yer yuzidagi barcha masihiylarda sevishni shakllantirish haqida gaplashamiz.

Mas'uliyat

Shunday qilib, “jamoat” deb ataluvchi odamlardan iborat guruh haqida kim o'ylashi kerak? Faqat cho'ponlar va jamoat yetakchilarimi? Albatta. Boshqa masihiylar-chi? Albatta, ular ham. Masihiy bo'lish jamoatning, ya'ni Masih tanasining hayoti va sog'lomligi haqida qayg'urishni anglatadi. Siz jamoatga tegishli bo'lganingiz, ya'ni masihiy bo'lganingiz uchun jamoat haqida, uning qanday bo'lishi haqida qayg'urishingiz lozim.

Darhaqiqat, biz jamoatga g'amxo'rlik qilamiz, chunki u Najotkorimizning tanasidir. Masihiylarni quvg'in qilgan Shoul (keyinchalik Pavlus deb atalgan) Damashq yo'lida Isoga duch kelganida, Iso aytgan so'zlarga e'tibor berganmisiz? “Shoul, Shoul! Nega Meni quvg'in qilyapsan?” degan (Havoriylar 9:4). Iso O'zini jamoat bilan shunchalik bog'laganki, “Nega Meni quvg'in qilyapsan?” deb aytgan! Birodar, Najotkoringiz O'zini jamoat deb atagani kabi, siz ham o'zingizni jamoat deb atay olasizmi? Sizning ehtirolslaringiz Uning ehtirolslari bilan bir xilmi?

Yaqinda bitta cho'ponning maktubini menga yetkazishdi. U o'z maktubida jamoatining har bir a'zosi jamoat qanday bo'lishi kerakligini bilishini istashi haqida yozgan ekan. Bu kamtarin inson o'z jamoatini inoyat va taqvodorlik sari yetaklashda jamoati unga yordam berishini va mas'uliyatini baholab turishini istar ekan. Bu cho'pon Yangi Ahdni yaxshi tushunadi. Bir kun kelib, Xudo undan jamoatni qanday boshqargani haqida hisob so'rashini biladi. Sadoqatli cho'pon sifatida, u suruvdagi har bir qo'y vaqti kelib bir-birini va cho'ponini qanday sevganlari haqida hisob berishlarini bilishini istaydi.

Xudo jamoat a'zolarining har biriga quyidagicha savollar beradi: "Jamoatning boshqa a'zolari xursand bo'lganida, ular bilan birga quvondingmi? Qayg'u chekkanlar bilan birga qayg'u chekdingmi? Ojiz tuyulgan tana a'zolarini kerakli deb hisoblab, ko'pchilik odamlar ahamiyatsiz deb o'ylagan a'zolarga alohida hurmat-e'tibor ko'rsatdingmi? Senga yetakchilik qilgan va ta'lim bergan insonlarni ikki hissa ko'proq hurmat qildingmi?" (1-Korinfliklar 12:22-26 va 1-Timotiy 5:17 ga qarang).

Birodar, katta oilani, jumladan, jamoat yetakchilariga qanday mehr ko'rsatganingiz va ularga qanday xizmat qilganingiz haqida Xudo sizdan hisob so'raydigan kunga tayyormisiz? Xudoning aytganlariga ko'ra, jamoat qanday bo'lishi kerakligini bilasizmi?

Ey cho'ponlar, qo'l ostingizdagi suruvga jamoat qanday bo'lishi kerakligi haqida ta'lim berib, ularni Xudoning oldida hisob berishga tayyorladingizmi? Xushxabarga qay darajada sodiq bo'lganingiz haqida hisob berishlarini ularga o'rgatdingizmi?

JAMOAT NIMA ... VA NIMA EMAS?

Kirish qismida men sizdan “jamoatdan nima izlayapsiz”, “Muqaddas Kitobga ko‘ra, jamoat qanday bo‘lishi kerak?” deb so‘radim, lekin bu savollarga javob bermadim. Albatta, bular juda qiyin savollar. Hozirgi kunda masihiylar jamoatdan turli narsalar izlashadi.

Yoqimsiz suhbat

Aspiranturada o‘qib yurgan paytimda, hech bir jamoatga a‘zo bo‘lmagan xizmatchi do‘stim bilan bo‘lgan suhbat hech yodimdan chiqmaydi. Biz u bilan birga ikki yil bitta jamoatga qatnaganmiz. Men o‘sha jamoatga a‘zo bo‘lganman, u esa yo‘q. Aslida, u faqat yakshanba kunlari ertalab yig‘ilishga kelardi, aniqrog‘i, yig‘ilishning yarmida, ya‘ni va‘z boshlanganida sekingina kirib kelardi.

Bir kuni undan nima uchun yig‘ilishning yarmida kirib kelishi haqida so‘rashga qaror qildim. “Yig‘ilishning boshqa qismida hech narsa olmayman”, deb javob berdi.

“Jamoatga a‘zo bo‘lish haqida hech o‘ylaganmisan?” deb so‘radim undan. U savolimdan ajablendi va shunday javob berdi: “Jamoatga a‘zo bo‘lish? To‘g‘risini aytsam, nima uchun bunday qilishim kerakligini tushunmayman. Men bu yerda

nima qilayotganimni bilaman, u odamlar esa meni orqaga tortishadi.”

Shuni aytishim mumkinki, u bu gaplarni bepisandlik bilan aytmadi, aksincha, Xudoning vaqtini behuda sarflashni istamaydigan qobiliyatli voiz sifatida gapirdi. U jamoatdan nima izlayotgani haqida o'ylab ko'rgan edi. U izlagan narsa jamoat a'zolarida yo'q edi, aniqrog'i, bu jamoatda yo'q edi. U Xudoning Kalomi bo'yicha ta'sirli va'z qilinadigan va bir haftaga yetadigan ruhiy quvvat beradigan joy izlayotgan edi.

Lekin uning “u odamlar esa meni orqaga tortishadi”, degan gapi qulog'im ostida jaranglab turaverdi. Men unga ko'p narsani aytmoqchi bo'ldim, lekin ikkitagina savol berdim, xolos: “Agar u odamlar bilan yelkama-yelka tursang, ha, ular seni orqaga tortishlari mumkin, lekin sen esa ularni tezroq olg'a yurishiga yordam bergan bo'lishing haqida o'ylab ko'rganmisan? Bu ular uchun ham, sen uchun ham Xudoning rejasi bo'lishi mumkinligini-chi?”

Men ham har yakshanba kunlari ta'sirli va'z qilinadigan jamoat xohlaganman. Lekin “Masihning tanasi” degan so'zlar ancha chuqur ma'noni o'z ichiga oladi, to'g'rimi?

Joy emas, odamlar

Birinchi bobda aytib o'tganimdek, jamoat qandaydir joy, bino yoki voizlik qilinadigan joy emas. Yoki ruhiy xizmat o'tkaziladigan makon emas. Jamoat – odamlar, ya'ni Masihning qoni evaziga sotib olingan, Yangi Ahdga ega bo'lgan Xudoning azizlaridir. Shuning uchun Pavlus shunday degan: “Masih Jamoatni sevib, u uchun O'zini fido qildi”

(Efesliklar 5:25). U qandaydir joy uchun O'zini fido qilmadi, balki odamlar uchun fido qildi.

Shuning uchun men cho'ponlik qiladigan jamoatda yakshanba kuni bo'ladigan yig'ilish "Kapitoliy tepaligidagi baptistlar jamoatiga xush kelibsiz", emas, balki "Kapitoliy tepaligidagi baptistlar jamoatining yig'ilishiga xush kelibsiz", degan so'zlar bilan boshlanadi. Biz bir joyga yig'ilgan odamlarmiz. To'g'ri, bu arzimagan narsa, lekin biz odamlarni iliq qarshi olish uchun ishlatadigan oddiy so'zlarda ham katta haqiqatni ko'rsatishga harakat qilamiz.

Jamoat – insonlar ekanini yodda tutish nima muhim-u nima muhim emasligini anglashda yordam beradi. Men esa bu yordamga muhtojman. Misol uchun, mening jamoatga nisbatan tuyg'ularim hamdu sano aytish uslubiga bog'liq. Axir, hamdu-sano aytishda jamoat foydalanadigan uslub har qanday jamoatda birinchi bo'lib e'tiborimizni tortadi va kuy ohangi bizga hissiy ta'sir qiladi. Ohang bizda ma'lum bir tuyg'u uyg'otadi. Lekin hamdu-sano aytish uslubi yoqmagani uchun jamoatdan ketishga qaror qilsam, bu narsa Masihga va Uning azizlariga bo'lgan sevgimni qanday ifodalaydi? Yoki jamoat cho'poni sifatida hamdu-sano aytish uslubini zamonga moslab o'zgartirish kerak, degan fikrda ko'plab jamoat a'zolarining fikrini inkor qilsam, bu qanday oqibatlarga olib keladi? Bu qilmishim bilan jamoat – bino emas, balki odamlar ekanini unutib qo'yganimni ko'rsatgan bo'laman.

Shu bilan birga, Muqaddas Kitob masihiylar jamoatda nimalar sodir bo'layotganiga, jamoat nimalar bilan band ekanligiga nihoyatda e'tiborli bo'lishlari kerakligi haqida

o'rgatadi. Darhaqiqat, bu kitobning deyarli yarmi shu masala haqida gapiradi.

Biz bu ikki narsani, ya'ni odamlarga g'amxo'rlik qilish bilan ular nima qilayotganiga e'tiborli bo'lishni qanday muvozanatga keltirishimiz mumkin? Agar bu kitob masihiy oilalarni tarbiyalash haqida bo'lganda edi, biz ma'lum narsalar – birga ovqatlanish, birlikda Kalom o'qish, birga xursandchilik qilish, bir-biri uchun ibodat qilish va shunga o'xshash narsalar haqida gaplashgan bo'lar edik. Lekin buni muhokama qilyotganimizda, ota-onalar ham xato qilishini va bolalarning hali yosh bola ekanini unutmasligimiz kerak.

Jamoatda ham xuddi shunday. Qaysidir jamoatning qilayotgan ishlari, masalan, jamoat yetakchiligi haqida Muqaddas Kitobda aytilgan qoidalarga amal qilmasligi (bu haqida keyinroq to'xtalib o'taman) sizga yoqmayaptimi? Agar shunday bo'lsa, bu odamlar hali ham inoyatda o'sib ulg'ayayotgan insonlar ekanligini eslang. Ularni seving. Ularga xizmat qiling. Ularga sabr toqatli bo'ling. Va albatta, oila haqida o'ylab ko'ring. Ota-onangiz, aka-ukalaringiz yoki farzandlaringiz sizga yoqmaydigan ish qilsalar, ularni haydab yuborasizmi? Menimcha, ularni kechirasiz va ularga sabr qilasiz. Hatto qarashlaringizni o'zgartirishingiz ham mumkin! Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, o'zimizga shunday savollar berishimiz kerak: fikrlari biznikidan farq qiladigan, umidlarimizni oqlamaydigan, hatto bizga qarshi gunoh qiladigan jamoat a'zolariga muhabbat ko'rsatib, ularga toqat qila olamizmi? (Axir, siz bilan mening ham kechirilishi kerak bo'lgan gunohlarimiz yo'qmi?)

Albatta, bu masalada ham ma'lum chegaralar bor. Siz a'zo bo'lishni, cho'ponlik qilishni yoki qolishni istamagan jamoatlar bo'lishi mumkin. "Jamoatning asosiy belgilari" bo'limida bu masalaga qaytamiz. Hozircha, asosiy tamoyil o'zgarmaydi, ya'ni jamoat – odamlardan iborat guruh. Jamoatdan nima izlashimiz yoki jamoat qanday bo'lishi kerakligi haqida nima deyishimizdan qat'iy nazar, u Muqaddas Kitob tamoyillariga mos kelishi kerak.

Jamoat – statistika emas, odamlardan iborat guruhdir

Ijozatingiz bilan jamoat haqida noto'g'ri fikrlashga to'siq bo'ladigan bir jihatni aytib o'tsam, bunday fikrlar ko'pincha cho'ponlar orasida uchraydi. Jamoat – shunchaki ma'lum bir joy bo'lmagani kabi, statistika ham emas.

Aspiranturada o'qib yurgan paytimda, 19–asrda yashab o'tgan Jon Braun ismli cho'pon tomonidan yozilgan nasihat maktubini ko'rgan edim. U bu maktubni kichik bir jamoatga cho'pon etib tayinlangan yosh shogirdiga yozgan edi. Maktubda Braun shunday yozgan:

Qanchalik mag'rur ekaningni hamda atrofingdagi birodarlaring jamoatlari bilan solishtirganda sening jamoating juda kichik ekanidan qattiq uyalishingni bilaman. Lekin bir kekxa insonning so'ziga ishon: sen bir kun kelib, ular uchun Masihning hukm kursisi oldida hisob

berganingda, “menga shuning o‘zi yetarli ekan”,
deb o‘ylaysan.¹

Xudo menga bergan jamoat haqida o‘ylar ekanman, Xudoning oldida hisob beradigan kunning qanchalik og‘ir ekanligini anglab yetganman. Men o‘zim cho‘ponlik qiladigan jamoatning kengayishini istadimmi? Hammaga ma‘lum va mashhur bo‘lishini xohladimmi? Boshqalarda yaxshi taassurot qoldiradigan jamoat bo‘lishini istadimmi?

Oldimda turgan odamlarga shunchaki “chidab” yoki “sabr qilib”, jamoatni o‘zim istagan shaklga solish imkoniyatini kutib yashadimmi? Jamoatning kelajagi uchun yaxshi orzu umidlar qilish yomon emas, lekin mening orzu umidlarim atrofimdagi Xudoning azizlariga nisbatan befarqlik yoki g‘azab uyg‘otdimi?

Yoki yakshanba kunlari sakkiz yuz kishilik katta zalda o‘tirgan, aksariyati yoshi katta insonlardan iborat bir nechta odamning taqdiri yodimdami? Ularning Muqaddas Kalomga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakatlari, eskicha urf-odatlarida hamda men yoqtirmaydigan uslubda hamdu sano aytishlari jamoat uchun qilgan maqsadlarimga mos kelmasa ham, ularni sevib, ularga xizmat qilamanmi? Shuni bilamanki, jamoat o‘zlari istagandek jamoat bo‘lishini kutib, atrofda odamlarga “toqat qiladiganlar” faqat cho‘ponlar emas.

Jamoat – ma‘lum bir joy yoki statistika emas, balki odamlardir. Jamoat – bosh bo‘lgan Masihga birlashgan

1 Jeyms Hey va Genri Belfrej, *Rev. Aleksandr Vo xotiralari* (Edinburg: William Oliphant & Son, 1839), 64-65–betlar [James Hay and Henry Belfrage, *Memoir of the Rev. Alexander Waugh* (Edinburgh: William Oliphant & Son, 1839), 64-65].

tanadir. Jamoat – Masih orqali Xudoning xonadoniga qabul qilingan oiladir.

Biz cho‘ponlar cho‘ponlik qilishimiz uchun Xudo bizga ishonib topshirgan suruv uchun javobgarligimiz jiddiy ekanini chuqurroq anglab yetishimiz uchun ibodat qilaman.

Qolaversa, imonda kamolotga yetgan yoki ruhan chaqaloq bo‘lishingizdan qat’iy nazar, katta oilangizning boshqa a’zolarini sevishingiz, ularga xizmat qilishingiz, dalda berishingiz hamda ularni mas’uliyatni his qilishga undashingiz kerakligini chuqurroq tushunishingiz uchun ham ibodat qilaman. Tanaviy birodarlaringiz masalasiga kelsak, “Men ukamga qo‘riqchimanmi?” (Ibtido 4:9) deb Xudoga beparvo javob bergan Qobil qayerda xatoga yo‘l qo‘ygani allaqachon tushunib yetganingizga ishonaman. Lekin, eng muhimi, agar avval buni tushunmagan bo‘lsangiz ham hozir katta oilangizdagi aka-ukalaringiz va opa-singillaringizga mas’ul ekaningizni anglab yetganingizga ishonaman.

Uning (Isoning) atrofida ko‘pchilik odam o‘tirgan edi. Ular Unga: – Mana, onang, ukalaring va singillaring tashqarida Seni so‘rashyapti, – dedilar. U esa ularga javob berdi: – Kim Mening onam yoki Mening ukalarim kim? So‘ngra atrofida o‘tirganlarga qarab: – Mana, Mening onam va ukalarim, – dedi, – zero kimki Xudoning irodasini bajarsa, aynan o‘sha Mening ukam, singlim va onamdir. (Mark 3:32-35)

HAR BIR JAMOAT NIMAGA INTILISHI LOZIM: SOG'LOM BO'LISHGA

Agar siz masihiy ota-ona bo'lsangiz va farzandlaringiz bo'lsa, ular uchun nimani xohlaysiz? Yoki aytaylik, siz farzandsiz, oilangiz uchun nimani xohlagan bo'lardingiz?

Ehtimol, ma'lum bir fazilatlar, masalan, sevgi, xursandchilik, muqaddaslik, birdamlik va Xudoni hurmat qilish kabi fazilatlar oilangizda bo'lishini istarsiz. Balki bu fazilatlar haqida o'ylab yurgandirsiz. Lekin, keling, ushbu fazilatlarni unchalik jozibador bo'lmagan bir so'z bilan – *salomatlik* so'zi bilan ifodalaylik. Siz sog'lom oila xohlaysiz, ya'ni azalda Xudo niyat qilganidek, birga yashaydigan, birga mehnat qiladigan va bir-birini sevadigan oilani xohlaysiz.

Bu narsa jamoatga ham tegishli. Menimcha, masihiylar kim bo'lishidan, ular cho'pon yoki jamoatning oddiy a'zosi bo'lishidan qat'iy nazar, jamoatlari sog'lom bo'lishi uchun harakat qilishlari kerak.

Ehtimol, jamoat *sog'lom bo'lishi* kerakligini ifoda etuvchi boshqa bir so'z bordir. Nima bo'lganda ham biz boqiy O'g'il, shohlarning Shohi, xudolar Xudosining qoni evaziga sotib olingan odamlar haqida gapiryapmiz. *Sog'lom* so'zi ta'riflash uchun eng yaxshi so'zmi? Biroq menga *sog'lom* so'zi yoqadi, chunki bu so'z amal qilayotgan va rivojlanayotgan tanani

anglatadi. Albatta, unda ham qandaydir muammolar bo'lishi mumkin. Tana hali kamolotga yetmagan bo'lishi mumkin. Lekin to'g'ri yo'lda. U o'z ishini qilyapti, chunki Xudoning Kalomi unga yo'l ko'rsatmoqda.

Hayotimizdagi gunohlarga qarshi kurashish masalasida imonlilar gunoh qilmaydi, lekin imonsizlar gunoh qilib qo'yadi, degan tushuncha noto'g'ri ekanini jamoatimga ko'p aytaman. Aslida, bu kurashda biz qaysi tomonda ekanimiz asosiy o'rinda turadi. Imonlilar gunohga qarshi kurashda Xudo tomonida bo'ladilar, imonsizlar esa Xudoga qarshi bo'lgan tomonda – gunoh tomonida bo'ladilar. Boshqacha aytganda, imonlilar ham gunoh qilishlari mumkin, lekin ular Xudoga va Uning Kalomiga yuzlanib: “Gunohga qarshi turishimda yordam ber”, deb Xudoga iltijo qiladilar. Imonsizlar esa gunoh qilganini bilsalar ham “Xudodan ko'ra, ko'proq gunoh ishlarni ma'qul ko'raman”, deydi.

Sog'lom jamoat – mukammal va gunohdan holi jamoat emas. Bu jamoat hali mukammallikka erishmagan. Aksincha, bu jamoat – dunyo, tana hamda iblisning aldovlariga hamda fosiq istaklariga qarshi Xudo tomonida turib kurashadigan jamoatdir. Bu jamoat Xudoning Kalomiga amal qilishga intiladigan jamoatdir.

Keling, sizga yanada aniqroq ta'rif beray, so'ngra bu ta'rifni qo'llab-quvvatlaydigan Muqaddas Kitobning bir nechta parchalarini ko'rib chiqamiz: *Sog'lom jamoat – bu Muqaddas Kitobda ochib berilganidek, Xudoning tabiatini (fe'l-atvorini) tobora ko'proq aks ettiradigan jamoatdir.*

Shuning uchun agar cho'pon mendan qanday jamoatni ma'qul ko'rishimni so'rasa, men unga: “Muqaddas Kitobda

bayon etilgan, Xudoning tabiatini (fe'l-atvorini) tobora ko'proq aks ettiruvchi sog'lom jamoatni ma'qul ko'rgan bo'lardim", deb aytishim mumkin.

Agar masihiy odam bo'lsangiz, sizni qanday jamoatga qo'shilishga, xizmat qilishga va sabr-toqat bilan harakat qilishga undashim mumkin? Muqaddas Kitobda bayon etilgan, Xudoning tabiatini (fe'l-atvorini) tobora ko'proq aks ettiruvchi sog'lom jamoat.

Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, men har doim "mumkin" degan so'zni ishlataman. Bu so'zni ikki sababga ko'ra ishlataman. Birinchidan, bu so'z jamoatning qanday bo'lishi kerakligini ifoda etuvchi yagona yo'l ekanligini da'vo qilmoqchi emasman. Turli vaziyatlar hamda turli maqsadlar uchun turlicha ta'riflar kerak bo'ladi. Misol uchun, biror muallif jamoatdagi legalizm yoki jilovsizlikka javoban: "Jamoatimiz uchun eng muhimi – xochga yo'naltirilgan jamoat bo'lishdir", deyishi mumkin. Men bu fikrga qo'shilaman. Yoki aksincha, muallif jamoatlarimizda Muqaddas bitiklarga amal qilinmayotganini, ya'ni jamoatimiz Muqaddas Kitobga asoslanmaganini aytishi mumkin. Men bu holatda ham uning fikriga qo'shilaman.

Ikkinchidan, men tushuntirmoqchi bo'lgan narsani hech kim mendan yaxshiroq tushuntira olmaydi, demoqchi emasman. Oddiy qilib aytganda, jamoatlarimizda umumiy holda intilishimiz kerak bo'lgan narsa, ya'ni Kalomda ochib berilgan Xudoning tabiatini (fe'l-atvorini) aks ettirish, Muqaddas Kitobga mos asosiy maqsad ekanini tushuntirish uchun ayni paytda qo'limdan kelgani shu.

Buni qaysi masihiy xohlamaydi?

Puxta tayyorlangan

Muqaddas Kitobda ochib berilgan Xudoning tabiatini (fe'l-atvorini) tasvirlash, tabiiyki, Xudoning Kalomi bilan boshlanadi. Jamoatlarimiz nimalar qilishi kerakligi va qanday jamoat bo'lishi kerakligini aniqlashda nima uchun biz "ish beradigan narsalarga" emas, aynan Muqaddas Kitobga qarashimiz kerak? Pavlus Efesdagi jamoatning cho'poni Timotiyga yo'llagan ikkinchi maktubida Kalom uni "har qanday yaxshi ishlar uchun" tayyorlashi haqida yozgan (2-Timotiy 3:17). Boshqacha aytganda, hech qanday yaxshi ishlar yo'q-ki, Kalom Timotiyning yoki bizni tayyorlamagan bo'lsa. Agar jamoatlarimiz Muqaddas Kitobda yozilmagan qandaydir narsalarni qilishimiz kerak yoki shunday bo'lishimiz kerak, degan fikrda bo'lsa, demak Pavlus xato qilgan bo'ladi, chunki bunday holatda, Kalom bizni "har qanday yaxshi ishlar uchun" tayyorlaydi, deb aytmagan bo'lardi.

Bu bilan men: "Xudo bergan aqlimizni ishlatmasligimiz kerak", demoqchimanmi? Yo'q, men avval Muqaddas Kitobdan boshlaylik va unda nimalar yozilganiga qaraylik, demoqchiman.

Men Muqaddas Kitobdagi syujet chizig'ining oltita lahzasi haqida qisqacha to'xtalmoqchiman. Ular bizga jamoatlarimiz Kalomda ochib berilgan Xudoning xususiyatlarini tobora ko'proq aks ettiradigan jamoatlar bo'lishini xohlashimizni tushunishga yordam beradi. O'zingizga ma'lumki, Kalom bitta hikoyani aytadi. Bu hikoya ichida ko'plab kichik hikoyalar bo'ladi, lekin bu kichik hikoyalarning hammasi bitta asosiy hikoyaga jamlangan

bo'ladi. Bizning maqsadimiz bu syujet chizig'i orqali Xudo jamoat uchun nima istashini aniqlash.

Surat – hamma narsa

1. Yaratilish

Ibtido kitobida Xudo o'simliklarni va hayvonlarni “o'z turiga xos” (Ibtido 1:11-12) tarzda yaratgani haqida yozilgan. Har bir olma boshqa olmadan, har bir zebra boshqa zebradan andoza olib yaratilgan. Ammo inson zoti haqida Muqaddas bitiklarda shunday yozilgan: “O'z suratimizga ko'ra, o'zimizga o'xshash qilib odamni yarataylik” (Ibtido 1:26). Odam boshqa odamdan andoza olib yaratilmagan. U Xudodan andoza olib yaratilgan. U o'ziga xos tarzda Xudoning suratini aks ettiradi, Unga o'xshaydi.

Xudoning suratida yaratilganimiz uchun biz, insonlar yaratilgan barcha mavjudotlar oldida Xudoni va Uning ulug'vorligini o'ziga xos tarzda ifodalashimiz kerak. Otasidek yo'l tutib, otasining izidan boradigan o'g'il kabi (Ibtido 5:1-8; Luqo 3:38), inson Xudoning tabiatini (fe'l-atvorini) aks ettirish hamda yaratilgan mavjudotlar ustidan hukmronlik qilish uchun yaratilgan: “... Ular dengizdagi baliqlar, osmondagi qushlar, chorvalar, butun yer ustidan va yerda sudralib yuradigan barcha sudraluvchilar ustidan hukmronlik qilsinlar” (Ibtido 1:26).

2. Gunohga qo'l urish

Lekin odam Xudoning hukmronligini aks ettirishni istamadi. U Xudoga qarshi qo'zg'olon qilib, o'z hukmronligini

ko'rsatishga kirishdi. Shuning uchun Xudo odamga o'zi istagan erkinlikni berdi va uni O'z huzuridan haydab chiqardi. Odamning qilgan gunohi u endi hech qachon o'z amallari bilan Xudoga yaqinlasha olmasligini bildiradi.

Odamzod gunoh qilgandan keyin ham Xudoning suratini o'zida saqlab qoldimi? Ha, Ibtido kitobida ta'kidlanishicha, odamda Xudoning "surati" saqlanib qolgan (Ibtido 5:1; 9:6 ga qarang). Biroq surat ham, tasvir ham buzilgan. Aytaylik, oyna qiyshaygan, shuning uchun u suratni aniq ko'rsatmaydi. Hatto gunohkor holimizda ham biz Xudo haqida ba'zi narsalarni – rost va yolg'on narsalarni tasavvur qilamiz. Teologlar tili bilan aytganda, odam bir vaqtning o'zida ham "aybdor", ham "buzilgan" bo'lib qoldi.

3. Isroil

O'z inoyatiga ko'ra, Xudo bir qancha odamni qutqarish hamda dunyo yaratilgan paytdagi asl maqsadini, ya'ni O'z ulug'vorligini namoyon qilish maqsadini amalga oshirish uchun ularni ishlatish rejasini tuzgan edi. Xudo Ibrom ismli odamga uni va avlodlarini barakalashini va'da qildi. Ular esa, o'z navbatida, barcha xalqlar uchun baraka bo'lishlarini aytdi (Ibtido 12:1-3). Xudo ularni "muqaddas xalq" va "ruhoniylar shohligi" (Chiqish 19:5-7) deb atadi, bu iboralar Xudo bergan qonunlarga amal qilish orqali boshqa xalqlarga Xudoning tabiatini (fe'l-atvorini) va ulug'vorligini ko'rsatish uchun maxsus tanlab olingan, degan ma'noni bildiradi (Aslida, bu ishni Odam Ato qilishi kerak edi). Xudo Isroil xalqiga: "Dunyoga Mening qanday Xudo ekanligimni ko'rsatinglar",

degan. “Muqaddas bo‘linglar, zero, Men muqaddasman” (Levit 11:44; qiyoslang: 19:2; 20:7).

Xudo hatto bu xalqni “o‘g‘lim” deb atadi, zero o‘g‘illar otasining yo‘lidan boradilar (Chiqish 4:22-23). Qolaversa, Xudo ularga bermoqchi bo‘lgan yurtida, xalq Xudoning ulug‘vorligini namoyon qiladigan joyda mana shu o‘g‘il bilan birga bo‘lishga ham va‘da bergan (3–Shohliklar 8:41-43).

Biroq, agar bu o‘g‘il Egamizga itoat qilmasa va Uning muqaddas sifatlarini namoyon qilmasa, Xudo uni bu yurtdan haydab yuborishi haqida ham ogohlantirgan. Qisqasini aytganda, o‘g‘il Xudoga quloq solmadi va Xudo uni O‘z huzuridan va yurtdan haydab yubordi.

4. Masih

Qadimgi Isroil xalqidan o‘rganishimiz mumkin bo‘lgan eng asosiy saboq shundan iboratki, gunohga botgan, o‘z holiga tashlab qo‘yilgan odamzod Xudoning qonuniga, yerga ega bo‘lsa va Xudoning huzuri ular bilan bo‘lsa ham, Xudoni to‘g‘ri aks ettira olmaydi. Isroil haqidagi hikoya har birimizni kamtarlikka chaqirishi kerak! Faqat Xudoning O‘zi O‘zini to‘g‘ri aks ettira oladi va faqat Xudo bizni gunohdan va o‘limdan qutqara oladi.

Shuning uchun, Xudo O‘zining yagona va ilohiy O‘g‘lini yubordi, U “insonlarga o‘xshab, ko‘rinishida inson kabi bo‘ldi” (Filippiliklar 2:7). Bu sevikli O‘g‘il Xudoning qonunlariga yoki Shohligiga to‘liq itoat etdi va Ota Undan mamnun bo‘ldi. Bu O‘g‘il Odam Ato qilmagan narsani qildi, ya‘ni shaytonning vasvasasiga qarshi turdi. Sahroda ro‘za tutib och qolganida, shaytonga: “Inson birgina non bilan emas, balki Xudoning

og'zidan chiqayotgan har bir So'z bilan yashaydi", – deb javob berdi (Matto 4:4).

U Isroil xalqi qilmagan ishni ham qildi. U Otaning irodasi va qonunlariga to'liq amal qilib yashadi: "O'zimdanda hech bir ishni qilmayotganimni, lekin Otam Menga qanday o'rgatgan bo'lsa, shunday so'zlayotganimni bilib olasizlar" (Yuhanno 8:28; yana 6:38; 12:49 ga ham qarang).

Otani mukammal darajada aks ettirgan bu O'g'il shogirdi Filipga "Meni ko'rgan, Otamni ko'rgan bo'ladi" (Yuhanno 14:9), deb aytgan.

Ota qanday bo'lsa, O'g'il ham shunday.

Ortga nazar tashlaydigan bo'lsak, Yangi Ahddagi maktublar mualliflari Uni "ko'rinmas Xudoning qiyofasi" (Kolosaliklar 1:15) hamda "shuhratning yog'dusi va Xudo shaxsiyatining qiyofasi" (Ibroniylar 1:3) deb ta'riflashgan. Oxirgi Odam va yangi Isroil sifatida, Iso Masih Xudoning insondagi suratini qutqardi.

Lekin, Masih qonunga bo'ysunish orqali Xudoning ulug'vor muqaddasligini aks ettirishdan tashqari, gunohkorlar uchun xochda qurbon bo'lish, ularga beriladigan jazoni O'ziga olish orqali Xudoning buyuk rahm-shafqatini va muhabbatini ham namoyish qildi (Yuhanno 17:1-3). Eski Ahdning boshidan oxirigacha mana shu qurbonlikka ishora qilingan. Odam Ato va Momo Havo gunoh qilganlaridan keyin ularning yalang'ochligini yashirish uchun so'yilgan hayvonlar haqida o'ylab ko'ring. Is'hoqni saqlab qolish uchun Xudo qay yo'l bilan Ibrohimga qo'chqor bergani haqida o'ylang. Vaqti kelib bir xalqni qutqarib qolish uchun akalarining qurboniga aylangan va qul qilib sotib yuborilgan Yusuf haqida mulohaza

qiling. To'ng'ich o'g'illarini o'limdan saqlab qolish uchun uy eshiklari kesakisiga qo'zining qonini sepkan Isroil xalqi haqida o'ylab ko'ring. Gunoh qurbonligini qilish uchun bir hayvonni ma'bad hovlisiga olib kirib, uning boshiga qo'llarini qo'ygan va "hayvondan to'kilgan qon meniki bo'lsin", deb uni so'ygan Isroil oilalari haqida o'ylang. Oliy ruhoniy yilda bir marta ma'badning Eng Muqaddas xonaga kirib, butun xalq uchun qurbonlik keltirgan. Isha'yo payg'ambarning va'dasini eslang: "Lekin u bizning gunohlarimiz uchun yaralangan edi va qonunbuzarliklarimiz uchun azoblangan edi. Bizning tinchligimiz haqi jazo Unga yuklangan edi va Uning yaralari bilan biz shifo topdik" (Isha'yo 53:5).

Bularning barchasi Xudoning Qurbonlik Qo'zisi sifatida xochda qurbon bo'lgan Iso Masihga ishora qiladi. Boloxonada o'tirganlarida Iso shogirdlariga aytganidek, gunohlaridan tavba qilgan va Unga imon keltirgan barcha insonlarga U "O'z qonidagi yangi ahd"ni (Luqo 22:20) taklif qilish uchun xochda qurbon bo'ldi.

5. Jamoat

Biz o'z gunohlarimiz tufayli o'lgan edik, lekin Masihning o'limi va tirilishini e'tirof etib, suvga cho'mganimizda qayta tirildik. Pavlus shunday e'lon qiladi: "Chunki Iso Masihga ishonish orqali sizlarning hammalaringiz Xudoning farzandlarisizlar. Sizlarning har biringiz Masihga cho'mdirilib, Masihga burkandingizlar" (Galatyaliklar 3:26-27). "Sizlar o'g'il bo'lganingiz uchun Xudo yuraklaringizga «Abba, Ota!» – deb chaqiradigan O'z O'g'lining Ruhini yubordi" (Galatyaliklar 4:6).

Xudoning bu o'g'illari nima qilishlari kerak? Biz samodagi Ota va O'g'ilning tabiatini, o'xshashligini, suratini hamda ulug'vorligini namoyon qilishimiz kerak!

Ota O'g'li keltirgan qurbonlik orqali O'zi bilan bizning oramizda tinchlik o'rnatgani kabi, Iso ham bizni "tinchlik o'rnatuvchilar" bo'lishimiz lozimligini aytgan (Matto 5:9).

Osmondagi Otamiz biz Unga dushman bo'lgan paytimizda bizni sevgani kabi, Iso bizga "dushmanlarimizni sevimiz" kerakligini aytadi (Matto 5:44; Rimliklar 5:8).

Iso bizga "bir-biringizni sevinglar", deydi, negaki, U bizni sevgani uchun O'z hayotini fido qildi, bu esa butun dunyoga Uning kim ekanini ko'rsatadi (Yuhanno 13:34-35).

Iso va Ota bir bo'lgani kabi, Iso bizning ham "bir" bo'lishimiz uchun ibodat qilgan (Yuhanno 17:20-23).

Osmondagi Otamiz barkamol bo'lgani kabi, Iso bizning ham "barkamol bo'lishimiz" kerakligini aytadi (Matto 5:48).

Iso bizning "inson ovchilari" hamda barcha xalqlardan shogird orttiruvchi bo'lishimiz kerakligini aytgan (Matto 4:19; 28:19). Ota Uni bu dunyoga yuborgani kabi, Iso ham bizni butun dunyo bo'ylab yuboradi (Yuhanno 20:21).

Ota qanday bo'lsa, O'g'il ham shunday, o'g'illar ham shunday.

Masihning qilgan qurbonligi tufayli gunohlardan poklangan, Muqaddas Ruhning ishlari tufayli yangi ijod bo'lib, qayta tug'ilgan yurakka ega bo'lgan odamlar Xudoning mukammal suratini qayta tiklay boshlaganlar. Masih bizning to'ng'ich birodarimiz (1-Korinfliklar 15:23). U o'rtadagi pardani olib tashladi va jamoat Otaning suratini yana ko'rishi uchun yo'l ochdi (2-Korinfliklar 3:14, 16). Endi biz imon

orqali Uning suratini ko'ra olamiz va "shuhratdan shuhratga, xuddi o'sha tasvirga o'zgarmoqdamiz" (2-Korinfliklar 3:18).

Jamoat uchun Xudoning maqsadini atigi ikkita oyatda ko'rishni istaysizmi? Pavlus shunday deydi:

Toki endi samodagi boshliq va hokimlarga Xudoning ko'p xildagi donoligi Jamoat orqali ma'lum bo'lsin. Xudo buni O'zining mangu maqsadi bo'yicha Rabbimiz Iso Masihda ro'yobga chiqardi. (Efesliklar 3:10-11)

Jamoat Xudoning ko'p xildagi donoligini qanday namoyon qiladi? Faqat cheksiz donolikka ega Xudo sevgi va adolatni saqlab qolish yo'lini topib, O'ziga ham, bir-biriga ham begonalashib ketgan gunohkor insonlarni qutqarishi mumkin edi. Faqat cheksiz donolikka ega bo'lgan Xudo toshbag'ir yuraklarni Uni sevadigan va ulug'laydigan yumshoq yuraklarga aylantirish yo'lini topishi mumkin edi. Koinotdagi har qanday kuchlar buni ko'rib, hayratda qolsinlar!

6. Ulug'vorlik

Biz Uni ulug'vorlikda ko'rganimizdagina Uning mukammal suratiga kiramiz: "Faqat shuni bilamizki, bu ochilganida, biz U kabi bo'lamiz, chunki U qanday bo'lsa, Uni shunday holda ko'ramiz" (1-Yuhanno 3:2). U kabi muqaddas bo'lamiz. U kabi sevamiz. Xuddi U kabi birlashamiz. Bu oyat biz ham xudo bo'lishimizni va'da qilmaydi. Balki bizning qalbimiz quyoshga qaratilgan ko'zgudek, Uning tabiati va ulug'vorligi bilan porlashini va'da qiladi.

Hikoyaga qisqacha nazar

Hikoyani diqqat bilan tingladingizmi? Buning qisqacha xulosasi quyidagicha: Xudo O'z ulug'vorligini namoyon etish uchun dunyoni va insoniyatni yaratdi. Xudoning tabiatini

aks ettirishi kerak bo'lgan Odam Ato va Momo Havo bunday qilmadilar. Isroil xalqi ham bunday qilmadi. Shuning uchun muqaddasligini va sevuvchi tabiatini namoyon etish hamda dunyoning gunohlariga qarshi yo'naltirilgan g'azabini qaytarish uchun Xudo O'z O'g'lini yubordi. Xudo Masihda O'zini namoyon etish uchun keldi. Masihda Xudo qutqarish uchun keldi.

Endi esa Masihning hayoti va Muqaddas Ruhning qudrati berilgan jamoat Xudoning tabiati va ulug'vorligini butun olamga namoyon qilishga, Uning buyuk donoligi hamda najot ishlari haqida so'zda va amalda guvohlik berishga chaqirilgan.

Do'stim, siz jamoatdan nima izlayapsiz? Yaxshi musiqanimi? Jonli muhitnimi? An'anaviy tartibdagi xizmatnimi? Mana bunga nima deysiz:

Butun samoviy qo'shinlar oldida...
isyonlari afv etilgan odamlarni...
Xudo O'z ulug'vorligini namoyon qilish uchun
ishlatishni istaydi...
chunki ular Xudo haqida haqiqatni
gapiradilar...
va tobora Uning O'zidek – muqaddas, sevuvchi
va birdam bo'lib boradilar?

XUDONING TABIATINI NAMOYON QILISH UCHUN YAKUNIY KO'RSATMA

Shuni tan olishim kerakki, xo'jalik ishlarini qilish unchalik qo'limdan kelmaydi. Masalan, kitob javoni yasash, stereo sistemalarni ulash qo'limdan kelmaydi yoki telefondagi tugmachalar nima uchun kerakligini ham bilmayman. Hatto, qo'llanmalar ham menga yordam bermaydi. Shuning uchun ko'pincha yaqinlarim yoki do'stlarimning yordamiga suyanishga majburman.

Mening uy ishlaridagi no'noqligim asosiy masalaga, ya'ni jamoat Xudoning tabiatini qanday namoyon qilishi kerakligi haqida Muqaddas Kitobning ko'rsatmalariga ta'sir qilmasligidan xursandman. Bu yerda asosiy ko'rsatma oddiy: biz Xudoning Kalomiga quloq solishimiz va Unga amal qilishimiz kerak. Bor-yo'g'i ikki narsa – quloq solish va amal qilish.

Xudoning so'zlarini eshitish va unga amal qilish orqali biz shohning elchilari yoki o'g'li kabi Xudoning tabiati va ulug'vorligini ko'rsatamiz. Endi otasi uzoq safarga ketgan o'g'ilni tasavvur qiling. Ota unga bir qancha maktub yo'llaydi va uy ishlarini qanday olib borish va uning ishlarini qanday davom ettirish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Lekin o'g'il bu maktublarni o'qimaydi. Xo'sh, bu o'g'il otasining ishlarini

davom ettirishni yoki uni qanday boshqarishni qayerdan o'rganadi? Hech qayerdan. Xudoning Kalomiga quloq solmagan jamoat ham xuddi shunday bo'ladi.

Ikki turdagi odamlar

Odam Ato Xudoning so'zlariga itoat qilmagani uchun bog'dan haydalganidan beri, butun insoniyat ikki toifaga – Xudoning so'zlariga itoat qiladigan va itoat qilmaydigan toifaga bo'lingan. Nuh Xudoning so'zlariga itoat qildi. Bobil minorasini qurganlar Xudoning so'zlariga itoat qilmadilar. Ibrohim itoat qildi, Fir'avn itoat qilmadi. Dovud itoat qildi, Uning o'g'illari itoat qilmadi. Zakkay itoat qildi, Pilat itoat qilmadi.

Buni jamoat tarixida ham ko'rishimiz mumkin. Afanasiy itoat qildi, Arius itoat qilmadi. Lyuter itoat qildi, Rim itoat qilmadi. Meychen itoat qildi, Fosdik itoat qilmadi.

Men, albatta, itoat qilmagan odamlar haqida ilohiy va xatosiz tushunchaga egaman, deb da'vo qilmoqchi emasman. Lekin, Muqaddas Kitobda bayon etilgan hikoyalar Xudoning xalqi bo'lganlarni yolg'onchilar va imonsizlardan ajratib turadigan asosiy farq – Xudoning xalqi Uning so'zlariga quloq solishini va unga amal qilishini o'rgatadi. Qolganlar bunday qilishmaydi. Qonunlar kitobida Muso va'da qilingan yurt chegarasiga ikkinchi marotaba yetib kelgan Isroil xalqiga aynan mana shu narsani tushuntirmoqchi bo'lgan. U 40 yil oldin ularning ota-onalari oldida turib ularni aytganini, lekin ular quloq solmaganini, Xudo esa ularni la'natlagani va ularning hammasi sahroda qirilib ketganini eslatdi. Deyarli 30–bobgacha tilga olingan nutqni quyidagicha xulosa qilish

mumkin: “Quloq solinglar! Eshitinglar! Yozib olinglar! Xudo nima deganini eslanglar. U sizlarni Misrdagi qullikdan qutqardi, shuning uchun Unga quloq solinglar!” 30–bobda Muso avval aytgan gaplarini bir og‘iz so‘z bilan xulosa qiladi: “Hayotni tanlang!” (Qonunlar 30:19).

Xudoning xalqi faqat Xudoning so‘zlarini tinglash va unga amal qilish orqaligina hayotga erishadilar. Hammasi oddiy.

Yangi Ahd jamoatlari uchun ham Xudoning amrlari o‘zgarmagan. Biz Uning so‘zlariga quloq solib imon keltirganimizda, U bizni gunoh va o‘limdan qutqargan (Rimliklar 10:17). Endi biz Uning Kalomiga quloq solishimiz va amal qilishimiz kerak. Xudoning Kalomiga quloq solish va amal qilish orqali biz Uning tabiatini va ulug‘vorligini tobora ko‘proq ko‘rsatamiz.

Kimdir: “Bu shunchaki ichki diqqatni jamlashdek gap”, deb e‘tiroz bildirishi mumkin. Jamoat tashqi narsalarga, ya‘ni missiyalarga, Xushxabar tarqatishga e‘tibor qaratishi kerak emasmi?” Albatta, jamoat bu ishlarga e‘tibor qaratishi kerak. Bu ishlar Xudoning tabiatini ko‘rsatishning bir usuli. “Iso ularga: «Menga ergashinglar va Men sizlarni inson ovchilari qilaman», – dedi (Matto 4:19), Iso yana shunday degan: “Otam Meni yuborganidek, Men ham sizlarni yuboryapman” (Yuhanno 20:21). Biz Rabbimizning topshirig‘ini bajarganimizda, Xushxabarni targ‘ib qilganimizda va Xudoning Shohligi uchun xizmat qilganimizda, bularni Xudoning Kalomiga muvofiq qilamiz, ushbu vaziyatda esa Matto 4:19 va Yuhanno 20:21 hamda boshqa bir qator oyatlarga muvofiq qilamiz. Bu ishlarni ayrim teologlar o‘ylab

topgani yoki bu fikr yaxshi ekanligiga ishonganimiz uchun qilmaymiz. Xudo bu olamda shu ishlarni qilishimiz kerakligini aytgani uchun biz voizlik qilamiz, Xushxabarni targ'ib qilamiz va Xudoning Shohligi uchun xizmat qilamiz.

Xullas, tarix Xushxabarni targ'ib qiladigan va Xushxabarni targ'ib qilmaydiganga ajratilmaydi. Jamoatni belgilaydigan narsa bu emas. Tarix Xudoning Kalomiga quloq soladigan va quloq solmaydiganlarga ajratiladi.

Shuning uchun Matto bayon etgan Xushxabarda Iso shaytonga: "Inson birgina non bilan emas, balki Xudoning og'zidan chiqayotgan har bir So'z bilan yashaydi" (Matto 4:4) deb aytganini hamda Iso shogirdlariga barcha xalqlardan shogird orttirish, ularni suvga cho'mdirish va "Men sizlarga buyurgan barcha narsalarga rioya qilishni o'rgatinglar" (Matto 28:20) deb aytgan so'zlarini ta'kidlagan.

Shuning uchun Mark ham Xudoning Kalomi haqida tushuntirish uchun yerga tushgan to'rt xil urug' haqida Iso aytgan masalni bayon etgan (Mark 4). Bu so'zlarni kimlardir qabul qiladi, kimlardir qabul qilmaydi.

Luqo ham o'zini hamma narsani o'z ko'zi bilan ko'rgan guvoh hamda xizmatkor deb ta'riflagan (Luqo 1:2) va Isoning va'dasini bayon etgan: "Xudoning So'zini tinglayotganlar va unga rioya qilayotganlar baxtlidirlar!" (Luqo 11:28).

Shuning uchun Yuhanno ham Iso Butrusga aytgan so'nggi so'zlarini bayon etgan. O'shanda Iso Butrusga bitta gapni uch marotaba takror aytgandi: "Mening qo'ylarimni boqqin" (Yuhanno 21:15-17). Ularni nima bilan boqish kerak? Xudoning Kalomi bilan.

Shuning uchun Havoriylar kitobida tilga olingan ilk jamoat birga yig'ilganida, ular "doimo havoriylarning ta'limotida, muloqotda, non sindirishda va ibodatlarda bo'lar edilar" (Havoriylar 2:42). Shuning uchun Pavlus Rimliklarga yo'llagan maktubida shunday yozgan: "Imon – eshitishdan, eshitish esa – Masihning so'zi orqalidir" (Rimliklar 10:17).

Shuning uchun u Korinfliklarga yo'llagan maktubida "xoch haqidagi xabar" (1-Korinfliklar 1:18) najot keltiruvchi "Xudoning qudrati" ekanini, chunki "Xudo voizlik telbaligi orqali imon keltirganlarni qutqarishni ma'qul ko'rdi" deb aytgan (1-Korinfliklar 1:21). Shuning uchun keyinroq u aynan shu jamoatga foyda olish uchun Xudoning Kalomini sotmasligini yoki "Xudoning So'zini buzmasligini", balki boqiy foyda olish uchun "samimiylik bilan voizlik" qilishini aytgan (2-Korinfliklar 2:17; 4:2).

Shuning uchun u Galatyaliklarga yo'llagan maktubida "kimki sizlar qabul qilgan Xushxabardan boshqa xushxabarni sizlarga voizlik qilsa la'nati bo'lsin", deb aytgan (Galatyaliklar 1:9).

Shuning uchun u Efesliklarga yozgan maktubida ularning "haqiqat so'zini, najotingizning Xushxabarini eshitib, Masihga imon keltirib, va'da qilingan Muqaddas Ruh bilan Masihda muhrlanganliklarini" (Efesliklar 1:13) aytgan. Ularga yana Xudo "ba'zilarni havoriylar, ba'zilarni payg'ambarlar, ba'zilarni xushxabarchilar, ba'zilarni cho'ponlar va muallimlar qilib tayinlaganini, toki Masihning tanasini barpo etishga xizmat qilishlari uchun muqaddaslarni kamolotga erishtirishini, shu tariqa, hammamiz imonning va Xudoning O'g'lini tanib-bilishning birligiga kelib, mukammal insonga,

ya'ni Masihning to'la-to'kisligining yetukligi me'yoriga erishtirgani"ni (Efesliklar 4:11-13) ham aytgan.

Shuning uchun u Filippiliklarga: "Rabbiydagi birodarlarimizning ko'pchiligi mening kishanbandligimdan dadillanib, Xudoning So'zini yanada jasorat bilan qo'rquvsiz voizlik qila boshladilar" (Filippiliklar 1:14), deb aytgan.

Shuning uchun u Kolosaliklarga "Masihning So'zi barcha donolik bilan yuraklaringizga mo'l-ko'l joylashib kiraversin . . . bir-biringizga nasihat qilib o'rgatinglar" (Kolosaliklar 3:16) deb aytgan.

Shuning uchun u Fessalonikaliklarga shunday yozgan: "Shuning uchun biz Xudoga tinimsiz minnatdorchilik bildirmoqdamiz, chunki sizlar bizdan eshitgan Xudoning So'zini inson so'zi sifatida emas, balki Xudoning So'zi sifatida qabul qildingizlar. Bu So'z esa siz imonlilarda kuchli harakat qilmoqda" (1-Fessalonikaliklar 2:13) va keyinroq ularga yo'l-yo'riq ko'rsatgan: "Shunday qilib, birodarlar, mustahkam turinglar. So'z yoki maktublarimiz orqali o'rgatilgan naqlarga rioya qilinglar" (2-Fessalonikaliklar 2:15).

Shuning uchun shogirdi Timotiyga ham jamoatga oqsoqollar tayinlashda "ta'lim berishga qobiliyatli" bo'lganlarni, jamoat xizmatchilari sifatida esa "imon sirini pok vijdonda saqlaydigan odamlarni" (1-Timotiy 3:2, 9) tanlashni buyurgan. Keyingi maktubida u Timotiyga butun e'tiborini bir narsaga qaratishni buyurgan:

So'zni voizlik qilgin, bu ishda qulay fursatmi, fursat emasmi, sabotli bo'lgin. Fosh qilgin, taqiqlagin, butun sabr-toqat bilan ta'lim berib nasihat qilgin. Chunki shunday zamon

keladiki, odamlar sog'lom ta'limotga dosh bera olmaydilar, lekin ular o'z hirslariga binoan quloqlariga yoqimli so'zlarni gapiradigan ustozlarni o'zlariga to'playdilar. Ular quloqlarini haqiqatdan o'girib, afsonalarga buradilar. (2-Timotiy 4:2-4)

Xudo "o'z vaqtida Najotkorimiz Xudoning buyrug'i bo'yicha menga topshirilgan voizlik orqali O'z So'zida namoyon qilgani" (Titus 1:3) uchun Titus bilan birga quvongan.

Shuning uchun Pavlus Filimonga dalda berib, "imomini" boshqalar bilan baham ko'rishda faol bo'lishini aytgan. "Imon" so'zi shaxsiy his-tuyg'u yoki sub'ektiv holatni anglatmaydi, balki aniq ta'riflangan e'tiqodlar to'plamini bildiradi (Filimon 6).

Shuning uchun Ibroniylarga yo'llangan maktub muallifi shunday ogohlantirgan: "Zero Xudoning so'zi jonli va ta'sirchan bo'lib, har qanday dudama qilichdan ham o'tkirroqdir. U jon hamda ruh orasini, bo'g'inlar hamda iliklarning orasini bo'lishgacha suqilib kiradi va yurakdagi o'y-niyatlarni fosh qiladi" (Ibroniylar 4:12).

Shuning uchun Yoqub ham uni tinglab turganlarga Xudo "bizni haqiqat So'zi bilan tug'di" hamda "O'z-o'zini aldaydigan So'zning faqat tinglovchilari emas, balki bajaruvchilari bo'linglar" (Yoqub 1:18, 22), deb ogohlantirgan.

Shuning uchun Butrus turli joylarga tarqalib ketgan Xudoning azizlariga ularning "chiriydigan urug'dan emas, balki chirimaydigan urug'dan, ya'ni tirik va abadiy mavjud

bo'lgan Xudoning So'zidan yangidan tug'ilganliklarini" (1–Petrus 1:23) hamda "Rabbiyning So'zi abadiy turishini" (1:25) eslatgan. Shuningdek, ikkinchi maktubida shunday yozgan: "Yozuvdagi hech bir payg'ambarchilik birovning xususiy ta'biri emasdir. Chunki hech qachon payg'ambarchilik insonning irodasi bilan aytilmagan, ammo uni Xudoning muqaddas odamlari Muqaddas Ruhdan ilhomlanib aytganlar" (2–Petrus 1:20-21).

Shuning uchun Yuhanno shunday yozgan: "Kimki Uning So'ziga rioya qilsa, u odamda Xudoning sevgisi haqiqatan kamolga yetgan bo'ladi. Ana shundan biz Unda jo ekanimizni bilamiz. Kimki: «Men Unda jo bo'lmoqdaman», – desa, Masih qanday yurgan bo'lsa, u ham shunday yurishi kerak" (1–Yuhanno 2:5-6) hamda "Sevgi shundan iboratki, bizlar Uning amrlari bo'yicha harakat qilaylik" (2–Yuhanno 1:6) va "Men uchun mening bolalarim haqiqatda yurganliklarini eshitishdan ortiq quvonch yo'qdir" (3–Yuhanno 1:4).

Shuning uchun Yahudo o'zining maktubida soxta ustozlar haqida ogohlantiradi (Yahudo 1:4-16) va Rabbimiz "barcha odamzodni hukm qilishini, ularning orasidagi betavfiqlarni, ularning barcha betavfiq ishlarini va betavfiq gunohkorlarning Xudoga qarshi aytgan qo'pol gaplarini fosh qilishini" (Yahudo 1:15) va'da qiladi.

Shuning uchun havoriy Yuhanno Vahiy kitobida Filadelfiya shahridagi jamoatni maqtagan: "Sen kam kuchga egasan, biroq Mening so'zimni asrading va Mening nomimdan voz kechmading" (Vahiy 3:8).

Do'stim, jamoat Xudoning Kalomini tinglash orqali o'z hayotini topadi. Xudoning Kalomi asosida hayot kechirish va uni hayotida namoyon etish orqali o'z maqsadini topadi. Jamoatning vazifasi – quloq solish va munosib javob qaytarish. Bori shu. Bugungi kunda jamoatlar duch kelayotgan asosiy chaqiriq – qanday qilib “dolzarb”, “strategik”, “sezgir” yoki hatto “maqsadli” bo'lishni tushunishda emas. Asl chaqiriq – qanday qilib sadoqatli bo'lishni, ya'ni qanday tinglashni, qanday ishonishni va qanday itoat qilishni anglab yetishdan iboratdir.

Bu borada biz xuddi va'da qilingan yurtga kirishga tayyorlanayotgan Isroil xalqiga o'xshaymiz. Xudo bizga: “Quloq sol, ey jamoat: Amal qil!” deb aytmoqda. Yaxshi xabar shundan iboratki, bizda, qadimgi Isroil xalqidan farqli ravishda, Iso Masihda Xudoning to'liq vahiysi bor. Bizda Xudo O'g'lining Ruhi, muhr hamda najot va'dasi bor.

Eshitishdan to'xtamaylik

Aynan mana shuning uchun kitobning ikkinchi qismiga o'tganimizda ham tinglashda davom etishni istaymiz. Xudo bizga O'z Kalomi orqali sog'lom jamoat haqida yana nimalarni o'rgatmoqchi? Sog'lom jamoatning biz hozir muhokama qiladigan ushbu to'qqizta belgisi, umid qilamanki, faqat mening fikrlarim emas. Ular shunchaki barchamiz tinglashda davom etishimiz uchun men beradigan turtki, xolos. Agar kitobning mundarijasiga qarasangiz, men nimani nazarda tutayotganimni bilib olasiz: ekspozitsion (Kalomga asoslangan) voizlik, Xushxabar ta'limoti, yuqoridan tug'ilish va Xushxabar tarqatish bo'yicha Kalomga asoslangan

tushuncha, jamoat a'zoliği bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha, Kalomga asoslangan jamoat tartib-intizomi va hokazolar.

Garchi keyingi boblarda aytadigan gaplarimning ayrimlariga qo'shilmasangiz ham, umid qilamanki, Kalomda men aytgan narsadan boshqacharoq aytilgan, deb o'ylaganingiz uchun fikrimga qo'shilmaysiz. Boshqacha aytganda, mahalliy jamoat qanaqa bo'lishi va nimalar qilishi kerakligini aniqlash uchun Kalomga diqqat qilasiz, deb o'ylayman.

MUHIM MASLAHATLAR

Agar jamoatdan ketish haqida o'ylayotgan bo'lsangiz...

Ketishdan avval:

1. Ibodat qiling.
2. Boshqa jamoatga o'tishdan yoki boshqa shaharga ko'chib ketishdan oldin hozirgi cho'poningizga nimani o'ylayotganingizni ayting. Undan maslahat so'rang.
3. Sabablar haqida o'ylab ko'ring. Ketish istagingizning sababi shaxsiy kelishmovchilik yoki ziddiyatmi? Agar ta'limot sababli ketmoqchi bo'lsangiz, bu ta'limotlar qanchalik muhimligi haqida o'ylab ko'ring.
4. Har qanday buzilgan munosabatlarni tiklash uchun qo'lingizdan kelgancha harakat qiling.
5. Jamoat hayotida ko'rgan barcha "inoyat alomatlarini", Xudoning ishi yaqqol ko'zga tashlangan holatlarni ko'rib chiqishni unutmang.

Agar Xudoning inoyat alomatlarining birontasini ham ko'ra olmasangiz, o'z yuragingizni yana bir marta tekshiring (Matto 7:3-5).

6. Kamtar bo'ling. Sizda yetarlicha asos yo'qligini tan oling va odamlar hamda vaziyatlarga nisbatan samimiy bo'ling (ularga yaxshi ko'z bilan qarang).

Agar ketadigan bo'lsangiz:

1. Tanani (jamoatni) bo'lmang.
2. Hatto eng yaqin do'stlaringiz orasida ham norozilik urug'ini sochmaslik uchun juda ehtiyot bo'ling. Ularning bu jamoatda unib-o'sishiga to'siq bo'lishni istamasligingizni unutmag. G'iybat qilish istagidan voz keching (bu narsa ba'zida "ichingdagini aytish" yoki "tuyg'ularingizni bildirish" deb ataladi).
3. Jamoatingiz va undagi yetakchilik uchun ibodat qilib, ularni marhamatlang. Buni amalda bajarish yo'llarini izlang.
4. Agar sizni xafa qilishgan bo'lsa, Xudo sizni kechirgani kabi, ularni kechiring.

2-QISM

**SOG'LOM JAMOATNING
ASOSIY BELGILARI**

Biz sog'lom jamoatlarga ega bo'lishni istaymiz, deb qaror qildik. Biz Xudoning Kalomida ochib berilgan Uning tabiatini tobora ko'proq aks ettiradigan imonlilar jamoatlarini ko'rishni istaymiz. Mayli, jamoatlar katta bo'lsin. Mayli, ular kichik bo'lsin. Shahardami yoki qishloqda, an'anaviymi yoki zamonaviy – buning ahamiyati yo'q. Mayli, ular uylarda, binolarda, maktablarda yoki do'konlarda uchrashishsin. Ular shunchaki butun dunyoga bizning muqaddas va mehribon Xudoyimiz qanday ekanini ko'rsatsinlar. So'zda ham, amalda ham Xudoning ajoyib ulug'vorligiga guvohlik bersinlar.

Endi ko'rib chiqishimiz kerak bo'lgan savol quyidagicha: sog'lom jamoatning belgilari nimalardan iborat?

Agar suhbatimiz jismoniy sog'lomlikni saqlash haqida bo'lganida, shu nuqtada suhbatimiz to'g'ri ovqatlanish, jismoniy mashqlar, yetarlicha uxlash va shunga o'xshagan narsalar haqida bo'lardi. Lekin jamoat tanasi haqida nima deyish mumkin?

Ushbu va keyingi bo'limda men sog'lom jamoatning to'qqizta belgisi haqida gapiraman. Bu belgilar jamoat haqida aytish mumkin bo'lgan hamma narsani o'z ichiga olmaydi. Ular hatto jamoat haqidagi eng muhim narsalar ham emas. Misol uchun, suvga cho'mdirish va Qutlug' Kechlik – jamoat

tarixini o'rganayotgan talabalar aytganidek, jamoatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Biroq hozir bularni muhokama qilmaymiz. Chunki deyarli har bir jamoat eng kamida bu ikkala marosimga amal qiladi. Bu yerda muhokama qilingan to'qqizta xususiyat sog'lom, Kalomga asoslangan jamoatni boshqa ko'plab zaif va nosog'lom jamoatlardan ajratib turadi. Bugungi kunda ushbu to'qqizta xususiyat juda kam uchraydi, shuning uchun ularga alohida e'tibor qaratishimiz hamda jamoatlarimizda shakllantirishimiz kerak.

Ushbu bo'limda men sog'lom jamoatning ikkita asosiy belgisi haqida so'z yuritaman. Bu asosiy belgilar har tomonlama muhim. Agar siz ekspozitsion va'zni va Xushxabar ta'limotini olib tashlasangiz, o'sha jamoatning sog'lomligi juda tez va keskin yomonlashadi. Darhaqiqat, bunday jamoat tez orada yo'q bo'lib ketadi (hatto eshiklari ochiq bo'lsa ham).

Afsuski, jamoat tarixida yaxshi niyatlar bilan o'z jamoatini "zamonga mos" yoki "ahamiyatliroq" qilish uchun ushbu ikki muhim belgining bittasini e'tiborsiz qoldirgan cho'ponlar ko'p bo'lgan. Qaysidir ma'noda ular Xudodan ham donoroq bo'lishga harakat qilishgan. Do'stim, siz bu yo'ldan bormang.

Agar kimdir menga qo'ng'iroq qilib, ekspozitsion va'z qilinishini istamaydigan jamoatga cho'ponlik qilish taklifini qabul qilish yoki qilmaslik haqida so'rasa, men unga bu taklifni qabul qilmaslikni tavsiya qilaman. Agar bironta imonli ayol menga qo'ng'iroq qilib, ularning jamoatida muntazam ravishda soxta ta'limot targ'ib qilinayotganini aytsa, unga boshqa jamoatga borish haqida o'ylab ko'rishini tavsiya qilaman.

Nega bunday qat'iy ohangda gapiryapman? Sababi oddiy – ovqatni emas, faqat ovqatning suratini olib keladigan restoranga borishni tavsiya qilmayman. Xudoning Kalomi, faqat Xudoning Kalomi hayot ato etadi!

EKSPOZITSION VA'Z QILISH

Agar sog'lom jamoat – Xudoning tabiatini Muqaddas Kitobda ochib berilganidek tobora ko'proq namoyon qiladigan odamlar bo'lsa, unda sog'lom jamoat barpo qilishni boshlashning eng to'g'ri yo'li – imonlilarni Xudoning Kalomini tinglashga da'vat qilishdir. Xudo Kalomi – hayot va sog'lik manbaidir. Bu Kalom jamoatni oziqlantiradi, rivojlantiradi va Xushxabar haqidagi to'g'ri tushunchani saqlab qoladi.

Bu nima?

Asosan, bu fikr cho'ponlarni ham, jamoat a'zolarini ham ekspozitsion va'zga sodiq qolishlari kerakligini anglatadi. Ekspozitsion va'z – Xudoning Kalomini ochib berishga qaratilgan va'zdir. Unda Muqaddas bitiklardan ma'lum bir parcha tushuntiriladi va parchaning ma'nosi jamoat a'zolarining hayotiga tatbiq etiladi. Bu va'z turi Xudoning O'z xalqiga, qolaversa, Xudoning xalqi bo'lmaganlarga ham Xudo nima demoqchi ekanini aniq yetkazuvchi usuldir. Ekspozitsion va'zga sodiq bo'lish, aslida, Xudo Kalomini tinglashda sodiq bo'lishni anglatadi.

Va'zning ko'plab boshqa turlari ham mavjud. Misol uchun, mavzuga oid va'z. Unda ibodat yoki ushr berish

mavzulari kabi mavzuga doir bir yoki bir nechta oyatlar tanlab olinadi. Biografik va’zda esa Muqaddas Kitobda tilga olingan biron shaxsning hayoti tahlil qilinib, Xudo inoyatining ifodasi, umid va sadoqat namunasi sifatida taqdim etiladi. Bu kabi boshqa usullar ham ayrim hollarda foydali bo’lishi mumkin. Lekin jamoatning muntazam va asosiy “ozuqasi” Xudo Kalomidan ma’lum parchani tushuntirish va ularni hayotga tatbiq etish bo’lishi kerak.

Ekspozitsion va’z qilish amaliyoti Xudoning aytgan so’zlari Uning xalqi uchun hokimiyatli ekaniga ishonishga asoslanadi. Unga ko’ra, Xudoning xalqi Uning so’zlarini tinglashi lozim, aniqrog’i tinglashi shart, aks holda, Xudo bizni O’z surati tomon o’zgartirib borish uchun foydalanadigan vositalardan jamoat mahrum bo’ladi. Unga ko’ra, Xudo jamoatning har ikkala Ahd kitoblaridan, Muqaddas bitiklardagi turli janrlardan, masalan, qonunlar, tarix, donolik, bashoratlar, Xushxabarning to’rt bayoni va maktublardan ta’lim olishini xohlaydi. Menimcha, Muqaddas Kitobga kiritilgan kitoblarni ketma-ketlikda sharhlab, Muqaddas bitiklardagi janrlar hamda Eski Ahd va Yangi Ahddan misollar keltiradigan ekspozitsion voiz xuddi bolalariga faqat ular yaxshi ko’rgan ikki yoki uch turdagi ovqatni emas, balki har xil ovqat beradigan g’amxo’r onaga o’xshaydi.

Ekspozitsion voizlarning hokimiyati Muqaddas bitiklar bilan boshlanadi va u bilan tugaydi. Eski Ahd payg’ambarlariga va Yangi Ahd havoriylariga shunchaki borib gapirish buyurilmagan, balki ular aniq bir xabarni yetkazishlari buyurilgan, xuddi shunday, hozirgi kundagi

masihiy voizlar ham Xudoning so'zlarini gapirgan taqdirdagina Xudo nomidan gapirish hokimiyatiga egadirlar.

U nima emas

Kimdir Xudoning Kalomi hokimiyatli ekanini, Muqaddas Kitob xatolardan holi, deb xursandchilik bilan e'tirof etishi mumkin. Biroq, agar bu inson amalda (ataylab yoki bilmasdan) ekspozitsion va'z qilmasa, u o'z da'vosini inkor qilgan bo'ladi.

Ba'zida odamlar ekspozitsion va'zni o'zlari kuzatib boradigan qaysidir voizning uslubi bilan adashtirib yuboradilar. Aslida, ekspozitsion va'zning uslubga hech qanday aloqasi yo'q. Ayrim odamlar kuzatganidek, ekspozitsion va'z – voizning uslubiga emas, balki nimani gapirishga qaror qilishiga asoslanadi. Aytmoqchi bo'lganlarimiz Muqaddas bitiklarga asoslanadimi yoki boshqa narsalargami? Ekspozitsion va'z qandaydir uslub yoki shakl bilan belgilanmaydi. Uslublar turlicha bo'lishi mumkin. Ekspozitsion va'z esa Muqaddas Kitobga asoslangani bilan belgilanadi.

Ba'zida odamlar ekspozitsion va'zni bir oyatni o'qib, keyin o'sha oyatga unchalik bog'liq bo'lmagan mavzu asosida va'z qilish bilan adashtiradilar. Lekin, agar voiz o'zi tanlagan mavzu haqida gapirsa va o'z fikrlarini tasdiqlash uchun oyatlardan foydalansa, o'zi biladigan narsalardan ortiq hech narsa o'rgata olmaydi. Jamoat ham voiz bilgan narsalarni o'rganadi, xolos. Ekspozitsion va'z ko'proq narsa talab qiladi. Ekspozitsion va'z parchaning kontekstiga diqqat bilan

qarashni talab qiladi, chunki uning maqsadi parchaning asosiy fikrini va'zning asosiy fikriga aylantirishdir.

Voiz jamoatga Muqaddas bitiklardagi parchadan va'z qilganda (o'sha parchaning kontekstiga to'g'ri qarab), ya'ni parchaning asosiy fikri va'zning asosiy fikri bilan bir xil bo'lganda, uning o'zi ham, jamoat ham Xudodan eshitadilar, chunki bu holatda, voiz avval va'zga tayyorgarlik ko'rish uchun o'tirib, o'qib o'rgangan paytda aytishni rejalashtirgan gaplarni aytmaydi ("Keyingi hafta biz Luqo 1–bobni o'qiyamiz va u yerda Xudo bizga nimalarni aytganini ko'rib chiqamiz. Undan keyingi hafta biz Luqo 2–bobni ko'rib chiqamiz . . .").

Masihiy hayotimizning har bir bosqichi, ya'ni ilk bor tavba qilishga chaqirilganimizdan tortib, to Muqaddas Ruh hayotimizda qilgan so'nggi ishigacha bo'lgan bosqich haqida o'ylaganimizda, bu tushunarli bo'lishi kerak. Axir, inoyatda o'sishimizning har bir qadami Xudodan yangi narsa eshitganimizda sodir bo'lmaganmi?

Voizning xizmati Xudoning Kalomiga aynan mana shunday bo'ysunish shakli bilan ajralib turishi kerak. Lekin adashmang: voiz mana shu qoidaga amal qilishini ta'minlash uchun javobgarlik aynan jamoatning zimmasida. Matto Xushxabarining 18–bobida Iso, Galatyaliklarga 1–bobda esa Pavlus jamoatda sodir bo'layotgan ishlar uchun jamoat javobgar ekanligini aytgan. Shuning uchun jamoat Xudoning Kalomini tinglashga va ta'lim berishga sodiq bo'lmagan odamga hech qachon jamoat boshqaruvini ishonib topshirmasligi kerak. Agar shunday qiladigan bo'lsa, bu cho'pon jamoatning o'sishiga to'sqinlik qiladi va jamoat a'zolari cho'pon darajasidan yuqori rivojlanmaydi, jamoat

Xudoning surati tomon emas, asta-sekin cho'ponning surati tomon o'zgarib boradi.

Xudo har doim qo'llagan yo'l

Xudoning xalqi har doim Uning Kalomi orqali yaratilgan. Ibtido 1–bobda bayon etilgan dunyoning yaratilishidan tortib, 12–bobda Xudo Ibrohimni chaqirganigacha, Ezekel 37–bobda qurigan suyaklar vodiysi haqidagi vahiydan, tirik Kalom – Iso Masihning kelishigacha, Xudo har doim O'z xalqini O'zining Kalomi orqali yaratgan. Pavlus Rimliklarga yozganidek: “Imon – eshitishdan, eshitish esa – Masihning so'zi orqalidir” (Rimliklar 10:17). Yoki Korinfliklarga yozganidek: “Chunki bu dunyo o'z donoligi bilan Xudoning donoligida Uni tanib-bilmaganligi sababli, Xudo voizlik telbaligi orqali imon keltirganlarni qutqarishni ma'qul ko'rdi” (1–Korinfliklar 1:21).

To'g'ri ekspozitsion voizlik, odatda, jamoatning haqiqiy rivojlanish manbaidir. Martin Lyuter Xudoning Kalomiga diqqat bilan e'tibor berish islohotlar boshlanishiga turtki bo'lishini anglab yetdi. Biz ham jamoatlarimiz Xudoning Kalomi orqali muntazam ravishda isloh qilinishiga intilishimiz lozim.

Haqiqiy sajdaga qaytish

Londondagi bir jamoatda Puritanizm haqida bir kunlik seminar o'tkazayotgan vaqtimda Puritan va'zlari ba'zan ikki soatga cho'zilib ketishini bildim. Ishtirokchilardan biri hayrat bilan: “Sajda qilishga qancha vaqt qoladi?” deb

so'radi. Ko'rinib turibdiki, bu kishi Xudo Kalomidan qilingan va'zni tinglash sajda qilmaydi, deb o'ylarkan. Men o'tgan asrda yashab o'tgan ingliz protestantlarining ko'pchiligi Xudoning Kalomini o'z ona tillarida tinglash (bir qator shahidlarning qoni evaziga qo'lgan kiritilgan ozodlik) va uni hayotlariga tatbiq etish – sajdaning eng muhim qismi, deb hisoblaganliklarini aytdim. Hamdu sano aytishga vaqt topish ularni unchalik qiziqitmasdi, garchi bu muhim bo'lsa ham.

Bizning jamoatlarimiz ham sajda qilishining markaziga Kalomning o'rnini tiklashi kerak. Musiqa – Xudoning Kalomiga nisbatan talab qilingan munosib javob, ammo Xudo bizga ato qilgan musiqa jamoatning poydevori bo'lish uchun mo'ljallanmagan. Musiqaga asoslangan jamoat – uslubi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'zgaruvchan qum ustiga qurilgan jamoat bo'ladi.

Masihiy do'stim, cho'poningiz uchun ibodat qiling, toki u Muqaddas bitiklarni qa'tiyat bilan, diqqat bilan va samimiy o'rganishga harakat qilsin. Kalomni to'g'ri anglashda, o'z hayotiga tatbiq etishda va jamoat hayotiga donolik bilan tatbiq etishda Xudo unga yo'l-yo'riq ko'rsatishi uchun duo qiling (Luqo 24:27; Havoriylar 6:4; Efesliklar 6:19-20 ga qarang). Yaxshi va'z tayyorlashi uchun hafta davomida cho'poningizga vaqt ajratilishini ta'minlang. Va'z aytish – cho'ponlikning asosiy qismi hisoblanadi. Keyin unga ilhom beruvchi so'zlarni aytib, uning Kalomga bo'lgan sodiqligi sizni Xudoning inoyatida qanchalik o'stirganini ayting.

Ey cho'pon, bu masalada o'zingiz uchun ibodat qiling. Atrofigizdagi, o'z shahringizdagi, yurtingizdagi va butun dunyoda Xudo Kalomini va'z qilib, ta'lim berayotgan jamoatlar

uchun ham ibodat qiling. Va albatta, bizning jamoatlarimiz ham Kalomga asoslangan va'zlarni diqqat bilan tinglashi uchun ibodat qiling, toki har bir jamoatning kundalik hayoti, Muqaddas bitiklarda bayon qilinganidek, Xudoning maqsadiga muvofiq shakllansin. Ekspozitsion va'zga sodiqlik – sog'lom jamoatning asosiy belgisidir.

XUSHXABAR TA'LIMOTI

Bir marta magistraturada ilohiyotshunoslik bo'yicha seminar o'tkazganman. O'shanda doktorlik seminarida Xudo haqida gapirganman. Bill ismli bir talaba muloyimlik bilan, lekin qat'iy ohangda, Xudoni boshqacha tasavvur qilishni yoqtirishini aytdi. Bir necha daqiqa davomida u do'stona ilohni tasvirladi. U Xudoni dono, lekin aralashmaydigan, rahmdil, lekin bosim o'tkazmaydigan, topqir, lekin to'sqinlik qilmaydigan Zot deb o'ylashini aytdi. Yana bir oz gapirgandan keyin u shunday xulosa qildi: "Men Xudoni mana shunday tasavvur qilishni yoqtiraman."

Ehtimol, mening javobim bir oz qo'polroq bo'lgandir. Men unga shunday javob qaytardim: "Rahmat, Bill, o'zing haqingda ko'p narsa aytib berding, lekin biz o'zimizning istaklarimizdan ko'ra, aslida, Xudoning qanday ekanligini bilishimiz muhimroq. Nima uchun biz «buning shunday bo'lishini xohlaymiz, shuning uchun u biz aytgandek bo'lishi kerak», deb o'ylaymiz?"

Butun sinf jim bo'lib qoldi. Aftidan, talabalar mening odobsizligimni his qilishgandir, lekin ular ham so'zlarimni o'ylab ko'rishlarini istagan bo'lardim. Keyin biz Xudoning Muqaddas Kitobda ochib berilgan tabiati va xususiyatlari haqidagi muhokamamizni davom ettirdik.

“Xudo” degan soʻzni eshitganingizda, xayolingizga nima keladi? Xudoni qanday tasavvur qilishingiz haqida soʻramayapman. Masalan, mehribon va rahmdil Xudo bilan qiyomatda hammani hukm qiladigan Xudoni qanday uygʻunlashtirasiz? Ayrim odamlar uchun bunday savollar bemaʼni tuyulishi mumkin. Koʻzga koʻrinmaydigan mavjudot haqida odamlar nimaga ishonishlarini muhokama qilishga nega vaqt sarflash kerak?

Bugungi kunda odamlar oʻzlari haqiqat boʻlishini istagan narsalarning haqiqat ekanligiga ishonadilar, yaʼni nima rost boʻlishini xohlasalar, shu haqiqat ekaniga ishonadilar. Ular masihiylikni zamonaviy tinglovchilarga yanada jozibador qilib koʻrsatish uchun Xudoning tabiatidan tortib, to odob-axloq meʼyorlarigacha boʻlgan, uzoq vaqtdan beri saqlanib kelayotgan masihiycha eʼtiqodlarni qayta shakllantiradilar. Bu urinishlar avvaliga unchalik xatarli tuyulmasligi mumkin, lekin masihiylikning oʻziga katta shikast yetkazadi.

Muqaddas Kitobga koʻra, biz haqimizdagi eng muhim narsa – Xudo haqida nima bilishimiz va nimaga ishonishimizdir. Bu esa Xudo bilan va boshqa insonlar bilan qanday munosabatda boʻlishimizni belgilaydi. Boshqacha aytganda, taʼlimot, ayniqsa, Xushxabar taʼlimoti juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun jamoatlarimizda Xudoning kimligi va Iso Masih orqali U gunohkorlarga yetkazadigan Xushxabar haqida aniq bilishimiz kerak. Axir, Xudoning Xushxabari yer yuzida insoniyat eshitgan eng ulugʻ xabar-ku!

Xoʻsh, bu Xushxabar nimadan iborat? Bu Xushxabar mehribon va muqaddas Xudo biz Uni tanib-bilishimiz uchun bizni Oʻz suratida yaratgani toʻgʻrisidagi haqiqat

bilan boshlanadi. Biroq, biz gunoh qildik va o'zimizni Undan mahrum qildik. O'z muhabbatiga ko'ra, Xudo Isoning qiyofasida inson bo'lib keldi, mukammal hayot kechirdi va xochda qurbon bo'ldi, bu orqali imon bilan Unga yuz burgan har bir gunohkorning jazosini O'ziga oldi. Iso o'likdan qayta tirildi, osmonga ko'tarildi va yakunlagan ishlarini Samoviy Otaga taqdim qildi. Ota Uning qurbonligini qabul qildi va O'z xalqiga nisbatan g'azabi to'liq so'ndirilganini e'lon qildi. Endi esa Xudo tavba qilish hamda faqat Masihga imon keltirish haqidagi ushbu xabar orqali bizni da'vat qilish uchun O'z Ruhini yubormoqda. Agar biz gunohlarimizdan tavba qilsak va faqat Masihga imon keltirsak, yangi va abadiy hayot uchun qayta tug'ilamiz, Masih yer yuziga qaytib kelib, hamma narsani yangilaganda, to'liq quvonchga ega bo'lamiz. O'zi bilan yarashtirish orqali Xudo bizni O'z xalqi, ya'ni yer yuzida mavjud bo'lgan umumiy jamoat bilan ham yarashtirdi. Mana shu – Xushxabardir.

Lekin bularning haqiqat ekanini qayerdan bilamiz? Buning javobi – Muqaddas bitiklar sahifalarida bayon etilgan Xushxabar ta'limotiga ishonishdir. Ushbu bobda Muqaddas Kitobda bizga Xudo va Xushxabar haqida o'rgatiladigan beshta haqiqatni qisqacha bayon qilaman: Xudo – Yaratuvchi, Xudo – muqaddas, Xudo – sadoqatli, Xudo – mehribon va Xudo – mutlaq Hokim.

Muqaddas Kitobda tilga olingan Xudo – Yaratuvchidir

Muqaddas Kitobda Xudo bu olamni yo'qdan bor qilgani haqida yozilgan. U ilk insonni tuproqdan yaratgan. U bir insondan yangi insonni ham yaratadi. Qisqacha aytganda,

Xudo – yaratuvchi Xudodir. Biz Uning Yaratuvchi ekanini ayniqsa Xushxabarda ko‘ramiz, chunki U – tashabbuskor Xudo. Xudo Ibromga barcha xalqlar u orqali baraka topishini va‘da qilganidan boshlab, Sinay tog‘ida Isroil xalqini O‘zining xalqi deb e‘lon qilishigacha bo‘lgan voqealar orqali Eski Ahd kitoblaridan Xudo O‘zi uchun bir xalq yaratayotganini bilib oldik (Ibtido 12; Chiqish 19, 24). Darhaqiqat, Eski Ahd bizni Xudoning O‘g‘li – Isoning kelishiga tayyorlaydi, Xudo U orqali O‘zining eng buyuk ishini amalga oshiradi.

Iso orqali Xudo O‘z xalqiga yangi hayot beradi. U bizni O‘z Ruhi orqali qaytadan dunyoga keltiradi (Yuhanno 3) va yangi hayot beradi (Rimliklar 6), ya‘ni shohlikka munosib (1–Fessalonikaliklar 2:12), yulduz kabi porlaydigan hayot beradi (Filippiliklar 2:15). Xudo bizni O‘zining hamkorlari, deb ataydi (1–Korinfliklar 3:9). Masihiylar – Xudoning maxsus qayta yaratish ishining obyektlaridir!

Bundan tashqari, Xudo jamoatni ham yaratadi. U bizni O‘zi bilan yarashtirgan vaqtda, bizni bir-birimiz bilan ham yarashtirdi. Masihning qurbonligi yahudiylar va g‘ayriyahudiylar o‘rtasidagi to‘siq devorini yiqitdi va – bundan kelib chiqadigan ma’noda – Masihda tug‘ilganlarning barchasini birlashtirdi. Masih O‘zidan va bir-biridan uzoqda bo‘lgan hamma odamlardan bitta yangi insonni yaratdi (Efesliklar 2:11-22). Biz avval bir xalq emasdik, endi esa Xudoning xalqiga aylandik (1–Petrus 2:10).

Muqaddas Kitobda tilga olingan Xudo – muqaddasdir

Agar biz Muqaddas Kitobda yozilgan hikoyalarni tushunishni istasak, yaratuvchi Xudoning muqaddas

ekanligini ham tushunishimiz kerak. U O'z sevgisi, solihligi va sodiqligi orqali O'zining muqaddasligini namoyon etadi. Darhaqiqat, Uning barcha fazilatlarini Uning muqaddasligini ko'rsatadi. U nuqsonsiz, har tomonlama mukammal va ulug'vordir.

Biroq Xudoning mutlaqo muqaddasligi Kalomda yozilganlarining barchasini yanada murakkablashtiradi va hayratlanarli qiladi, chunki biz muqaddas emasmiz. Biz gunohkormiz va Uning abadiy g'azabiga loyiqmiz. Ahvolimiz achinarli ekan, muqaddas Xudo bilan yarashish uchun nimadir qilinishi kerak.

Sog'lom jamoat bo'lishga Xudo muqaddasligining nima aloqasi bor? Birinchidan, Xudoning muqaddasligi haqidagi xabar jamoatning holatiga ta'sir qiladi. Xudo bizni oqlab, O'zi bilan yarashtirish orqali jamoatni muqaddas deb e'lon qiladi. Shuning uchun mahalliy jamoatlar ikki jihatdan muqaddas bo'lishga intilishi kerak: jamoat a'zosi sifatida odamlarni qabul qilishda (faqat imonlilarni qabul qilish kerak) hamda muqaddaslik uchun kurashish orqali yaddillikda yashashda. Ikkinchidan, Xudoning muqaddasligi haqidagi xabar bizning va'zlarimizga ham ta'sir qiladi. Biz, odamlar aslida yaxshi, faqat ularga dalda berish yoki jamiyatning tuzilmasini bir oz yaxshilash kerak, deb va'z qilmaymiz. Biz odamlarning gunohkorligi, Xudoning oldida aybdorligi, Xudodan ayrilgani hamda bir-birlariga dushman ekani haqida va'z qilamiz. Shuning uchun biz odamlarni gunohlari kechirilishi uchun tavba qilib, Masihga imon keltirish orqali ushbu xabarga munosabat bildirishga chaqiramiz.

Muqaddas Kitobda tilga olingan Xudo – sadoqatlidir

Xudo – sadoqatli Xudodir. Xushxabarning to'rtala bayonida asosan Masihning o'limi haqida so'z borishi kimgadir g'alati tuyulishi mumkin. Buning sababi shuki, Xudo O'z xalqiga bergan barcha va'dalarini Masihning o'limi orqali samarali amalga oshiradi.

Eski Ahdda ushbu va'dalar haqida juda ko'p yozilgan, ularning eng oliysi Xudo xalqining gunohlari to'liq va abadiy kechirilishi haqidagi va'dadir. Iso Masihning shaxsi, yerdagi hayoti, fidokorona qurbonligi, g'olibona tirilishi va osmonga ko'tarilishi – bularning bari Xudo O'z va'dalarini bajaradigan sadoqatli Zot ekanining eng katta dalilidir. Unga ishonish mumkin. Butrus Hosil bayrami kuni Isoning o'limi va tirilishi haqida va'z qilganda, ana shu haqiqatni aytgan edi (Havoriylar 2). Xudo Dovudga va'da berib, uning taxti abadiy turishini aytgan edi (2–Shohliklar 7). Bu esa Dovudning nasli yo'q bo'lib ketishi yoki chirib ketishi mumkin emasligini anglatadi (Zabur 15:10). Butrus Dovudga berilgan ushbu va'dalarni Iso bilan bog'lab shunday degan: “Biroq Xudo o'lim kishanini uzib, Uni tiriltirdi, chunki Uni ushlab qolishga o'limning kuchi yo'q edi” (Havoriylar 2:24).

Ko'ryapsizmi, Isoning shaxsi va ishi Xudo O'z xalqi uchun bajarishni va'da qilgan narsalarni aniqlab bergan va amalga oshirgan. Iso haqida gapirib, Pavlus buni shunday tasdiqlaydi: “Chunki Xudoning barcha va'dalari biz orqali Uning shuhrati namoyon bo'lishi uchun Iso Masihda “ha” va “omin”dir” (2–Korinfliklar 1:20). Xudo mutlaqo sadoqatli bo'lib, buni Iso Masih orqali namoyon etadi.

Shunday qilib, yaratuvchi va muqaddas bo'lgan Xudoyimiz hayratlanarli darajada sodiq Xudo ekanligini ko'ramiz.

Muqaddas Kitobda tilga olingan Xudo – mehribondir

Xudo – mehribon Zotdir.

Masihiy bo'lmagan ko'plab odamlar ham “Xudo – sevgidir” (1–Yuhanno 4:8) degan oyatni yoddan aytib berishlari mumkin, biroq bu gapning o'zi Xushxabar ta'limotining to'liq mazmunini anglatmaydi. Biz Xudoning sevgisi qanday ekanini bilishimiz kerak. Muqaddas Kitobda Xudoning sevgisi U bilan ahdlashgan xalq uchun Isoning O'z jonini fido qilishga tayyor bo'lganligida aks etadi. Iso tug'ilmasdan ancha yillar avval Isha'yo U haqda shunday degan:

Lekin U kasalliklarimizni O'ziga oldi va og'riqlarimizni ko'tarib ketdi. Biz esa: “Xudo Uni urib jazolamoqda va jabrlamoqda”, – deb o'ylagan edik. Lekin U bizning gunohlarimiz uchun yaralangan edi va qonunbuzarliklarimiz uchun azoblangan edi. Bizning tinchligimiz haqi jazo Unga yuklangan edi va Uning yaralari bilan biz shifo topdik. Biz hammamiz qo'ylar kabi adashib yurgan edik, har birimiz o'z yo'limizga burilib ketdik. Rabbiiy esa bizlarning hammamizning gunohlarimizni Unga yukladi. (Isha'yo 53:4-6)

Xudoning sevgisi shu qadar buyukki, gunohkorlar U bilan yarashishlari uchun Isoni yaraladi! Xalqi ozod bo'lishi uchun Xudo ularning gunohlarini Isoning zimmasiga yukladi. Shuning uchun Yuhanno shunday yozadi: "Sevgi shundaki, biz Xudoni sevmagan edik, lekin U bizni sevdi va O'z O'g'lini gunohlarimiz uchun rahm-shafqat keltirish qurbonligi qilib yubordi" (1-Yuhanno 4:10). Agar biz Xudoning sevgisini anglab yetishni istasak, Isoga va Uning O'z xalqi uchun xochda qilgan ishiga qarashimiz kerak.

Muqaddas Kitobda tilga olingan Xudo – mutlaq hokimdir

Xullas, Muqaddas Kitobda Xudoning mutlaq hokim ekani aytiladi. Bu shuni anglatadiki, Xudo O'zi yaratgan mavjudotlar uchun qilgan hamma rejalarini amalga oshiradi. Vahiy kitobida aynan shu umid bayon etilgan. Xudoning mukammal rejasi U bilan to'g'ri munosabatda bo'lgan insonlar bilan yakunlanadigan ulkan loyihadir. Xudo yer bilan osmonni qaytadan yaratadi va o'tkinchi narsalarga qarshi kurashgan jamoat g'olib jamoatga aylanadi (Vahiy 21:1-4; 21:22-22:5 ga qarang). Oxirida, Xudoning xalqi mutlaq muqaddas bo'lganini, Adan bog'i qayta tiklanganini hamda Xudo O'z xalqi bilan abadiy birga bo'lganini ko'ramiz.

Masihiylar boshqalarga aytishi kerak bo'lgan eng katta Xushxabar mana shu. Bu – bizning kelajak haqidagi umidimiz, buni o'zimiz xohlab yoki o'ylab topganimiz yo'q. Mutlaq hokim bo'lgan Xudo buni ko'rsatgani uchun biz bu Xushxabarni yetkazamiz.

Jamoat sog'lom bo'lishi uchun hukmron bo'lgan Xudoga Kalomga asoslangan holda ishonishi lozim. Axir, Xudoning hukmronligi Xushxabar ta'limotining ajralmas qismi bo'lib, aynan shu Xushxabar ta'limoti sog'lom jamoatning belgisi hisoblanadi.

Muqaddas Kitobda Xudo shunday ta'riflangan: yaratuvchi, muqaddas, sadoqatli, mehribon va mutlaq hokim. U va'dalar beradi va ularni bajaradi. Egamiz bizdan Unga hamda Uning Xushxabariga ishonish orqali munosabat bildirishimizni talab qiladi.

Xulosa

Bill Sayks o'n to'qqizinchi asrda Londonda yashab o'tgan kambag'al va dindan yiroq meva sotuvchisi edi.² U uyida kasallikdan aziyat chekib, o'lim to'shagida yotganda, Iso Masihga ishonadigan bir xodim uning oldiga kelib, Xushxabar aytadi. Avvaliga, Sayks unchalik qiziqish bildirmadi. Keyin xodim unga Isha'yo 43:25–oyatni o'qib berdi: “Men, Mening O'zim sening jinoyatlaringni O'z nomim haqi o'chirib yuboryapman va gunohlaringni eslamayman.” Keyin u bu oyatning ma'nosini tushuntirib berdi. “Men endi buni tushunaman”, dedi Sayks. “Masih mening o'rninga azob chekkan ekan.”

Keyingi tashriflarining birida, xodim Bilning karavoti yonida uning o'g'li o'tirganini ko'radi. Bill masihiy xodimga “Unga ham ozroq aytib bering”, dedi.

² Bu voqea Iain Murrayning *Archibald G. Brown* (Carlisle, PA: Banner of Truth, 2011), 75–76–betlarda bayon qilingan; [Iain Murray, *Archibald G. Brown* (Carlisle, PA: Banner of Truth, 2011), 75–76].

“Nimani aytay?” deb so‘radi xodim.

“Masih mening o‘rninga o‘lgani, menga berilishi kerak bo‘lgan jazoni O‘ziga olgani haqida ozroq gapirib bering.”

Bill teologiya haqida hozirgi kunda ko‘zga ko‘ringan professorlardan ham yaxshiroq bilardi. O‘lim to‘shagida yotgan bu odam Muqaddas Kitobning asosiy mazmunini tushunib yetgan edi. U Xushxabarni tushunib yetgan edi. Avvalgi gunohlar kechirilgan. Yangi hayot boshlangan. Yaratuvchingiz bo‘lgan Xudo bilan abadiy shaxsiy munosabatni anglab yetgandi! Bugungi kun uchun Xudo O‘z Kalomida sizga aytgan Xushxabar mana shudir.

Bundan yaxshiroq qanday Xushxabar eshitishingiz mumkin?

MUHIM MASLAHATLAR

Yaxshi jamoatni qanday topish mumkin?

1. Ibodat qiling.
2. Yaxshi cho'pondan (yoki oqsoqollardan) maslahat oling.
3. O'zingiz uchun muhim narsalarni aniqlang.
 - Xushxabar samimiylik bilan tasdiqlanishi, aniq va ravshan tarzda va'z qilinishi hamda sadoqat bilan hayotga tatbiq etilishi lozim. Xushxabarning ushbu uchta jihatidan birontasiga amal qilinmaslik jiddiy xatar bo'lishi mumkin.
 - Va'dalar Muqaddas bitiklarga asoslangan, shaxsiy chaqiriq hamda jamoat hayotining diqqat markazida bo'lishi kerak. Muqaddas bitiklar oliy hokimiyat sifatida qabul qilinganidagina siz ruhan o'sasiz.
 - Bundan tashqari, jamoat suvga cho'mdirilish, Qutlug' Kechlik, jamoatga a'zo bo'lish, intizomni tartibga solish hamda qaror qabul

qilishda so'nggi so'zni kim aytishi masalasini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

- Qisqasi, 5–bobdan 13–bobgacha o'qib chiqing.
4. Tahlil qilish uchun o'zingizga quyidagi savollarni bering:
- Bu jamoatning ta'limoti asosida tarbiyalangan turmush o'rtoq topishni istaymanmi?
 - Farzandlarim bu jamoatda masihiylikni qanday ko'radi – qandaydir muhim narsalarnimi yoki bu dunyoga xos narsalarnimi?
 - Masihiy bo'lmagan odamlarni bu jamoatga taklif qilishdan xursand bo'lasanmi? Ya'ni bu yerda ular Xushxabar eshitadilarmi va unga mos hayotni ko'radilarmi? Jamoat masihiy bo'lmagan insonlarni iliq qabul qilishga va ularga yordam berishga tayyormi?
 - Bu jamoat men xizmat qila oladigan va faoliyat yurita oladigan joymi?
5. Joyni hisobga oling. Jamoat bilan uyingiz orasidagi masofa jamoatga tez-tez kelishga va xizmat qilishga undaydimi yoki to'sqinlik qiladimi? Agar siz yangi joyga ko'chib o'tayotgan bo'lsangiz, uy sotib olishingizdan avval, yaqin atrofdan yaxshi jamoat topishga harakat qiling.

3-QISM

**SOG'LOM JAMOATNING
MUHIM BELGILARI**

Ushbu kitobda tilga olingan to‘qqizta belgining hammasi Muqaddas Kitobga asoslangani sababli ular Masihning barcha jamoatlari uchun hokimiyatli ahamiyatga ega. Qolaversa, “asosiy” va “muhim” belgilar orasidagi farq muqaddas bo‘lish jarayoni – jamoat hayotida ham, shaxsiy hayotda ham – asta-sekinlik bilan amalga oshishini yodda tutish lozim. Xudo bizdan farzandlar tarbiyasida sabrli bo‘lishimizni talab qilgani kabi, jamoatlarga nisbatan ham sabrli bo‘lishimizni talab qiladi.

Men muhim belgilar, deb atagan belgilar hatto ular alohida tartibda ko‘rib chiqilganda ham muhim hisoblanadi, biroq ularning yo‘qligi jamoatdan ketish kerakligini anglatmaydi (ba’zi hollarda ketish yaxshi bo‘lishi mumkin). Aksincha, bunday belgilar mavjud bo‘lmagan jamoatlarda ham ibodat qilishingiz, sabr-toqat ko‘rsatishingiz va o‘z hayotingiz bilan yaxshi namuna ko‘rsatishingiz mumkin.

Agar bironta cho‘pon mendan: “Muqaddas Kitobga asoslanmagan yetakchilik tizimiga qancha vaqt toqat qilishim kerak?” deb so‘rsa yoki biron imonli kishi jamoat tartib-intizomiga amal qilmaydigan jamoatga qancha vaqtgacha toqat qilishi kerakligini yoki bironta diakon jamoat a‘ziligiga qabul qilishdagi xatolarga qancha vaqt toqat qilishi kerakligi haqida so‘rsa, men ularga sabrli bo‘lish, ibodat qilish, yaxshi o‘rnak ko‘rsatish, sevgi ko‘rsatish va kutish kerakligini aytgan

bo'lardim. O'sish – sekin-asta bo'ladi. Jamoat esa odamlardan iborat va biz bu odamlarni kechirishga, dalda berishga, xizmat qilishga, ba'zan sevgi bilan to'g'ri yo'lga chaqirishga va eng muhimi, ularni qadrlashga da'vat qilinganmiz.

Bu hayotda nuqsonsiz imonli bo'lmaganidek, mukammal jamoatlar ham mavjud emas. Hatto eng yaxshi jamoatlar ham mukammallikdan yiroq. Hech bir to'g'ri yetakchilik tizimi ham, ta'sirli voizlik ham, sahiylik bilan qilinadigan ehson ham, mukammal ta'limot ham jamoatning gullab-yashnashiga kafolat bermaydi. Lekin har qanday jamoat hozirgi holatidan sog'lomroq va mustahkamroq bo'lishi mumkin. Bu hayotda biz hech qachon gunoh ustidan to'liq g'alabani ko'rmaymiz. Biroq Xudoning haqiqiy farzandlari sifatida, biz kurashdan to'xtamaymiz. Jamoatlar ham kurashdan to'xtamasligi kerak. Masihiylar, ayniqsa cho'ponlar va jamoat yetakchilari, jamoatlarni sog'lomroq va ruhan kuchliroq qilish uchun uzoq vaqt mehnat qilishlari lozim.

YUQORIDAN TUG‘ILISH VA XUSHXABARNI TARQATISH BO‘YICHA KALOMGA ASOSLANGAN TUSHUNCHA

“Yuqoridan tug‘ilish” degan so‘zni eshitganda, xayolingizga nima keladi? Umuman olganda, insonning o‘zgarishi haqida fikringiz qanday? Bugungi kunda ko‘p odamlar kimdir o‘zgarishi mumkinligiga yoki o‘zgarishi kerakligiga shubha bilan qarashadi. Go‘yo o‘lim muqarrar, qur’a tashlangan, taqdirimiz avvaldan belgilab qo‘yilgandek. Dahshatli biror fojia bo‘lmasa, inson o‘zgarmaydi, deb o‘ylaymiz, xuddi leopard o‘z dog‘larini o‘zgartira olmagandek.

Lekin bu to‘g‘rimi? O‘zgarishlar chindan imkonsizmi? Xudo Ruhining yordamisiz, bu chindan ham shunday, biz o‘z tabiatimizni o‘zgartira olmaymiz.

Biroq Masih orqali Xudo bizga buyuk o‘zgarishni taklif qiladi. U bizni o‘limdan hayotga, Xudodan uzoq bo‘lish o‘rniga, O‘zi bilan yarashtira oladi. Mana shu narsa “yuqoridan tug‘ilish” deb ataladi.

Lekin inson qanday qilib bu tarzda o‘zgarishi mumkin? Nikodim ismli yahudiy ulamo ayni shu savol bilan Isoga murojaat qilgan edi. Iso unga javob berib, shunday degan:

“Rostini, senga rostini aytaman, agar kim suvdan va Ruhdan tug'ilmasa, Xudoning Shohligiga kira olmaydi” (Yuhanno 3:5). Boshqacha aytganda, qayta tug'ilish, ya'ni yuqoridan tug'ilish – ham zarur, ham Xudoga bog'liq holatdir.

Yuqoridan tug'ilish – insonning o'z kuchi bilan emas, Xudoning kuchi bilan amalga oshishini anglab yetish adashganlarga Xushxabarni yetkazishimizga, ular qanday qilib o'zgarishlari mumkinligi haqida aytishimizga ta'sir ko'rsatadi. Darhaqiqat, yuqoridan tug'ilishni Kalomga xos tarzda tushunish Xushxabarni Kalomga xos tarzda tarqatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoat sog'lom bo'lishi uchun yuqoridan tug'ilishni ham, Xushxabarni tarqatishni ham Kalomga muvofiq tushunish kerak.

Shuning uchun avval yuqoridan tug'ilish haqida, undan keyin Xushxabarni tarqatish haqida o'ylaylik. Odamlar o'zgarishi uchun chindan ham yuqoridan tug'ilishlari kerakmi?

Yuqoridan tug'ilish bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha

Bir muxbir mashhur basketbol yulduzi Sem Perkinsdan so'radi: “35 ochko farq bilan yutqazganingizdan keyin o'zingizni qanday tiklaysiz?”

“Biz shunchaki barqarorlikni saqlashimiz lozim”, deb javob berdi Perkins.

“Qanaqa barqarorlik, Perkins?” deyishingiz mumkin. “Sen o'ttiz besh ochko farq bilan yutqazding!” Jamoaga barqarorlik kerak emasdi, aksincha, yutqazishga sabab bo'lgan uslubni o'zgartirish kerak edi. Xuddi shunday, Kalom ham bizga o'zgarishimiz kerakligini aytadi. Har bir inson ruhan

o'lik holda tug'iladi va Masihsiz Xudoning g'azabi ostida bo'ladi. Perkins aytganidek, barqarorlikni saqlash – o'lik holda qolish bilan barobardir.

Agar bu so'zlar bo'rttirilgandek tuyulsa, tunda Isoning Nikodim bilan bo'lgan suhbatini yana bir bor o'qib chiqing. Iso insonning tabiiy holati haqida shunday degan: “Nur dunyoga keldi, lekin odamlar Nurdan ko'ra zulmatni ko'proq sevdilar, chunki ularning ishlari yovuz edi. Chunki yovuzlik qiladigan har bir kishi Nurdan nafratlanadi va Nur tomonga bormaydi, toki uning ishlari fosh bo'lmasin, chunki uning ishlari yovuzlikdir” (Yuhanno 3:19-20). Iso insonning ahvoli bo'yicha ortiqcha umid qilmagan. Pavlus ham Efeslik imonlilarga ular yuqoridan tug'ilmaslaridan avval gunohlari va ayblari tufayli ruhan o'lik bo'lganliklarini eslatgan (Efesliklar 2:1). U Rimdagi imonlilarga ham shunga o'xshash so'zlarni aytgan: “Haq odam yo'q, birona ham yo'qdir” (Rimliklar 3:10).

Bu muhim haqiqat ko'pincha “to'liq buzilish”, deb ataladi, ya'ni Xudoga qarshi qilgan g'alayonimiz bizning har bir qismimizga o'z ta'sirini o'tkazgan. Biz butunlay gunoh bilan belgilanganmiz va Xudoning amrlariga amal qilishga qodir emasmiz. Shuning uchun Pavlus shunday degan: “Qonun ishlari bilan Uning huzurida hech kim oqlanmaydi, chunki Qonun orqali gunoh bilinadi” (Rimliklar 3:20). Qisqacha aytganda, Kalom bizning gunohkor, qul, hatto o'lik ekanligimizni o'rgatadi. Biz faqat Iso hamda Uning Ruhi orqali keladigan o'zgarishga muhtojmiz.

Quyidagi ikki haqiqat haqida o'ylab ko'ring: biz Xudoning inoyatiga nihoyatda muhtojmiz va Xudo hech kimga inoyat ko'rsatishga majbur emas. Shuning uchun u

“inoyat” deb ataladi, ya’ni bizga tekinga beriladigan hadya. Gunohkor insonlardan Xudo talab qiladigan yagona narsa – adolatdir. Biroq Iso gunohlari uchun tavba qilgan va Unga imon keltirgan barcha insonlar uchun qurbon bo‘lish orqali Xudoning adolat talabini qondirdi.

Gunohdan yuz o‘g‘irish va imon keltirish – yuqoridan tug‘ilishning asosidir. Xudoning Ruhi bu ishni bizning ichimizda amalga oshiradi. Muqaddas Ruh bizga gunohimizning qanchalik jirkanch ekanligini hamda Masihning go‘zalligini anglashimizga yordam beradi va biz xuddi Dovud singari Xudoga ibodat qilamiz. Dovud zino va qotillikka qo‘l urgandan keyin Xudoga iltijo qilib, shunday degan edi: “Men Senga, faqat Senga qarshi gunoh qildim va Sening ko‘z oldingda yovuzlik qildim. Shuning uchun Sen O‘z so‘zingda haqsan va O‘z hukmingda poksan” (Zabur 50:6).

Xudodan ayrilgan holda kim ekanimizni anglash nima uchun yuqoridan tug‘ilishimiz kerakligini bilishimizda muhim o‘rin tutadi. Agar buni bilmasak, ahvolimiz qanchalik ayanchli ekanini anglab yetmaymiz. Qolaversa, Masihga ishongan gunohkorlarga Xudo taklif etayotgan g‘aroyib inoyatni ham tushunmaymiz. Iso olib kelgan Xushxabar o‘zimizni yoki “salohiyatimizni” anglab yetish haqida emas. Balki hozirgi holatimizdan yuz o‘girib, biz uchun Masih kim ekaniga yuzlanish haqidadir.

Bizga o‘zimizning yaxshiroq qiyofamiz emas, balki butunlay yangi qiyofa kerak! Yuqoridan tug‘ilishda, biz hayotimizni boshqaruvchisi bo‘lish, o‘zimiz qaror qiluvchi bo‘lish da’vosidan voz kechamiz va bu huquq faqat Xudoga tegishli ekanini tan olamiz. Avvalgi qilgan gunohlarimiz

kechirilishi lozim. Hozirgi hayotimiz to'g'ri yo'lga solinishi kerak. Kelajakdagi taqdirimiz esa Xudoning bizni do'zaxga tashlovchi hukmidan Uning inoyatli kechirimi va bizni qabul qilishi tomon, ya'ni jannat tomon o'zgarishi kerak. Yer yuzidagi deyarli barcha dinlar inson o'z amallari orqali najot topish ehtimoli borligini targ'ib qiladi, lekin masihiylikda unday emas. Masihiylik bizning tubdan o'zgarishimiz kerakligini targ'ib qiladi.

Xudoning inoyatini qabul qilib, yuqoridan tug'ilganimizdan keyin nima bo'ladi? Gunohlarimiz bilan birga o'jizligimizcha qolamizmi? Albatta, yo'q! Xudo bizni yuqoridan tug'dirganda, U bizning yuraklarimizni va ongimizni ham o'zgartiradi. Masihdagi yangi shaxsiyatimizdan yangi amallar oqib chiqadi. Yuqoridan tug'ilgan paytimizdan boshlab hayotimiz Xudoning irodasi va yo'llariga moslashib borayotganini ko'ramiz. Mana shu o'zgarish biz chindan ham yuqoridan tug'ilganimizni ko'rishimizga yordam beradi. Darhaqiqat, Muqaddas Kitob ham agar xatti-harakatlarimizda va amallarimizda o'zgarish sezilmasa, yuqoridan tug'ilganimizga ishonib qolmasligimizni o'rgatadi (Yoqub 2:14).

Shunday qilib, yuqoridan tug'ilgan insonlar – o'zgargan insonlarni anglatadi, bu esa jamoatlarimiz qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Yuqoridan tug'ilgan insonlar bilan to'lgan jamoatlar Iso haqiqatan ham odamlarni o'zgartira olishini va Uning Xushxabari chindan ham qutqarishini isbotlaydi. Shu sababli, masihiy bo'lmagan odamlar uchun jamoatimizning umumiy guvohligi har birimizning shaxsiy

guvohligimizdan kuchliroq bo'lishi uchun muntazam ravishda ibodat qilaman.

Albatta, Xudoning Ruhi har birimizda alohida ishlashi kerak. Lekin jamoatimizda bir-birimizga bo'lgan mehr-muhabbat masihiy bo'lmagan do'stlarimizni hayratga solishi uchun ibodat qilaman. Ular bizning birdamligimizni, bir-birimizga g'amxo'rligimizni va hayotimizda bo'layotgan narsalar tush emasligini ko'rishsin. Hech birimiz mukammal bo'lmasak ham, ko'proq odamlar bizning umumiy guvohligimiz orqali yuqoridan tug'ilishlari uchun ibodat qilaman.

Sog'lom jamoat qurish uchun bizga aynan shunday Kalomga asoslangan "yuqoridan tug'ilish" tushunchasi kerak. Biz qayta tug'ilishimiz kerakligini va bizni faqat Xudo yuqoridan tug'dirishini bilishimiz kerak. Lekin Xudo bizni yuqoridan tug'dirishiga muhtoj ekanimiz adashganlarga Xushxabar yetkazishimiz shart emas, degan fikrga olib kelmasligi kerak! Aksincha, buning teskarisi to'g'ri. Keling, Kalomga asoslangan yuqoridan tug'ilish tushunchasi bizning Xushxabarni tarqatish haqidagi tushunchamizga va amaliyotimizga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqaylik.

Xushxabarni tarqatish bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha

Mening islom diniga qat'iy amal qilishi bilan mashhur bo'lgan yurtda tug'ilib o'sgan bir do'stim bor. U o'zi tug'ilib o'sgan yurtidan uzoqdagi mamlakatda o'qib yurgan paytda tush ko'radi. Tushida Iso unga namoyon bo'lib, unga notanish bo'lgan masihiy bir cho'pon bilan gaplashishi kerakligini

aytadi. U ko'rgan tushidan qo'rqib, unga e'tibor bermaslikka harakat qiladi. Lekin o'sha tushni qayta-qayta ko'raveradi. Oxirida, u taslim bo'lib, o'sha odamni izlab topadi. Bu odam do'stinga Xushxabar aytadi va do'stim yuqoridan tug'iladi. Xudoga hamdlar bo'lsin!

Men musulmon odamlardan do'stimning guvohliklariga o'xshash guvohliklarni ko'p marotaba eshitganman. Odamlarning tushlariga farishtalar kirib, ularni masihiylar bilan gaplashishga undaydi. Qiziq tomoni shundaki, Xudo odamlarga nafaqat tush beradi, balki o'sha tush ko'rgan odamni ham Iso Masih haqidagi Xushxabarni aytadigan odamga yo'naltiradi. Bu hikoyalarda Xushxabar aytadigan odam kim – tushda namoyon bo'lgan farishtami yoki Xushxabarni yetkazgan shaxsmi? Albatta, Xushxabarni yetkazadigan inson – masihiy kishidir. Xushxabarni targ'ib qilish esa – Iso haqidagi xabarni boshqalarga yetkazish deganidir.

Muqaddas Kitobga ko'ra, biz har bir insonga Iso Masih kim ekani hamda U gunohkorlar uchun xochda nima qilganini aytishimiz kerak. Biz hali Iso Masihga imon keltirmaganlarga g'amxo'rlik qilishimiz, ular uchun iltijo qilishimiz, hatto ularni Xushxabarga ishontirishga harakat qilishimiz kerak (2-Korinfliklar 5:11). Biroq bu iltijolarning ham chegarasi bor. Biz “yashirin uyatli ishlarni rad etish” orqali, ya'ni “hiylakorlik qilmasdan va Xudoning So'zini buzmasdan, balki haqiqatni ayon qilish” orqali Xushxabarni yetkazishimiz kerak (2-Korinfliklar 4:2).

Boshqacha aytganda, Xushxabarni tarqatish – majburlash yoki manipulyatsiya qilish degani emas. Ezekel quruq suyaklarni bir-biriga biriktirib, odamni qayta tiklay olmagan (Ezekel 37); Nikodim o'z kuchi bilan Ruh orqali

yuqoridan tug'ilishni amalga oshira olmagan (Yuhanno 3). Xuddi shunday, biz ham kimnidir Masihga ishontirib, najotga erishtira olmaymiz. Xushxabar yetkazishimizning natijasi bizning qo'limizda emas. Biroq biz Xushxabarni targ'ib qilishga va odamlar ishonishlari uchun ibodat qilishga chaqirilganmiz.

Agar Xushxabarni tarqatish – Iso Masih to'g'risidagi xabarni boshqalarga yetkazish bo'lsa, demak, Xushxabardan boshqa biz yetkazadigan har qanday xabar haqiqiy Xushxabar emas. Shaxsiy guvohliklar bilan bo'lishish, imonni himoya qilish yoki xayr-ehson qilish Xushxabar aytishning bir qismi bo'lishi mumkin, lekin Iso Masih kimligi hamda odamlarni Unga ishonishga undash haqida so'z bormasa, unda bu harakatlar Xushxabarni targ'ib qilish emas.

Xushxabarni tarqatish – so'zlarni aytishdan iborat. Yangiliklarni aytish va odamlarni bu xabarga munosabat bildirishga chaqirishdir. Ya'ni Masih O'zining o'limi va tirilishi orqali gunohkor odamlarning muqaddas Xudo bilan yarashishlari uchun yo'l ochib berganini tushuntirish orqali Xudoga sodiq bo'lishni anglatadi. Faqat Xudogina odamlarni yuqoridan tug'dira olishini anglab yetish bizni o'z kuchimiz bilan najotga erishish fikridan xalos qiladi (Yuhanno 1:13 ga qarang). Odamlarga najot berish faqat Xudoning qo'lida ekanligiga ishongan holda, biz samimiylik bilan Xushxabarni baham ko'ramiz. Axir, "Najot Rabbiydandir!" (Yonah 2:10).

Xushxabarni qanday tarqatish kerak?

Kitoblar Xushxabar tarqatish uchun foydali va foydasiz, oddiy va murakkab usullarga to'la. Men bu

usullarni baholashni istamayman, shunchaki, Iso Masihga ergashish nima ekanini odamlarga yetkazish uchun har doim ishlatadigan uchta oddiy haqiqat bilan bo'lishmoqchiman.

- Isoga ergashish qimmatga tushadi, shuning uchun odamlar Unga ergashishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rishlari kerak (Luqo 9:62).
- Isoga ergashish shart, shuning uchun odamlar darhol Unga ergashishga qaror qilishlari lozim (Luqo 12:20).
- Isoga ergashish – bunga arziydi, shuning uchun odamlar o'z xohishlari bilan ergashishlari kerak (Yuhanno 10:10).

Men mana shu uchta haqiqatni ta'kidlash orqali Iso odamlardan nima talab qilishini yanada aniqroq va Iso nimani tekinga berishini jasorat bilan tushuntirishim osonlashganini his qildim.

Iso Masih o'likdan tirilganidan keyin gulxan atrofida Butrus bilan qilgan suhbat haqida o'ylab ko'ring. Iso Butrusga Iso uchun jonini fido qilishini so'raydigan kun kelishini aytdi. Bu qo'rqinchli gapni aytgandan keyin Iso unga "Ortimdan yur!" (Yuhanno 21:19) deb amr qildi. Qurbonlik haqidagi bu va'dadan keyin Butrusda "Isoning ortidan yurish shunga arziydimi?" degan shubha paydo bo'ldimi? Aftidan, bunday bo'lmadi. Keyinroq Butrus shunday yozgan:

Rabbimiz Iso Masihning Otasi Xudo muborak bo'lsin! U O'zining buyuk rahm-shafqati bo'yicha, Iso Masihning o'liklardan tirilishi bilan bizni tirik umidga yangidan tug'iltirdi,

toki sizlar uchun osmonda saqlanayotgan beg'ubor, chirimas, so'lmas bir merosga ega bo'linglar. Oxirgi zamonda ochilishga tayyor bo'lgan najotga erishmog'ingiz uchun sizlar Xudoning kuch-qudrati bilan imoningiz orqali qo'riqlanmoqdasizlar. Ana shuning uchun endi agar kerak bo'lsa turli vasvasalarda bir oz qayg'ursangizda quvoninglar. (1-Petrus 1:3-6)

Aynan mana shu xabarni biz oila a'zolarimizga va do'stlarimizga yetkazishimiz kerak. Qolaversa, bu xabarni o'z jamoatlarimizdagi har bir odamga yetkazishimiz lozim.

Shunday qilib, sog'lom jamoatning yana bir belgisini ko'rishimiz mumkin. Bu belgi yuqoridan tug'ilish va Xushxabarni tarqatishning Kalomga asoslangan tushunchasidir. Haqiqiy o'sish – Xudo va Uning xalqi orqali bo'ladigan o'sishdir.

JAMOAT A'ZOLIGI BO'YICHA KALOMGA ASOSLANGAN TUSHUNCHA

Jamoat a'zoliği haqida Kalomda yozilganmi? Qaysidir ma'noda, yo'q. Yangi Ahdni ochsangiz, masalan, Priskilla va Akil Rimga ko'chib bordi, avval bir jamoatga, keyin ikkinchisiga borib ko'rib, nihoyat uchinchi jamoatga a'zo bo'lishga qaror qilishdi, degan joyini topa olmaysiz. Aytishimiz mumkinki, hech kim "jamoat ko'rgazmasiga" bormaydi, chunki har bir jamiyatda faqat bitta jamoat bo'lgan. Mana shu sababdan, Yangi Ahd kitobida jamoat a'zolarining ro'yxatini uchratmaysiz.

Biroq, Yangi Ahd jamoatlari ma'lum ro'yxatlarni yuritgan, masalan, jamoatdan yordam olib turadigan bevalar ro'yxati (1–Timotiy 5). Muhimi, Yangi Ahddagi bir qator parchalarda jamoatlarda o'z a'zolarini aniqlashning ma'lum usullari bo'lgani ko'rsatilgan. Ular kim bu jamoatga tegishli va kim tegishli emasligini aniq bilishgan.

Masalan, Korinf shahridagi jamoatda "hatto ma'jusiylar orasida ham" uchramaydigan axloqsizlikni qilgan odam bo'lgan (1–Korinfliklar 5:1). Pavlus Korinfliklarga maktub yozib, ularga bu odamni o'z saflaridan chiqarib tashlashni

buyurgan. Endi bir zum to'xtab, bu haqda o'ylab ko'ring. Agar bir odam rasman jamoatga a'zo bo'lmagan bo'lsa, uni rasman jamoatdan haydab yubora olmaysiz.

Keyinchalik Pavlus Korinfliklarga yozgan ikkinchi maktubida o'sha odamni tilga olib, "ko'pchilikdan olgan . . . jazo" yetarlighi (2-Korinfliklar 2:6) haqida aytadi. Shu joyda yana bir bor o'ylab ko'ring. "Ko'pchilik" degani ma'lum bir odamlar guruhini anglatadi, bu holatda jamoatning ma'lum tarkibi nazarda tutilgan.

Pavlus uchun "kim jamoatning ichida" va "kim jamoatdan tashqarida" ekani muhim bo'lgan. U bunga befarq bo'lmagan, chunki Rabbimiz Isoning O'zi jamoatlarga o'z imkoniyati darajasida chegara qo'yish, ya'ni o'zlarini dunyodan ajratish huquqini bergan edi.

Sizlarga rostini aytaman, sizlar yer yuzida nimani bog'lasangizlar, osmonda ham bog'lanadi, yer yuzida nimani yechsangizlar, osmonda ham yechiladi. (Matto 18:18; yana 16:19; va Yuhanno 20:23 ga ham qarang)

Avval aytib o'tganimizdek, sog'lom jamoatlar – Xudoning tabiatini tobora ko'proq aks ettiradigan jamoatlardir. Shuning uchun yer yuzida yozgan narsalarimiz samoda yozilgan narsalarga, aniqrog'i, Qo'zining hayot kitobida yozilgan ismlarga iloji boricha yaqin bo'lishini istaymiz (Filippiliklar 4:3; Vahiy 21:27).

Sog'lom jamoat, Yangi Ahd mualliflari o'rgatganidek, imon keltirgan odamlarni qabul qilishga harakat qiladi. Ya'ni

jamoatga a'zo bo'lish haqida Kalomga mos tushunchaga ega bo'lishga intiladi.

Kalomga mos a'zolik – sadoqatdir

Ibodatxona g'ishtlardan, suruv qo'ylardan, tok shoxlardan iborat bo'lganidek, tana ham a'zolaridan iborat. Qaysidir ma'noda, Masih bizni qutqarib, O'z tanasining a'zolariga aylantirganda, jamoatga a'zolik boshlanadi. Biroq Uning ishlari mahalliy jamoatda amaliy ifodasini topishi kerak. Demak, jamoat a'zoligi muayyan tanaga o'zimizni bag'ishlashdan boshlanadi. Masihiy bo'lish – jamoatga qo'shilishni anglatadi.

Shu sababli, umumiy umidimizdan quvonishimiz, bir-birimizni mehr-muhabbatga va xayrli ishlarga chorlashimiz uchun Kalom bizni muntazam ravishda yig'ilib turishga chaqiradi (Ibroniylar 10:23-25). Jamoatga a'zo bo'lish – shunchaki a'zolikni tasdiqlash uchun qachonlardir qog'ozga qo'yilgan belgi emas. U shunchaki hissiyot emas. Yoki tanish joyga nisbatan muhabbat ifodasi emas. Ota-onalarga sadoqat yoki sadoqatsizlikni bildirish vositasi ham emas. U haqiqiy va tirik sadoqatning in'ikosi bo'lishi kerak, aks holda u befoydadir. Darhaqiqat, u befoydalikdan ham battar; u xatarlidir, buni keyinroq ko'rib chiqamiz.

Kalomga mos a'zolik – javobgarlik olish deganidir

Masihiylar orasida jamoat a'zoligining amaliy ko'rinishi imonlilar bir-birini mehr-muhabbatga va xayrli ishlarga chorlaganlarida namoyon bo'ladi. Biz muayyan mahalliy

jamoatga qo'shilganimizda, shu jamoat cho'ponlariga va boshqa a'zolariga shunchaki ularni sevishdan tashqari, yig'ilishlarda, ehson qilishda, ibodat va xizmatlarda ular bilan birga ekanimizni bildirgan bo'lamiz. Ularga bizdan ba'zi narsalarni kutishlari, mabodo to'g'ri yo'ldan adashsak, bizdan hisob so'rashlari mumkinligini ma'lum qilgan bo'lamiz. Jamoatga a'zo bo'lish – “endi men sizlar uchun mas'ulman, sizlar esa men uchun mas'ulsizlar”, deb aytish bilan teng. (To'g'ri, bu zamonaviy madaniyatga xos emas. Hatto, bunga zid keladi, bu gunohkor tabiatimizga qarshi turishdir).

Kalomga xos a'zolik – mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni anglatadi. U Muqaddas bitiklarda yozilgan burchimizdan, ya'ni “bir-biringizga” degan amrlardan – bir-biringizni seving, bir-biringizga xizmat qiling, bir-biringizga dalda bering, degan amrlardan kelib chiqadi. Bu amrlarning barchasi sog'lom jamoatning ahdnomasida bo'lishi lozim (ilovaga qarang).

Avvalgi belgilarni to'g'ri tushunish – bu belgini ham to'g'ri tushunishda foydali bo'ladi. Jamoat a'zolari Xushxabarni qanchalik qadrlasalar, yuqoridan tug'ilish Xudoning ishi ekanligini chuqurroq tushunsalar hamda “izlovchi” insonlarga najot yo'lining bahosini hisoblashga o'rgatib Xushxabar tarqatsalar, ular o'zlarining o'zaro mas'uliyatlarini shunchalik ko'p anglab yetadilar. Shunda masihiylar jamoatga istagan paytda kelib, o'ziga yoqqanini qabul qiladigan joy, ya'ni bosh suqish mumkin bo'lgan yana bitta masihiycha joy sifatida qarashni to'xtatadilar. Buning o'rniga, ular jamoatga barcha a'zolar bir-biriga g'amxo'rlik qiladigan tana sifatida, ya'ni o'zlari yashaydigan uy sifatida qaraydigan bo'ladilar.

Afsuski, rasman ro'yxatga olingan a'zolar soni hamda jamoatga muntazam keladigan odamlar soni o'rtasida katta farq bor. Uch mingta a'zosi bo'lgan jamoatga muntazam ravishda atigi olti yuzta odam kelishini bir tasavvur qiling. Menimcha, bugungi kunda ko'plab cho'ponlar yig'ilishga kelmaydigan a'zolarning ko'pligidan xafa bo'lish o'rniga, jamoatlarida qancha rasmiy a'zo borligi bilan faxrlanib yuradilar.

Bizdagi ushr va ehson berish holati yaxshiroqmi? Qaysi jamoatning byudjeti jamoat a'zolarining yillik daromadining 10 foizini tashkil qiladi? Undan ortig'i haqida gapirma ham bo'ladi.

Jismoniy imkoniyat cheklanganligi yig'ilishga kelishga, moliyaviy qiyinchiliklar esa ushr va ehson berishga to'sqinlik qilishi mumkin. Lekin boshqa vaziyatlarda, jamoatlar raqamli ko'rsatkichlarni ilohiy but darajasigacha ko'tarib yubormayaptimi, degan savol tug'iladi. Raqamlarga xuddi yo'nib yasalgan butlarga sig'ingandek oson sig'inish mumkin, balki undan ham osonroqdir. Lekin, menimcha, Xudo bizdagi raqamlarni sanamaydi, balki hayotimizga va qilgan amallarimizga qaraydi.

Kalomga mos a'zolik – najotni tasdiqlash demakdir

Jamoatga bormaydigan, mas'uliyatdan qochadigan a'zolar nima uchun xatarli? Bunday odamlar masihiy bo'lish nima ekani borasida haqiqiy a'zolar ham, masihiy bo'lmagan odamlarni ham chalkashtirib yuboradilar. Faol a'zolar bunday faol bo'lmagan a'zolarini jamoat a'zosi sifatida qoldirish bilan ularga hech qanday amaliy yordam ko'rsatmaydilar, chunki

a'zolik – o'sha odamning najotini jamoat bilan rasman tan olishni bildiradi. Buni tushundingizmi? Kimnidir jamoatingiz a'zosi deb ataganingizda, jamoatingiz o'sha odamni masihiy sifatida tan olganini tasdiqlaysiz.

Shunday qilib, agar jamoatning bironta a'zosi bir necha oylab, hatto yillab jamoatga kelmagan bo'lsa, bu insonni imon yo'lida sadoqat bilan yurganiga qanday guvohlik berish mumkin? Agar kimdir jamoatga kelmay qo'ygan bo'lsa, lekin Kalomga ishonadigan boshqa bir jamoatga ham qo'shilmagan bo'lsa, qanday qilib bu insonni o'zimizdan deb ayta olamiz? (1–Yuhanno 2:19 ga qarang) Bunday odamlarni masihiy deb ayta olmaymiz, shunchaki ularning imonli ekanini tasdiqlay olmaymiz. Biz u odamga: “Siz do'zaxga tushasiz”, deb aytishimiz kerak emas, shunchaki “Siz jannatga tushishingizga ishonchim komil emas”, deyishimiz mumkin. Kimdir jamoatga umuman bormay qo'yganda, jamoat o'sha odamning najotini rasman tan olishi unga nisbatan eng yaxshi holatda soddalik bilan munosabatda bo'ladi, yomon holatda noinsoflik qiladi.

Kalomga asoslangan a'zolik qoidalariga amal qiladigan jamoat o'z a'zolaridan mukammallikni emas, kamtarlik va halollikni talab qiladi. Bunday jamoat ularni og'iz bilan imonni e'tirof etishlarga emas, haqiqiy shogirdlikka chaqiradi. U insonning Xudo bilan bo'lgan shaxsiy tajribasining ahamiyatini inkor etmaydi, lekin hali mukammallikka erishmagan insonlar haqida ortiqcha taxmin ham qilmaydi. Shuning uchun Yangi Ahdda Xudo hamda bir-biri bilan ahdlashgan imonlilarning umumiy tasdig'i muhimligi ko'rsatilgan.

Kalomga asoslangan a'zolik – muhim ahamiyata ega

Umid qilamanki, jamoatdagi a'zolik statistikasi yana ahamiyatli bo'ladi, jamoat a'zolari yuzaki emas, amalda haqiqiy a'zolar bo'ladi. Vaqti kelsa, ba'zi bir odamlarni jamoatning a'zolik ro'yxatidan o'chirib tashlashni anglatadi (albatta, biz ularni unutmaymiz). Bu narsa ko'p hollarda yangi a'zolariga Xudo jamoatni nima maqsadda barpo qilganini o'rgatishni va ularga jamoat hayotiga sodiq bo'lishni muntazam ravishda eslatib turishni anglatadi. Mening jamoatimda buni bir necha yo'llar bilan amalga oshiramiz, ya'ni jamoatga a'zo bo'lish haqidagi darslardan tortib, har gal Qutlug' Kechlik o'tkazganda, jamoat ahdnomasini baland ovozda birgalikda o'qiyamiz.

Jamoatimiz sog'lom bo'lib borgani sayin yakshanba kuni jamoatga keluvchilarning soni rasmiy a'zolarining sonidan ham ortib bordi. Siz ham jamoatingizda shunday bo'lishini xohlashingiz kerak.

Agar odamlar ko'chib ketgan bo'lsa, biz o'tmishdagi sabablar tufayli eski do'stlarimizni jamoatda olib qolish orqali ularga sevgi ko'rsatmaymiz. Ular har hafta, hatto har kuni sevgi ko'rsatishlari mumkin bo'lgan boshqa jamoatga o'tishlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularga sevgimizni ko'rsatamiz. Shuning uchun biz jamoatimizda: “Biz bu jamoatdan ketganimizda, iloji boricha tezroq boshqa jamoatga qo'shilamiz, u yerda bu ahdni va Xudo Kalomining tamoyillarini amalga oshirishni davom ettiramiz”, deb aytamiz.

Bu sodiqlik sog'lom shogirdlikning ajralmas qismi bo'lib, ayniqsa, bugungi o'zgaruvchan zamonda muhim ahamiyatga ega.

Jamoat a'zoligiga jiddiy e'tibor berishning yangicha usuli ko'p foyda keltiradi. Bu narsa jamoatlarimizning Masihga ishonmaganlar oldidagi guvohligini yanada ravshan qiladi. Qolaversa, zaifroq qo'ylarning suruvdan ayrilib, o'zlarini qo'y deb atashlarini qiyinlashtiradi. O'sayotgan imonlilarning shogirdlik yo'llarini shakllantirishga va yo'naltirishga yordam beradi. Shu bilan birga, jamoat yetakchilariga ular kim uchun javobgar ekanligini anglashga ham yordam beradi. Bularning barchasi orqali Xudo ulug'lanadi.

Jamoat a'zoligi hozirgi paytdagidan muhimroq bo'lishi uchun ibodat qiling. Bu bizga kim uchun ibodat qilishni, kimga dalda berishni hamda imonda kimga qarshi turishni chuqurroq anglashimizga yordam beradi. Jamoat a'zoligi amaliy jihatdan Masihning tanasiga qo'shilishni bildiradi. Bu esa bu dunyoda musofir va kelgindi sifatida samoviy uyimiz tomon birgalikda qadam bosishni anglatadi. Albatta, sog'lom jamoatning yana bir belgisi – jamoat a'zoligi bo'yicha Muqaddas Kalomga asoslangan tushunchaga ega bo'lishdir.

KALOMGA ASOSLANGAN JAMOAT TARTIB-INTIZOMI

Jamoat a'zoliği haqida Kalomga asoslangan tushuncha, tabiiyki, Kalomga asoslangan jamoat tartib-intizomiga olib keladi. A'zolik jamoat atrofiga bir qator chegaralar qo'yib, jamoatni dunyodan ajratadi. Tartib-intizom esa jamoatga bu chegaralarni belgilashga sabab bo'lgan tamoyillarga amal qilishga yordam beradi. Bu narsa a'zolikning mazmunini belgilaydi, qolaversa, u sog'lom jamoatning yana bir muhim belgisi hisoblanadi.

Jamoat tartib-intizomi nima o'zi? Eng tor ma'noda, o'zini imonli deb hisoblaydigan insonni tavba qilmagan jiddiy gunohi, ya'ni voz kechmagan gunohi tufayli jamoat a'zolidan hamda Qutlug' Kechlik marosimida qatnashish huquqidan mahrum qilish harakatidir.

Xudoning tabiatini namoyon etish

Jamoat tartib-intizomini to'g'ri anglash uchun Xudo borliqni, insoniyatni, Isroilni hamda jamoatni nima maqsadda yaratgani haqida 3–bobda yozilganlarini ko'rib chiqish foydali bo'ladi. Xudo O'z ulug'vorligini namoyon etish maqsadida borliqni yaratdi. Keyin ayni shu maqsad bilan insoniyatni yaratdi, ya'ni biz Uning suratini ifoda etishimiz uchun yaratdi

(Ibtido 1:27). Lekin insoniyat, ya'ni Odam Ato bilan Momo Havo Xudoning ulug'vorligini namoyon qilmadi, shuning uchun Xudo ularni bog'dan haydab yubordi.

Keyin Xudo Isroil xalqini Uning ulug'vorligini namoyon etishga chaqirdi, qonunda ko'rsatilganidek, Xudoning muqaddasligini, tabiatini dunyoga namoyon etishga da'vat qildi (Levit 19:2; Hikmatlar 24:1, 25 ga qarang). Qolaversa, bu qonun ba'zi odamlarni to'g'ri yo'lga solish va hatto jamoadan chetlatish uchun asos bo'lgan (Sonlar 15:30-31). Oxir-oqibat, aynan shu qonun Isroilni ham yurtidan mahrum bo'lishiga sabab bo'ldi.

Nihoyat, avval aytganimizdek, Kalomda ochib berilgan Xudoning tabiatini tobora ko'proq namoyon bo'lishi uchun Xudo jamoatni yaratdi. Muqaddas Kitobda berilgan yaxlit syujet chizig'iga muvofiq, jamoat tartib-intizomi – Xushxabarga e'tiborsizlik qilish orqali uni obro'sizlantiradigan hamda to'g'ri yo'l tutishni istamagan shaxsni jamoatdan chetlatish harakati hisoblanadi. Tartib-intizom Xudoning ulug'vor tabiatini sadoqat bilan namoyon qilishda jamoatga yordam beradi. U jamoatning muqaddasligini saqlashga yordam beradi. Bu xuddi ko'zguni dog' va changlardan tozalab, uni sayqallashga o'xshaydi (2–Korinfliklar 6:14-7:1; 13:2; 1–Timotiy 6:3-5; 2–Timotiy 3:1-5 ga qarang). Tartib-intizom nima uchun kerak? Xudoning muqaddas va mehribon tabiati yanada aniqroq va yorqinroq namoyon bo'lishi uchun kerak.

Bu qanday ishlaydi?

Intizom jarayoni qanday kechadi? Gunohli vaziyatlar har xil bo'lgani uchun har bir vaziyatda qanday yo'l tutishni bilish uchun cho'ponning dono bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Shunday bo'lsa ham, Isoning Matto 18–bobda berilgan so'zlari umumiy chegaralarni belgilab bergan (Matto 18:15-17). Avvalo, gunoh qilgan birodaringiz bilan yolg'iz gaplashing. Agar gunoh qilgan birodaringiz tavba qilsa, intizom jarayoni tugaydi. Agar u tavba qilmasa, yoningizga boshqa bir imonli kishini olib, u bilan gaplashing. Agar shunda ham tavba qilmasa, Iso aytganidek, “Jamoatga aytgin. Agarda Jamoatga quloq solmasa, unda u sen uchun majusiy va soliqchi kabi bo'lsin” (Matto 18:17), ya'ni uni jamoatdan chetlatilgan shaxs deb hisoblang.

Uni hukm qilish kerakmi?

Bugungi kunda bu g'oya ko'pchilik uchun shafqatsizlikdek tuyulishi mumkin. Qolaversa, Iso O'z izdoshlariga boshqalarni hukm qilishni taqiqlamaganmi? Axir, U aniq qilib: “Hukm qilmanglar, shunda sizlar ham hukm qilinmaysizlar” degan (Matto 7:1). Ammo aynan mana shu Xushxabarda Iso jamoatlarni gunoh qilgan a'zolarga, kerak bo'lsa, hammaning oldida tanbeh berishga chaqirgan (Matto 18:15-17; qiyoslang: Luqo 17:3). Shunday qilib, Iso “Hukm qilmanglar” deganda, hozirgi kunda “hukm qilish” deb ataladigan har qanday ishni taqiqlashni nazarda tutmagan.

Albatta, Xudoning O'zi Hakamdir. U Adan bog'ida Odam Atoni hukm qilgan. Eski Ahd kitobida U xalqlarni ham, odamlarni ham hukm qilgan. Yangi Ahdda U imonlilarning qilgan amallariga muvofiq hukm qilinishlarini aytib o'tgan (1–Korinfliklar 3–bobga qarang). Qiyomat kunida butun insoniyat ustidan oliy hukmdor sifatida namoyon bo'lishni ham va'da qilgan (Vahiy 20–bobga qarang).

Xudo hukm qilganida, hech qachon xato qilmaydi. U har doim adolatlidir (Yeshua 7; Matto 23; Luqo 2; Havoriylar 5; Rimliklar 9–boblarga qarang). Ba'zan Xudo O'z farzandlarini intizomga solganda, hukm qilishdan maqsadi tuzatish, najot berish va tiklash bo'ladi. Ba'zida esa fosiqlarga g'azabini sochganda, Uning hukmi jazo va g'azab shaklida bo'ladi (Ibroniylar 12–bobga qarang). Ikkala holatda ham Xudoning hukmi har doim adolatli bo'ladi.

Ba'zan Xudo O'z hukmini amalga oshirish uchun odamlardan foydalanishi bugungi kunda ko'pchilikka g'alati tuyulishi mumkin. Davlatga o'z fuqarolarini hukm qilish mas'uliyati berilgan (Rimliklar 13–bobga qarang). Masihiylarga o'zlari ustidan hukm chiqarish buyurilgan (1–Korinfliklar 11:28; Ibroniylar 4; 2–Petrus 1:5 ga qarang). Shuningdek, jamoatlar ham ba'zida o'z a'zolarini hukm qilishga chaqirilgan, lekin albatta bu hukm Xudoning so'nggi hukmi kabi bo'lmaydi.

Matto 18, 1–Korinfliklar 5–6–boblarida hamda yana boshqa joylarda jamoatga o'z doirasida adolatli hukm chiqarish haqida ko'rsatmalar berilgan. Bu hukm qasos olish niyatida emas, balki qutqarish niyatida amalga oshirilishi lozim (Rimliklar 12:19 ga qarang). Pavlus Korinf shahridagi jamoatga zino qilgan odamning “tanasi barbod qilish uchun shaytonga topshirish kerak, toki Rabbiiy Isoning kunida uning ruhi najot topsin” (1–Korinfliklar 5:5) degan maqsadda shaytonga topshirishni buyurgan. Xuddi shu so'zlarni Timotiyga ham aytib, Efesdagi soxta ustozlarni hukm qilishni buyurgan (1–Timotiy 1:20).

Ochiqmi yoki yopiq?

Xudo bizni ma'lum turdagi hukm yoki intizomni amalga oshirishga chaqirishidan hayron bo'lmasligimiz kerak. Agar jamoatlar imonli kishilar qanday hayot kechirishlari lozimligi haqida gapiradigan bo'lsalar, ular imonli kishilarning qanday hayot kechirmasliklari haqida ham gapirishlari kerak bo'ladi. Biroq men ko'plab jamoatlarning shogirdlik masalasiga yondashuvidan xavotirdaman, ya'ni ular tutgan yo'l xuddi teshik chelakka suv quyishga o'xshaydi – butun e'tibor suv quyishga qaratiladi, lekin suv qanday quyilayotganiga va uni chelakda ushlab qolishga e'tibor berilmaydi. So'nggi bir nechta avlod o'rtasida jamoat tartib-intizomining amalda qo'llanishi keskin kamayib ketgani – muammoning belgilaridan biridir.

Jamoatning o'sishi haqida kitob yozgan mualliflardan bittasi jamoatning o'sish strategiyasini "Old eshikni oching va orqa eshikni yoping" degan so'zlar bilan ifodalagan. Bu so'zlar bilan u shuni nazarda tutyaptiki, jamoatlar Masihga ishonmagan odamlarga nisbatan ochiqroq bo'lsin hamda kelgan odamlar bilan yaxshiroq ishlasin. Bular albatta, yaxshi maqsadlar. Lekin menimcha bugungi kunda ko'plab cho'ponlar va jamoatlar shunday yo'l tutishga harakat qilishadi. Shuning uchun o'zim Kalomga asoslangan strategiya deb hisoblagan yondashuvni taklif qilaman: old eshikni qattiq qo'riqlang va orqa eshikni ochib qo'ying. Boshqacha aytganda, jamoatga qo'shilishni qiyinlashtiring, boshqa tomondan, jamoatdan chetlatilishni osonlashtiring. Yodingizda bo'lsin, hayotga olib boruvchi yo'l keng emas, balki tordir. Shunday qilish, jamoatlarga ularni dunyodan ajratib turadigan ilohiy farqni qayta tiklashga yordam beradi.

Shuning uchun tartib-intizomga amal qilishning ilk qadamlaridan biri – yangi a'zolari qabul qilishda juda hushyor bo'lishdir. Jamoatga a'zo bo'lmoqchi bo'lganlarning har biridan Xushxabar nima ekanligini hamda Masihga ulug'vorlik keltiradigan hayotning mohiyatini tushunishlarini isbotlashini so'rash kerak. A'zolikka o'tmoqchi bo'lgan nomzodlar jamoat ulardan nimani kutayotganini va sadoqatning qanchalik muhim ekanini bilishlari foydali bo'ladi. Agar jamoatlar yangi a'zolari qabul qilishda e'tiborli bo'lsa, kelgusida jamoatda tuzatish ishlarini olib borishga bo'lgan ehtiyoj ancha kamayadi.

Tartib-intizomni mas'uliyat bilan amalga oshirish

Jamoat tartib-intizomi noto'g'ri usulda amalga oshirilishi ham mumkin. Yangi Ahdda biz boshqalarni ularning niyatlari borasida taxminlarimiz asosida (Matto 7:1 ga qarang) yoki arzimagan narsalar uchun (Rimliklar 14-15–boblarga qarang) hukm qilmasligimiz kerakligi o'rgatilgan. Intizomiy chora ko'rishda munosabatimiz kek saqllovchi emas, balki mehr-muhabbatli bo'lishi va «qo'rquv aralash rahm-shafqatni» namoyon etishi lozim (Yahudo 23 ga qarang). Jamoat tartib-intizomi donolik hamda cho'ponlik tajribasini talab qiladigan muammolarga to'la ekanini inkor etib bo'lmaydi. Biroq masihiycha hayot oson emasligini va suiste'mol qilinishi mumkinligini unutmasligimiz kerak. Qiyinchiliklar masihiycha hayot tarzi bilan yashamaslikka bahona bo'lolmaydi, qiyin deya o'zimizni oqlamaylik.

Har bir mahalliy jamoat o'z yetakchilari hamda a'zolarining hayoti va ta'limotini hukm qilishga mas'uldir,

ayniqsa, ularning xatti-harakatlari yoki ta'limoti Xushxabar haqidagi jamoat guvohligiga zarar yetkazadigan bo'lsa (Havoriylar 17:1; 1-Korinfliklar 5; 1-Timotiy 3; Yoqub 3:1; 2-Petrus 3; 2 Yuhanno ga qarang).

Jamoatning Kalomga asoslangan tartib-intizomi – shunchaki Xudoga itoat qilish va o'zimizning yordamga muhtoj ekanimizni tan olishdir. Xudo O'z hukmini amalga oshirish uchun odamlardan foydalanmaydigan, ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalamaydigan dunyoni, qonunni buzganlarni jazolamaydigan hukumatni yoki o'z a'zolariga tanbeh berib, ularni to'g'ri yo'lga solmaydigan jamoatni tasavvur qila olasizmi? Agar bular mavjud bo'lganda edi, Xudoning hukm kuniga dunyoviy hukmning azobini bilmasdan, boshimizga tushadigan eng katta hukm kuni haqida bexabar holda kelgan bo'lar edik. Xudo shunchalik mehribonki, ushbu vaqtinchalik jazo bilan birga keladigan o'zgarmas adolat haqida hozir bizga o'rgatadi (Luqo 12:4-5 ga qarang).

Jamoatda tuzatuvchi tartib-intizomni amal oshirishning beshta ijobiy sababi bor. U quyidagi narsalarga bo'lgan muhabbatni aks ettiradi: (1) tartibga chaqirilayotgan shaxsning yaxshiligiga; (2) boshqa imonlilarga, chunki ular gunohning xatarli ekanini ko'radilar; (3) butun boshli jamoatning ruhan sog'lom bo'lishiga; (4) jamoatning umumiy guvohligiga, jamiyatda masihiy bo'lmaganlarga hamda (5) Xudoning ulug'vorligiga. Bizning muqaddasligimiz Xudoning muqaddasligini aks ettirishi lozim.

Jamoat a'zosi bo'lish mag'rurlanishimiz uchun emas, balki Xudoning nomi haqi ahamiyatli bo'lishi kerak. Jamoatning Kalomga asoslangan tartib-intizomi – sog'lom jamoatning yana bir muhim belgisidir.

KALOMGA ASOSLANGAN SHOGIRDLIK VA RUHAN O'SISH

Sog'lom jamoatning yana bir muhim belgisi – Kalomda ta'kidlanganidek, jamoatning ruhan o'sishi haqida tinmay g'amxo'rlik qilishdir. Bu esa faqat son jihatidan emas, balki a'zolarining ruhiy jihatdan o'sishini anglatadi.

Bugungi kunda ba'zi odamlar inson bir umr “imonda chaqaloq” bo'lib qolishi mumkin, deb o'ylashadi. O'sish esa faqat shijoatli shogirdlar uchun qo'shimcha bir imkoniyat sifatida qabul qilinadi. Ammo o'sish – tiriklik belgisidir. Agar daraxt tirik bo'lsa, u o'sadi. Agar hayvon tirik bo'lsa, u o'sadi. Tirik bo'lish – o'sishni anglatadi, o'sish esa, eng kamida, hayotning oxirigacha rivojlanish va oldinga intilishni bildiradi.

Pavlus Korinfliklarning imonda o'sishlariga umid qilgan (2–Korinfliklar 10:15), Efesliklarga esa “Bosh bo'lgan Masih tomon hamma narsada o'sib boraylik” (Efesliklar 4:15; qiyoslang: Kolosaliklar 1:10; 2–Fessalonikaliklar 1:3), deb aytgan. Butrus o'quvchilarga murojaat qilib, “yangi tug'ilgan chaqaloqlarday So'zning sof sutini tusanglar, toki undan najotga ulg'ayinglar” (1–Petrus 2:2) degan.

Cho'ponlar va hatto ayrim a'zolar ham jamoatni boshqarishga qulay bo'lgan raqamlar statistikasini, ya'ni yig'ilishga keluvchilar sonini, suvga cho'mdirish marosimlarini,

ushr va ehsonlar miqdorini hamda a'zolik ro'yxatini hisoblab borish vasvasasiga tushishlari mumkin. Bunday o'sish aniq ko'rinib turadi. Biroq bunday statistika yuritish Yangi Ahd mualliflari tasvirlagan hamda Xudo istagan haqiqiy o'sishdan ancha yiroq.

Muqaddaslikda o'sish

Masihiylar inoyatda o'sayotganini qayerdan bilamiz? Buni ularning his-tuyg'ularidan, diniy so'zlarni ko'p ishlatishidan yoki Muqaddas bitiklarni ko'proq o'rganayotganlaridan bila olmaymiz. Jamoatga nisbatan muhabbati ortishi yoki imoniga bo'lgan ishonchi ortayotganini ko'rsatishi ham yaqqol belgi emas. Hatto Xudoga bo'lgan tashqi ishtiyoqini namoyon etishi ham imonlilarning o'sayotganini anglatmaydi. Bularning hammasi haqiqiy masihiycha o'sishning belgilari bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, o'sishning e'tibordan chetda qolgan va eng muhim belgilaridan biri – imonli kishining o'z nafsini tiyish orqali muqaddaslikda o'sishining kuzatilishidir (Yoqub 2:20-24; 2–Petrus 1:5–11 ga qarang). Jamoat o'z a'zolarining hayotida solihlikni oshirishga jiddiy ahamiyat berishi kerak.

Jamoat tartib-intizomini bee'tibor qoldirish singari, muqaddaslikka jiddiy e'tibor qaratmaslik ham shogirdlarning ruhan o'sishini qiyinlashtiradi. Noma'qul xatti-harakatlar e'tiborsiz qoldirilgan jamoatlarda shogirdlar Masihga ulug'vorlik keltiradigan hayot nimani anglatishini tushunmay qolishadi. Bu xuddi begona o'tlar hech qachon tozalanmaydigan va yaxshi narsalar ekilmaydigan bog'ga o'xshaydi.

O'sish qanday ko'rinishda bo'ladi va qanday ko'rinishda bo'lmaydi

Odamlar inoyatda o'sishlari uchun jamoat Xudoning vositasi bo'lishi kerak. Muqaddaslikka intiladigan, yetuk imonlilardan iborat jamoat Xudoning azizlari ruhan o'sishlarida Xudoning vositasi bo'ladilar. Xudoning azizlari muqaddaslik va beminnat sevgida birgalikda o'sib borgani sayin, tartib-intizomni ham, shogirdlikni ham rivojlantirib borishlari lozim.

Jamoat hayotiga nazar tashlasak, a'zolaridagi o'sish yo'llari turlicha namoyon bo'ladi. Quyida bir qator misollar berilgan:

- Elchilik xizmatiga chaqirilayotganlarning soni ortib boradi: "Janubiy Amerikadan kelgan qo'shnilarim bilan Xushxabarni baham ko'rish menga juda yoqadi. Ehtimol, Xudo meni shu xizmatga chaqirayotgandir..."
- Yoshi kattaroq a'zolar Xushxabarni targ'ib qilishda va yosh shogirdlarni tayyorlashda yangicha mas'uliyatni his qiladilar: "Bugun kechki ovqatga biznikiga kelmaysizmi?"
- Yosh a'zolar kattalarga bo'lgan muhabbat tufayli ularning dafn marosimlarida qatnashadilar: "Yigirma yashar bo'ydoq yigit paytimda janob Yong va uning rafiqasi meni qabul qilganlaridan minnatdorman."
- Jamoatda ibodatlar soni ortadi, Xushxabarni targ'ib qilish va xizmat imkoniyatlari ko'payishiga qaratilgan ibodatlar kuchayadi: "Ishxonamda Kalomni

o'rganishga bag'ishlangan darslarni boshlamoqchiman. Lekin bir oz hayajonlanyapman. Jamoat men uchun ibodat qilishi mumkinmi?"

- Jamoatning ko'plab a'zolari boshqalar bilan Xushxabarni baham ko'radilar: "Men sartaroshxonada Aleks ismli yigit bilan tanishib qoldim. Men taniydigan ba'zi insonlarni u ham tanir ekan. Shundan keyin biz birga qahva ichishga kelishib oldik. Bir necha oy davomida unga Xushxabar haqida gapirdim va u hozir jamoatimizga keldi."
- A'zolarining jamoat dasturlariga haddan ortiq bog'liqligi kamayib, o'zlari tashabbus ko'rsata boshlaydi: "Hurmatli cho'pon, Xushxabarni targ'ib qilish imkoniyati sifatida Salli ikkimiz jamoatdagi ayollar uchun choyxo'rlik tashkil qilsak, qanday bo'larkin?"
- Jamoat a'zolarining norasmiy yig'ilishlari ruhiy suhbatlardan iborat bo'ladi, jumladan, xochga ishora qilgan holda gunohlar e'tirof etiladi: "Birodar, men ____ bilan kurashyapman".
- Ushr va ehson berish ko'payadi: "Azizim, bu oyda _____ga yordam berish uchun besh dollar ajrataylik."
- Ruhning samarasi ortadi: "Jamoatdagi hamdu sanolar hamda o'jizligimda Xudo menga qanchalar mehr ko'rsatgani haqida mulohaza qilish orqali menda ayolimga muloyimroq bo'lish istagi tug'ildi."

Yoki “Do‘stlarimga qo‘shilib, nimaning ustidan kulayotganimga e‘tiborliroq bo‘lishim uchun Xudo ko‘zimni ochdi.”

- A‘zolar jamoat xizmatlari yo‘lida o‘z martabalaridan voz kechadilar: “Kris jamoatda o‘zining yetakchilik xizmatidan voz kechmaslik uchun uch marotaba ishida yuqori lavozimga ko‘tarilish taklifini rad qilgani haqida eshitdingizmi?”
- Er lar fidoyilik bilan xotinlarini boshqaradilar: “Azizam, o‘zingni suyuqli va e‘tiborli ekaningni his qilishing uchun nima qilishim mumkin?”
- Xotinlar o‘z erlariga itoat qiladilar: “Azizim, sizga yengil bo‘lishi uchun bugun sizga qanday yordam bera olaman?”
- Ota-onalar farzandlarini imon bilan tarbiyalaydilar: “Kelinglar, bugun oqshomda _____ yurtidagi masihiy xizmatchilar uchun ibodat qilamiz.”
- Jamoat tavba qilinmagan va oshkora qilingan gunoh uchun jazo qo‘llashga tayyor bo‘ladi: “O‘tgan yili may oyida tarbiyaviy jazo sifatida bir a‘zoni jamoatdan chetlashtirdik. U boshqa joyga ko‘chib ketmagan va boshqa jamoatchilik tadbirlarida faol ishtirok etib yurgan bo‘lsa ham bir yil davomida jamoatga kelmadi. Buning sababini ham bizga aytmadi. U shunchaki jamoatga kelmay qo‘ydi.”
- Tavba qilmagan gunohkorga nisbatan jamoat sevgi ko‘rsatadi, ya‘ni unga nisbatan chora ko‘rishdan oldin

u bilan gaplashishga urinadi: “Iltimos, xabarimni olsangiz, aloqaga chiqing. Siz bilan gaplashishdan xursand bo‘laman.”

Bular jamoatning qanday o‘sishi, masihiylar nima uchun ibodat qilishlari va nima uchun harakat qilishlari kerakligi borasida ba’zi bir misollar, xolos. Sog‘lom jamoat kengayishi mumkinmi? Ko‘pincha, shunday bo‘ladi, chunki ular Xushxabarga jozibador guvohlikni namoyon etadi. Lekin shunday bo‘lishi kerak, degan fikrga bormasligimiz lozim. Ba’zida Xudoning boshqa maqsadlari bo‘ladi, masalan, U O‘z xalqini sabrli bo‘lishga chaqiradi. Biz sodiqlik va haqiqatan ruhan o‘rishga e’tibor qaratishimiz kerak.

Bunday o‘rishga nima sabab bo‘ladi? Kalomni ekspozitsion va’z qilish bunga sabab bo‘ladi. Kalomga asoslangan teologiya. Xushxabarga e’tibor. Va albatta, yuqoridan tug‘ilish, Xushxabarni tarqatish, a’zolik, tartib-intizom va yetakchilik haqida Kalomga xos tushuncha!

Lekin, agar jamoatlar faqat cho‘ponning fikrlari o‘rgatiladigan, Xudoga sajda qilishdan ko‘ra, Unga nisbatan shubha uyg‘otadigan, Xushxabarning mazmuni o‘zgartirilib, Xushxabarni tarqatish xizmati buzilgan, jamoat a’zolari o‘z qadrini yo‘qotgan, cho‘ponning atrofida “shaxsiyatga sig‘inish” paydo bo‘lgan joyga aylangan bo‘lsa, bunday joyda yakdil va foydali jamoat bo‘lmaydi. Bunday jamoat Xudoga ulug‘vorlik keltirmaydi.

Jamoat o‘sishi orqali Xudo ulug‘lanadi

A’zolari Masihning surati tomon o‘zgarib borayotgan jamoatni ko‘rganimizda, kimni ulug‘laymiz? Albatta, Xudoni ulug‘laymiz, chunki Pavlus aytganidek: “Xudo o‘stirdi.

Shuning uchun ekadigan va sug'oradigan hech narsa emasdir, o'stiradigan Xudo hamma narsadir" (1-Korinfliklar 3:6-7, qiyoslang: Kolosaliklar 2:19).

Xuddi shunday, Butrus ilk imonlilarga yo'llagan ikkinchi maktubini quyidagicha yakunlaydi: "Biroq inoyatda va Rabbimiz hamda Najotkorimiz Iso Masihni tanib-bilishda ulg'ayinglar. Hozir va abadiy Unga shon-shuhrat bo'lsin! Omin" (2-Petrus 3:18). Ba'zida ruhan o'sishimiz o'zimizga shon-shuhrat keltiradi, deb o'ylashimiz mumkin. Lekin Butrus buni yaxshiroq bilardi: "Sizlarni yomonlikda ayblab g'iybat qiladigan majusiylar orasida diyonatli hayot kechiringlar, toki ular xayrli ishlaringizni ko'rib, Rabbiiy tashrif buyuradigan kunda Xudoni ulug'lasinlar" (1-Petrus 2:12). Petrus, shubhasiz, Isoning so'zlarini eslagan: "Sizlarning nuringiz odamlarning oldida shunday porlasinki, ular sizlarning yaxshi ishlaringizni ko'rib, Osmondagi Otangizni ulug'lasinlar." Ha, u "Osmondagi Otangizni ulug'lasinlar", degan (Matto 5:16). Shogirdlik va o'sishni targ'ib qilish – sog'lom jamoatning yana bir belgisidir.

KALOMGA ASOSLANGAN JAMOAT YETAKCHILIGI

Sog'lom jamoatda qanday yetakchilik yo'lga qo'yilgan bo'ladi? Xushxabar sadoqat bilan va'z qilinishini ta'minlashga intiladigan odamlardan iborat jamoa bo'ladimi? Ha (Galatyaliklar 1). Diakonlari (xizmatchilari) jamoat ishlarida o'rnak ko'rsatadimi? Ha (Havoriylar 6). Jamoat cho'poni Xudo Kalomini sadoqat bilan va'z qiladimi? Ha (2–Timotiy 4). Biroq, Muqaddas Kitob jamoatlarni sog'lom bo'lishiga yordam beradigan yana bir yetakchilik in'omi haqida gapiradi. Bu in'om – oqsoqol lavozimidir.

Albatta, Kalomda jamoat yetakchiligi haqida aytilgan foydali fikrlar juda ko'p, biroq men asosan oqsoqollar masalasiga e'tibor qaratmoqchiman, chunki juda ko'p jamoatlar ularda nima yetishmayotganini bilmaydi, deb o'ylayman. Men cho'pon sifatida, Masih oramizga ruhiy in'omlari va cho'ponga xos g'amxo'rliqi Xudo ularni oqsoqol bo'lishga da'vat qilganini aks ettiradigan insonlarni qo'yishi uchun ibodat qilaman. Xudo ko'plab mana shunday insonlarni tayyorlasin!

Agar Xudo biron kishiga namunali xulq, cho'ponga xos donolik hamda ta'lim berish qobiliyatini bergan bo'lsa

va jamoat ibodat orqali bu in'omlarni aniqlasa, u holda o'sha inson oqsoqol qilib tayinlanishi lozim.

Oqsoqol kim?

Havoriylar kitobining 6–bobida bayon etilishicha, Quddusdagi yosh jamoat a'zolari beva ayollarga oziq-ovqat tarqatish masalasida tortishib qoladi. Shunda havoriylar jamoatga murojaat qilib, bu ishni yaxshiroq nazorat qila oladigan bir necha erkakni tanlashni taklif qilishadi. Havoriylar “doimo ibodatda va So‘z xizmatida” bo‘lishlari uchun bu vazifani boshqalarga topshirishdi (Havoriylar 6:4).

Qisqasi, Yangi Ahdning boshqa joylarida tilga olingan oqsoqollar va xizmatchilar (diakon) o‘rtasidagi mehnat taqsimoti aynan shu tarzda ko‘rsatiladi. Oqsoqollar, asosan, jamoat uchun ibodat va So‘z xizmatiga bag‘ishlanadilar, xizmatchilar (diakon) esa jamoatning jismoniy ishlarini yuritishga yordam beradilar.

Ey jamoatlar, bu in‘om sizlar uchun qanday in‘om ekanini tushuna boshladingizmi? Xudo shunchaki: “Orangizdan bir nechta odamni tanlab olaman, ularni sizlar uchun ibodat qilishlari hamda sizlarga Men haqimda ta‘lim berishlari uchun ajratib olaman”, demoqda.

Oqsoqollar va jamoa (kongregatsiya)

Xizmatchi (diakon) yoki mulozim (direktor) deb atalsa ham, har bir jamoatda oqsoqol vazifasini bajaradigan insonlar bo‘ladi. Yangi Ahdda ushbu maqom uchun uchta so‘z – *episcopos* (episkop yoki nazoratchi), *presbuteros* (oqsoqol)

hamda *poimain* (cho'pon) ishlatilgan bo'lib, ular bir-birining vazifasini bajargan. Bu uchala atama bitta shaxsni anglatadi, masalan, Havoriylar 20:17 va 20:28 da ularning hammasi bitta shaxsga nisbatan ishlatilgan.

Masihiylar "oqsoqol" degan so'zni eshitganlarida, ko'pchiligining xayoliga darhol "Presviterian" jamoati keladi. Biroq, 16-asrdagi ilk Kongregatsionalistlar (katta harf bilan yoziladi, jamoatning rasmiy vakillari) oqsoqollik lavozimi Yangi Ahd jamoatlari uchun mo'ljallangan, deb o'rgatishgan. 18-asrda va 19-asrning boshlarida Amerikadagi Baptist jamoatlarida ham oqsoqol lavozimi mavjud bo'lgan. Darhaqiqat, bu amaliyot Kalomga asoslangan bo'lgani uchun Janubiy Baptist Konvensiyasining prezidenti U. B. Jonson 1846-yili yozgan risolasida Baptist jamoatlarini bir qator oqsoqollardan iborat rahbarlik tizimini joriy etishga chaqirgan.

Oqsoqol lavozimi masalasida Baptistlar va Presviterianlar ikki narsada kelisha olmaydilar (menimcha, bu masala Baptist yoki Presviterian bo'lmaganlarga ham tegishli). Eng avvalo, biz, Baptistlar kongregatsionalistlar (kichik harf bilan yoziladi, jamoatchilik tamoyillariga amal qiluvchilar) hisoblanamiz. Biz Muqaddas Kalom turli masalalar bo'yicha so'nggi qarorni jamoat oqsoqollari yoki jamoatga tegishli bo'lmagan odamlar emas, balki butun jamoa (kongregatsiya) qabul qiladi, deb o'rgatishga ishonamiz. Iso shogirdlariga gunoh qilgan odam bilan gaplashish haqida ta'lim berganida, oqsoqollar, pop yoki yepiskop, maslahatchilar yoki kengash emas, aynan jamoa so'nggi qarorni chiqarishi lozimligini aytgan (Matto 18:17). Havoriylar xizmatchi vazifasini bajaradigan odamlarni

tanlashi kerak bo'lganida, yuqorida aytib o'tganimizdek, qaror chiqarish huquqini jamoaga berishgan.

Pavlusning maktublarida ham yakuniy mas'uliyatni jamoa o'z bo'yniga olgani yozilgan. 1–Korinfliklar 5–bobda gunoh qilgan odamga chora ko'rilmagani uchun Pavlus cho'ponni, oqsoqolni yoki xizmatchilarni emas, aynan jamoani ayblagan. 2–Korinfliklar 2–bobda esa Pavlus jamoadagi ko'pchilik odamlar yo'ldan adashgan kishini intizomga qanday solgani haqida aytgan. Galatyaliklar 1–bobda Pavlus jamoaning o'zini ular eshitgan soxta ta'limotlar ustidan hukm chiqarishga chaqirgan. 2–Timotiy 4–bobda Pavlus nafaqat soxta ustozlarni, balki o'zlariga yoqadigan gaplarni aytishlari uchun ularga pul to'laganlarni ham fosh qiladi. Oqsoqollar yetakchilik qilishlari kerak, lekin buni Kalomga asoslangan holda, va albatta, jamoa belgilagan chegaralar asosida qilishlari lozim. Shuning uchun, Baptist jamoatidagi oqsoqollar hamda boshqa har qanday kengash yoki qo'mita butun jamoaga yakuniy maslahat berish vazifasini bajaruvchi organ sifati faoliyat yuritadi.

Ikkinchidan, Baptistlar va Presviterianlar oqsoqollarning vazifasi va majburiyatlari bo'yicha bir-biri bilan kelisha olmaganlar, bu ixtilof, asosan, Pavlusning Timotiyga yozgan quyidagi so'zlarini turlicha tushunish natijasida kelib chiqqan: “Yaxshi boshchilik qilayotgan, ayniqsa, So'zni voizlik qilishda va ta'lim berishda mehnat qilayotgan jamoaboshilar ikki barobar ko'p hurmatga loyiq hisoblansinlar” (1–Timotiy 5:17). Presviterianlar bu oyatni ikki toifadagi oqsoqollarni, ya'ni boshqaruvchi oqsoqollar va ta'lim beruvchi oqsoqollarni tayinlash kerak, deb tushunadilar. Baptistlar esa bu rasmiy

bo'linishni tan olmaydilar, ular bu oyatda ba'zi oqsoqollar boshqalarga qaraganda amaliy jihatdan ko'proq vaqt va kuchini va'z aytish hamda ta'lim berishga sarflashi haqida yozilgan, deb hisoblaydilar. Axir, Pavlus o'z maktubining boshida har bir oqsoqol "ta'lim berishga qobiliyatli" bo'lishi kerakligi haqida Timotiyga tushunarli qilib aytgan (1–Timotiy 3:2; yana Titus 1:9 ga ham qarang). Shuning uchun ham Baptistlar ko'pincha Muqaddas bitiklardan ta'lim berish qobiliyatiga ega bo'lmagan odamni oqsoqol etib tayinlashni inkor qilganlar.

Oqsoqollarning ko'pligi

O'n sakkizinchi asrda Baptistlar va Presviterianlarning fikri bir joydan chiqib, har bir mahalliy jamoatda bir nechta oqsoqol bo'lishi kerak, deb hisoblashdi. Yangi Ahdning hech qayerida ma'lum bir jamoa uchun aynan shuncha oqsoqol bo'lishi kerak, deb yozilmagan, lekin mahalliy jamoatlardagi oqsoqollar ko'p bo'lishi kerakligi aniq va tushunarli tarzda berilgan (Masalan, Havoriylar 14:23; 16:4; 20:17; 21:18; Titus 1:5; Yoqub 5:14).

Bugungi kunda nafaqat Baptist jamoatlar, balki ko'plab boshqa e'tiqodga mansub mustaqil jamoatlar ham Kalomga asoslangan ushbu g'oyani kengroq tan olishmoqda.

Oqsoqollarning ko'p bo'lishi – cho'ponning ahamiyati yo'qligini anglatmaydi. Yangi Ahdda jamoadagi barcha oqsoqollarga tegishli bo'lmagan voizlik hamda voizlar haqida ko'plab oyatlar bor. Misol uchun, Pavlus Korinf shahrida faqat va'z aytgan, chunki u yerdagi jamoat oqsoqollari Pavlusdek va'z qila olmaganlar (Havoriylar 18:5; 1–Korinfliklar 9:14;

1–Timotiy 4:13; 5:17). Qolaversa, voizlar odatda maxsus va’z aytish uchun boshqa joylarga borishgan (Rimliklar 10:14-15), oqsoqollar esa jamoa orasida bo’lishgan (Titus 1:5).

Xudo Kalomini sadoqat bilan va’z qiladigan voizni, odatda, jamoa va boshqa oqsoqollar “yetakchi” deb qabul qiladilar va har tomonlama hurmatga loyiq, deb biladilar (1–Timotiy 5:17). Lekin voiz yoki cho’pon ham boshqa barcha oqsoqollar singari jamoa tomonidan shu vazifaga tayinlangan boshqa odamlar bilan rasman tengdir.

Oqsoqollarning imtiyozlari

Cho’pon sifatidagi shaxsiy tajribam mahalliy jamoatda cho’ponlik qilish mas’uliyatini, iloji boricha, jamoada ildiz otgan boshqa kishilar bilan baham ko’rish Yangi Ahdga xos samarali usul ekanini tasdiqladi.

Jamoatga tegishli, ammo barcha jamoat a’zolarining ishtirok etishini talab qilmaydigan qarorlar yolg’iz cho’pon tomonidan emas, balki barcha oqsoqollar bilan birgalikda chiqarilishi lozim. Bu narsa ba’zida qiyinroq bo’lishi mumkin, lekin foydasi katta bo’ladi. Bunday yondashuv cho’ponning in’omlarini rivojlantiradi, kamchiliklarini to’ldiradi va qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu usul qaror qabul qilishda jamoaning qo’llab-quvvatlashini oshiradi, yakdil bo’lishga yordam beradi va yetakchilarni nohaq tanqidlardan saqlaydi. Bunday tartib yetakchilikni yanada barqaror va mustahkam qiladi hamda yetuklikni ta’minlaydi. Bu esa jamoatning o’z ruhiy holati uchun mas’uliyatni bo’yniga olishga va xodimlarga bo’lgan ortiqcha bog’liqligini kamaytiradi.

Oqsoqollarni ko'paytirish amaliyoti bugungi kunda Baptistlar orasida unchalik keng tarqalmagan, ammo Baptistlar hamda boshqa ko'plab jamoatlar orasida bu amaliyotga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda va bunga asosli sabablar bor. Bu amaliyot Yangi Ahd davridagi jamoatlar uchun qanchalik zarur bo'lgan bo'lsa, hozirgi jamoatlar uchun ham shunday zarurdir.

Diakonlar-chi?

Ko'plab zamonaviy jamoatlar oqsoqollarni jamoat xodimlari yoki xizmatchilar (diakon) bilan adashtiradilar. Biroq, Havoriylar 6-bobda ko'rganimizdek, xizmatchi (diakon) ham Yangi Ahdga xos vazifa hisoblanadi. Garchi bu ikki lavozim o'rtasidagi farqni aniq aytish mushkul bo'lsa-da, xizmatchilar (diakonlar) odatda jamoat hayotining amaliy masalalari, masalan, boshqaruv ishlari, jamoat binosini ta'mirlash hamda jamoat a'zolarining moddiy ehtiyojlarini qondirish bilan shug'ullanadilar. Bugungi kundagi ko'plab jamoatlarda xizmatchilar (diakonlar) yo ruhiy nazoratchilikni o'z zimmalariga oladilar, yoki bu ishni to'laligicha boshqa bir insonga, ya'ni cho'ponga topshiradilar. Jamoatlar oqsoqollik va xizmatchilik (diakon) vazifalarini yana qaytadan aniqlashtirib olishlari foydali bo'ladi. Jamoatlarga har ikkala turdagi xizmat kerak emasmi?

Mashaqqat va imtiyozni birgalikda baham ko'rish

Cho'pon sifatida, men Kalomda ko'rsatilgan *oqsoqollik* vazifasini bajaraman, ya'ni asosiy voizman. Lekin jamoatni

mustahkamlash uchun oqsoqollar guruhi bilan birgalikda ishlayman. Ularning ayrimlari xodim sifatida xizmat qilishadi, lekin ko'pchiligi xodim emas. Biz birgalikda ibodat qilish, xizmatchilar yoki butun jamoat uchun tavsiyalar tuzish maksadida muntazam ravishda birga yig'ilib, ibodat qilamiz. Bu odamlar meni va butun jamoani sevib, cho'ponlikning mashaqqati va imtiyozini baham ko'rishlarini so'z bilan ifodalash qiyin. Men bu hamkasb xizmatdoshlarim uchun Xudoga doim shukur aytaman.

Oqsoqollik – Kalomda berilgan, amaliy qadr-qimmatga ega g'oya ekanligiga shubha yo'q. Agar bu g'oya jamoatlarimizda joriy qilinsa, cho'ponlarning zimmasidagi yuk yengillashadi va hatto jamoatlarni cho'ponlarning mayda zolimona hukmronligidan xalos qilish orqali ularga katta yordam bergan bo'lardi. Qolaversa, oqsoqollar masalasida Pavlus sanab o'tgan sifatlar ichida ta'lim berish qobiliyatidan tashqari har bir imonli intilishi lozim bo'lgan sifatlar ham bor (1–Timotiy 3; Titus 1). Ayrim shaxslarni ommaning oldida namunali deb e'tirof etish boshqa imonlilarning, ayniqsa, imonli erkaklarning o'rnak bo'lishiga yordam beradi. Darhaqiqat, taqvodor, farosatli va ishonchli jamoat a'zolarini oqsoqol sifatida tan olish sog'lom jamoatning yana bir belgisi hisoblanadi.

IBODAT BO'YICHA KALOMGA ASOSLANGAN TUSHUNCHA VA UNI AMALDA QO'LLASH

Bir kuni bir do'stimning ibodatni “haqiqat hujumi” deb ataganini eshitib qoldim. U bu gapi bilan ibodat orqali biz o'zimizga asl haqiqat nima ekanini eslatishimizni nazarda tutgandi. Havoriylar 4–bobda imonlilar buni qanday qilganlarini eslang. Oliy Kengash Petrus va Yuhannoni imonlari uchun so'roq qilayotgan edi. Lekin ular ibodat orqali Xudo barcha hokimiyatlar ustidan hukmron ekanini esga olishdi.

O'sha imonlilar qilganidek, bugungi kunda bizga ham xuddi shunday “haqiqat hujumi” kerak. Dunyo bizning imonimizdan tobora ko'proq nafratlanmoqda, biz esa abadiy hayotga umid qilar ekanmiz, Xudoga va Uning inoyatiga yanada ko'proq muhtoj bo'lgan gunohkorlar bo'lib qolaveramiz. Bu tashvishlar o'rtasida ham ibodat bizga so'nggi so'zni Xudoning haqiqati aytishini eslatib turadi.

Bu esa bizni ushbu bobdagi mavzuimizga olib keladi. Ibodat haqida Kalomga xos tushuncha va uni amalda qo'llash qanday qilib sog'lom jamoatni belgilaydi? Bu yerda biz asosan

bironta imonlining hayotidagi ibodat emas, balki bir joyga yig'ilgan jamoat doirasidagi ibodat haqida gaplashamiz.

Ibodat nima?

Men ibodatning shunchalik ko'p ta'rifini eshitganmanki, ularning hammasini sanab berish qiyin. Bizning maqsadimiz uchun men shunchaki ibodat – Xudo bilan gaplashish ekanini aytaman. Odamlar bu “suhbatni” sano aytish yoki yozish orqali amalga oshirishlari mumkin. Biz buni ovoz chiqarmasdan o'ylash orqali ham qilishimiz mumkin, hatto ba'zi narsalarni so'z bilan ifoda etish qiyin bo'lishi ham mumkin (Rimliklar 8:26). Lekin odatda ibodat – Kalomda ta'riflanganidek, gaplashishdir, xuddi Zabur sanolarida Dovud qilganidek yoki Yonah nahangning qornida qilganidek. Xudo O'z azizlarining ibodatlarini qadrlaydi. Ibodat – Xudo uchun xushbo'y tutatqi singaridir (Vahiy 5:8).

Boshqa tomondan, ibodat – borliqdagi qandaydir sirli kuch emas. Ibodat – g'ayrioddiy kuchga ulanish emas, ya'ni “imon bilan” ibodat yelkanini puflaydigan shamolga o'xshamaydi. Ibodat – koinotdagi sun'iy yo'ldosh emas, vosita shakli ham emas, o'z-o'ziga gapirish ham emas. Ibodat – Xudo bilan gaplashishdir. U ishlaydi, chunki Kalomda yozilgan Xudo haqiqiy bo'lib, U chindan ham eshitadi.

Ibodat har qanday joyda, istalgan paytda, har kim tomonidan qilinishi mumkin. Shuni aytish kerakki, Xudo barcha ibodatlarini eshitsa ham, U faqat ayrim ibodatlarini eshitadi. Bu bilan nima demoqchiman? Xudo har bir ibodatni eshitadi, chunki U har yerda mavjud va hamma narsani biladi. Biz hali aytmasimizdan oldin U nima deyishimizni biladi.

Biroq shunday vaziyatlar ham borki, Xudo faqat ayrim ibodatlarni eshitadi. Biz gunohkormiz, Xudo esa muqaddas. Unga ibodatlarimizni yetkazish uchun bizga vositachi kerak. Shuning uchun Xudo O'z azizlarining ibodatlarini Masihning vositachilik ishi orqali eshitishni va javob berishni va'da qilgan. U O'z farzandlarining ibodatlariga javob berishdan mamnun bo'ladi.

Bizni O'zining suratida yaratgan Xudo bizning Unga gapirishimizni eshitishni xohlashi naqadar ajoyib ekani haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?

Fikr va so'zlarni jamlab, ularni Xudoga aytish orqali biz Unga taqlid qilamiz, chunki U ham bizga gapiradi. Xudo bilan gaplashish – U bilan munosabatda bo'lish yo'lidir. U bizga Kalomda Muqaddas Ruhi orqali gapiradi. Biz Uni tinglaymiz va ibodat orqali javob qaytaramiz. Bu munosabat o'ylab topilgan diniy tizimdan butunlay boshqacha. Yaratuvchimiz bilan bo'lgan munosabatimiz – bizda bo'lishi mumkin bo'lgan eng haqiqiy va chuqur munosabatdir. Ibodat – ana shu munosabatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Mahalliy jamoat sifatida birgalikda qanday ibodat qilish kerak

Xo'sh, agar ibodat – Xudo bilan gaplashish bo'lsa, unda jamoat sifatida birgalikda qanday ibodat qilamiz? Vashingtondagi jamoatimizga birinchi marotaba tashrif buyuruvchilar, ko'pincha, birgalikda ibodatga ko'p vaqt sarflashimiz va boshqalar ibodat qilayotganida, jim o'tirishimiz haqida gapirishadi. Buning hayratlanarli joyi yo'q. Ilk masihiylardan tortib, to hozirgi kungacha jamoatlar doimo

birgalikda ibodat qilib kelishgan. Bu qoida Yangi Ahdda belgilab qo'yilgan (Havoriylar 1:14; 2:42). Yangi Ahdda masihiylar qilgan ibodatlarining bir qator ko'rinishi – ichkarida yoki tashqaridagi, kun va tunning turli paytlaridagi, ba'zan sanolar bilan, ba'zan ro'za tutish bilan, ba'zida tiz cho'kib, ba'zida ko'zlar yuqoriga qaragan yoki qo'llar ko'tarilgan holdagi yoki kimningdir ustiga qo'l qo'ygan holatlar tasvirlangan. Bu turli ko'rinishdagi ibodatlar Muqaddas Kitobning har qanday sharoitda tinmasdan ibodat qilish (1–Fessalonikaliklar 5:17) amrini har xil holatlarda amalga oshirishni ko'rsatadi. Menimcha, bu xilma-xillikni mahalliy jamoatlardagi ibodat amaliyotiga ham tatbiq qilishimiz lozim.

Endi har bir jamoat uchun foydali bo'lgan ba'zi jihatlarni ko'rib chiqaylik.

1. *Jamoatning umumiy ibodatga asoslangan hayoti a'zolarining shaxsiy ibodatga asoslangan hayotidan kelib chiqishi kerak.* Ibodatning barcha asosiy jihatlari, ya'ni Xudoni Xudo ekanligi uchun ulug'lash, qilgan ishlari uchun Unga minnatdorchilik bildirish, gunohlarimizni tan olish hamda Undan yordam so'rash shaxsiy hayotda ham, jamoat yig'ilishlarida ham bo'lishi lozim. Axir, biz omma oldida ham, yolg'iz qolganimizda ham o'sha Xudoga ibodat qilamiz-ku. Shuning uchun jamoatlar o'z a'zolariga yakshanba kunidagi umumiy ibodatlardan foydalangan holda ibodat qilishni o'rgatishlari kerak. Qolaversa, ushbu umumiy ibodatlar a'zolarining hafta davomida qilgan ibodatlarini aks ettirishi lozim.

2. *Ayrim so'zlar jamoatni umumiy ibodatda yaxshi boshqarish uchun foydali bo'lishi mumkin.*

Umumiy ibodat qilayotganimizda, biz shunchaki shaxsiy ibodat qoidasini bajarayotganimizni emas, balki butun guruhni Xudoning huzuriga yetaklayotganimizni yodda tutishimiz kerak. Shuning uchun ibodatlarimizda, “men” yoki “menga” degan so'zlarning o'rniga “biz” yoki “bizga” degan so'zlarni ishlatishimiz lozim. Bunday yondashuv umumiy ibodatga xos jihatni yaxshiroq ifodalaydi. Agar “biz” deb ibodat qilayotgan kishining qo'llari jamoa tomon uzatilgan holda bo'lsa, jamoa go'yo ibodatchining qo'llarini ushlagandek ibodat oxirida “Omin” deydi. Biz “Omin” deganimizda, bu ibodat bizning ham ibodatimiz ekanini tasdiqlagan bo'lamiz. Hammaning “Omin” deyishi ibodatning umumiy ekanini bildiradi.

3. *Mahalliy jamoat sifatida turli umumiy ibodatlar bizga yordam beradi.*

Mening jamoatim turli xil ibodatlar, ya'ni uzun va qisqa, rejalashtirilgan yoki tasodifiy ibodatlar yaxshiroq ibodat qilishga yordam berishini anglab yetgan. Uzundan uzun qilingan ibodatlar bizga Xudoning sifatleri, Uning bizga bo'lgan ezguligi, gunohlarimiz yoki muhtojliklarimiz haqida, qolaversa, boshqa joylarda amalga oshirilayotgan Xushxabar ishlari haqida e'tibor va hurmat bilan fikr yuritish imkonini beradi. Boshqa tomondan, qisqa ibodatlar ko'proq moslashuvchan bo'lib, hozirgina eshitgan narsalarimiz, masalan, elchilik xizmatining faoliyati yoki yangi jamoat barpo qilish haqidagi

yangilikka munosabat bildirish imkonini beradi. Xullas, ibodat qilishning qat'iy belgilangan usuli yo'q, ko'pincha, turli usullarni qo'llash foydali bo'ladi.

4. *Ibodot nafaqat jamoatdagi xizmatlarimizda, balki oqsoqollar yig'inida, xodimlar yig'ilishida hamda o'zaro munosabatlarimizda ham o'ziga xos bo'lishi lozim.* Jamoatingizda odamlarning siz uchun ibodat qilayotganini yoki birgalikda ibodat qilish uchun guruhlarda yig'ilayotganini eshitish noodatiy hol bo'lmasligi kerak. Turli yig'ilishlarimiz ibodat qilishga vaqt ajratish uchun ajoyib imkoniyat yaratishi mumkin. Ibodatlarimiz jamoatimiz hayotida alohida ajralib turishini istaymiz. Bu esa har gal birga to'planganimizda birgalikda ibodat qilishimiz kerakligini anglatadi.

Xulosa

Jamoat sifatida birgalikda ibodat qilib o'tkazgan vaqtimizdan Xudo qanday foydalanishi haqida ozgina bo'lsa ham tushunchaga ega bo'ldingizmi?

O'tgan yillar davomida jamoatimiz odamlarga qanday ibodat qilishni o'rgatgani uchun bir qancha odamlar menga minnatdorchilik bildirishgan. Ehtimol, ular farzandlariga ibodat haqida o'rgatishda yakshanba oqshomida bo'ladigan ibodat yig'ilishlarimizdan o'rganganlarini esga olishgandir. Yoki bo'lmasa, ulardan ommaviy yig'inlarda ibodat qilishni so'rashgandir va yakshanba kungi yig'ilishda cho'ponning qilgan ibodati ularga o'rnak bo'lgandir. Ehtimol, ular ruhiy

qurg'ochilikda yashab, yakshanba tongda bo'ladigan ibodat yig'ilishlarimiz taqdim etadigan vaqtni tashnalik bilan kutishgandir. Mana shunday guvohliklarni juda qadrlayman.

Ibodatlil hayoti bilan mashhur bo'lgan jamoat o'zini emas, balki Xudoni targ'ib qiladi. Har gal ibodat qilganimizda, o'zimizni noloyiq ekanimizni anglab yetamiz. Birgalikda ibodat qilganimizda, biz masihiylik haqidagi soxta va noto'g'ri g'oyalarni yo'q qilamiz. Xudoga muhtoj ekanimizni e'lon qilish orqali biz Xushxabarni bugungi kunda keng tarqalgan "ijobiy e'tirof" haqidagi soxta ta'limotdan ajratgan bo'lamiz. Ibodatl orqali biz Masihdagi sevgi orqali bizga g'amxo'rlik qilgan Xudoni ulug'laymiz. Bu bilan Xudo – bizning umidimiz ekanini ko'rsatamiz. Ibodatlrimiz biz Xudoga tobe ekanimizni hamda Xudoning hech kimga tobe emasligini ko'rsatganida, bizning ibodatlarimiz olqishga aylanadi. Mana shunday ibodatlar sog'lom jamoatni belgilaydi.

ELCHILIK XIZMATI BO'YICHA KALOMGA ASOSLANGAN TUSHUNCHA VA UNI AMALDA QO'LLASH

Katta va tez narsalar hamisha kichik va sekindan yaxshiroqmi?

Qachonlardir ta'mi yaxshi va foydali ta'sir qiladigan ajoyib ichimlik bo'lardi. Ana shu ichimlik boshqa davlatda namoyish etilganda hammaga ma'qul bo'ldi. Ichimlik mazali va foydali edi. Ayrim ishbilarmon maslahatchilar bu ichimlik haqida xabar topib, undan yaxshigina daromad qilish mumkinligini angladilar. "Bu ajoyib ichimlikni ko'proq insonlar tatib ko'rishlarini, siz esa undan yaxshigina daromad qilishni istamaysizmi?" deb so'rashdi ular kompaniya rahbaridan. "Albatta, xohlayman!" deb javob berdi rahbar. "Bu yog'ini bizga qo'yib bering", deyishdi maslahatchilar.

Bir necha hafta ichida bu ichimlik mamlakatning hamma shaharlarida sotuvga chiqdi. Ichimlik haqidagi reklama ommaga namoyish etilishidan oldin u haqda gap-so'zlar tarqaldi. Biroq, ichimlik sotuvga chiqishi bilan odamlar norozilik bildira boshladilar. Ichimlik yomon emasdi, lekin odamlarning umidini oqlamadi.

Odamlarning salbiy fikrlari kompaniya egasini sarosimaga solib qo'ydi. Ilgari uning mahsulotlari hech qachon uyaltirmagan edi. U shoshib omborga bordi va ichimliklardan bittasini olib, ichib ko'rdi. "Bu men reklama qilgan ichimlik emas!" dedi u hayrat bilan. Aslida, targ'ibotchilar ko'proq va arzonroq sotish maqsadida ichimlikning tarkibini o'zgartirgan edilar. Kompaniya egasi hammasini izga solishga uringanida, endi kech bo'lganini anglab yetdi. Maslahatchilarning arzon ichimlik ishlab chiqarishiga va sotishiga to'sqinlik qila olmadi. Eng yomoni, o'zi ishlab chiqargan haqiqiy ichimlikni ichib ko'rishga odamlarni ishontira olmadi, chunki ular allaqachon arzon ichimlikni ichib ko'rishgan edi.

Iso Masih haqidagi Xushxabarni boshqa joylarga yetkazmoqchi bo'lgan har bir elchi mana shunday to'siqqa duch keladi, chunki undan avval kelganlar noto'g'ri sug'orib, allaqachon hosilga shikast yetkazganini ko'radi. Ehtimol, undan avval yaxshi niyatda kelganlar noto'g'ri sug'organ bo'lishlari mumkin. Ishbilarmon maslahatchilar singari, ular ham Iso Masih haqidagi Xushxabarning qabul qilinishini va yoyilishini osonlashtira olamiz, deb o'ylagan bo'lishlari mumkin.

Misol uchun, "masihiy" jamoatlar va "masihiy" missiyalar juda ko'p hollarda Masih orqali Xudo odamlarni qanday qutqarishi haqida adashganlarga aytish uchun najot topganlarni yuborish o'rniga, bu dinni qabul qilish uchun nimalar qilish kerakligini odamlarga yetkazish uchun adashgan odamlarni ishga qabul qilishadi.

Ishonchim komilki, sog'lom jamoatning belgilaridan biri – bu missiyalarni Kalomga asoslangan holda tushunish va uni

amalda qo'llashdir. Bu bobda mana shu ikki narsani ko'rib chiqamiz. Siz buni o'qiyotganingizda, Buyuk Topshiriqni berganda Xudo mahalliy jamoat uchun nimani nazarda tutganini tushunishingiz uchun Uning O'zi yordam bersin, deb duo qilaman.

Jamoatlar missiyalar haqida nimalarga ishonishlari kerak?

Missiya so'zi Kalomda uchramaydi, ammo u Kalomga asoslangan g'oyadir. Bu so'zni biz Xushxabar tarqatish hamda o'zga yurtlarda, ayniqsa, boshqa mintaqadagi boshqa tillarda so'zlashadigan joylarda jamoat barpo qilish uchun ishlatamiz. Garchi Xushxabar tarqatish uchun *Xushxabarchilik* so'zidan foydalansak ham, *missiyalar* – Xushxabar yetib bormagan joylarga Xushxabar yetkazish hamda o'sha joylarda jamoat barpo qilishni anglatadi. Missiyaning maqsadi – “insoniyat tabiatini o'zgartirishdir”.³ Bu o'zgartirish qanday amalga oshiriladi? Ko'proq odamlarni Xudo bilan yarashtirish orqali.

Yarashuv haqidagi bu xabar – Muqaddas Kitobning asosiy xabaridir. Muqaddas Kitob butun borliq miqyosida boshlanadi. U butun olamni qamrab oladi. Xudo mukammal dunyoni yaratdi, lekin insoniyat gunohga yo'l qo'ygan bo'lsa ham, Xudo ularni qutqarishga va'da berdi. Xudoning qutqarish rejasi Iroqda yashagan Ibrom ismli majusiy insondan boshlanadi. Xudo keyinchalik ismi Ibrohim deb o'zgartirilgan Ibromga yer yuzidagi barcha xalqlar uning nasli orqali baraka

3 Rosaria Butterfield, *To'sqinliksiz mehmondo'stlik* (Pittsburg, PA: Crown & Covenant, 2015), 18–bet; [Rosaria Butterfield, *Openness Unhindered* (Pittsburgh, PA: Crown & Covenant, 2015), 18.

topishini aytdi. Mana shu bitta va'da butun Eski Ahdning yo'nalishini belgiladi, Xudo Ibrohimdan kelib chiqqan xalqni, ya'ni Isroilni butun dunyoga baraka manbai qilib marhamatladi.

Qanday qilib Xudo Isroil orqali butun dunyoni barakalaydi? Xudoning najoti "zamin hududlarigacha yetib borishi" (Isha'yo 49:6) uchun Yahudiylar orasidan chiqqan qutqaruvchini yuborish orqali. Bu qutqaruvchi – xochga mixlangan va dunyoning Qutqaruvchisi sifatida o'likdan tirilgan Iso Masihdir. O'z o'limi va tirilishi orqali g'alaba qilganidan keyin Iso shogirdlariga shunday ko'rsatma bergan:

Osmonda ham, yerda ham bor hokimiyat Menga berilgan. Shunday ekan, boringlar va barcha xalqlardan shogird orttiringlar. Ularni Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh nomi bilan suvga cho'mdirib, Men sizlarga buyurgan barcha narsalarga rioya qilishni o'rgatinglar. Mana, to dunyoning oxirigacha har kuni Men sizlar bilan birgaman. (Matto 28:18-20)

Iso O'z shogirdlariga barcha xalqlardan shogird orttirishni buyurdi. Bu ish oson va tez bo'lmaydi. Biroq Iso qancha vaqt kerak bo'lsa, hatto dunyoning oxirigacha ular bilan birga bo'lishni va'da qildi.

Iso ilk bor ushbu buyruq va va'dani berganida, shogirdlar bu Xushxabarni eshitishni istagan odamlarga aytishni boshladilar. Natijada, butun dunyo bo'ylab jamoatlar paydo bo'ldi. Lekin Xushxabar yetib borishi qiyin bo'lgan joylar ham bor edi. Shuning uchun jamoatlar Xudo bergan

imkoniyat darajasida Xushxabarni targ'ib qilish xizmatini davom ettirmoqda.

Missiyada jamoatlar nimalarni amalga oshirishlari kerak?

Missiya ishida jamoatlar qanday qilib o'z hissasini qo'shishlari lozim? Keling, mahalliy jamoatingiz Kalomga asoslangan elchilik faoliyatiga amal qilishi mumkin bo'lgan yettita usulni ko'rib chiqaylik.

- 1. Xudoning Kalomi va Xudoning olami haqida o'rganing.** Jamoat elchi yuboruvchi jamoatga aylanishining asosiy yo'li – Xudo Kalomini va'z qilishdir. Bizning va'zlarimiz Masihning o'limi va tirilishining markaziy o'rnini ifodalashi lozim. Qolaversa, Masihning qilgan ishi faqat bizning shahrimiz, bizning xalqimiz yoki davlatimiz uchun emas, balki butun dunyo uchun ekanini ham tushuntirishimiz kerak (Vahiy 5:9). Har yakshanbada Xushxabarni shunday yetkazishimiz kerakki, Masihga ishonmagan odamlar Masihga imon keltirsin va imonlilar ruhan o'ssin.
- 2. Xushxabar boshqa joylarga ham yetib borishi uchun ibodat qiling.** Xushxabar nafaqat va'zlarimizda, balki ibodatlarimizda ham asosiy o'rinda turishi kerak. Shaxsiy ibodatlardan tortib, yakshanba kundagi umumiy ibodatlarda ham bu missiyada bizni qanday ishlatishini anglashimiz uchun Xudodan donolik so'rashimiz lozim.

3. *Jamoatingizni Xushxabar tarqatishda yanada samarali jamoat bo'lishini rejalashtiring.*

Jamoatingiz Xushxabarni targ'ib qiladigan boshqa jamoatlar bilan hamkorlik qilishi mumkin, shunda sizning jamoatingiz yetib borishi qiyin bo'lgan joylarga ham Xushxabarni yetkazish mumkin bo'ladi. Xalqaro jamiyatlarni, shahringizdagi jamoatlar mavjud bo'lmagan joylarni yoki universitet yotoqxonolari joylashgan hududlarni ko'rib chiqing. Boshqa jamoatlar bilan hamkorlik qilish ushbu hududlarda Xushxabar tarqatishda qanday yordam berishi mumkin? Hududingizda Xushxabar tarqatishning yana bir yo'li – jamoatingiz a'zolarini o'z jamoasiga xizmat qilish uchun vaqti va imkoniyatini ishga solishga hamda boshqalarga Xushxabar yetkazishga undashdir.

4. *Xudoning nomi uchun yo'lga chiqqan va o'zini ta'minlay olmaydigan yoxud o'zini ta'minlamasligi lozim bo'lganlarni qo'llab-quvvatlang (3–Yuhanno 7).*

Korinfliklarga xizmat qilgan Pavlusni qo'llab-quvvatlagan Filippiliklar singari, bugungi kunda elchilik qilish xizmatida yurganlarni qo'llab-quvvatlash biz uchun burch va sharafdir. Ibodat va aql-idrok orqali, saxovat va quvonch bilan, jamoatlar Xushxabar yetib bormagan joylarga borayotgan elchilarni yuborishlari hamda ibodat va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari kerak.

5. *Xushxabarga muhtoj olis hududlarda jamoatlar barpo qilishda yordam berish uchun cho'ponlar*

va boshqalarni yuboring. Dunyoga Xushxabar yetkazish bo'yicha Kalom ko'rsatgan namuna – voizlarni yuborish va jamoatlar barpo qilishdir. Jamoat barpo qilishga asoslangan missiya samarasizdek ko'rinishi mumkin, lekin Vahiy 7–bobdagi Qo'zining taxti atrofida yig'ilgan odamlarni aynan shu yo'l bilan to'playmiz. Shuning uchun jamoatlar o'z a'zolarini da'vat qilishi, cho'ponlarni tayyorlashi va ularni Xushxabar targ'ib qilish uchun yuborib, ularni qo'llab-quvvatlashi kerak.

6. O'zingiz yuborgan odamlarga g'amxo'rlik qiling.

Agar o'zimiz qo'llab-quvvatlayotgan xizmatchilarning ahvolini bilmasak, ularga yaxshi g'amxo'rlik qila olmaymiz. Pavlus buni yaxshi bilgani uchun o'zi Xushxabarni tarqatgan har bir shaharga borib, ularning holidan xabar olgan (Havoriylar 15:36). Shuning uchun jamoatingiz qo'llab-quvvatlayotgan odamlar bilan aloqada bo'lib turishi muhim ahamiyatga ega. Ularning ahvolini bilish ularning muhtojliklarida qanday yordam berish mumkinligini aniqlashda yordam beradi.

7. Sodiq guvohning paydo bo'lishini kuting va yuborilganlarga bardosh berishga yordam bering.

Biz xizmatchilarimizning sadoqat bilan xizmat qilishini istaymiz. Ularga yordam berishning yagona yo'li – ularni Xushxabarni qabul qiluvchilarning sonini ko'paytirishga majbur qilmaslikdir. Elchilik ishlarida ko'pincha bir necha yillik mashaqqatli xizmatdan

keyingina hosilni ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun jamoatingiz hamda yuborilgan xizmatchilar o'rtasidagi hamkorlik sabr-toqatga hamda Xushxabarni sadoqat bilan va'z qilishga bag'ishlangan munosabatga asoslanishi kerak.

Xulosa

Qaysidir ma'noda, elchilik ishlari – sog'lom jamoatning barcha belgilarini aks ettiradigan joydir. Bir marta men yopiq mamlakatda xizmat qilayotgan elchilardan ularga qanday yordam berishim mumkinligini so'raganman. Ular menga shunday javob bergan: "Jamoatingizni sog'lom qilish ustida ishlang va shunga o'xshash ko'proq jamoatlar barpo qiling, chunki agar shunday qilmasangiz, bizga o'xshagan elchilarni yuboradigan jamoat qolmaydi!" Axir, biz Xudo va boshqalarni shunday sevamiz, to'g'rimi? Sog'lom jamoatlar Xushxabarni dunyo bo'ylab tarqatadi va ko'proq jamoatlar barpo qiladi.

Shunday qilib, sog'lom mahalliy jamoatga mas'uliyatli a'zo bo'lish – Kalomga asoslangan missiyani tushunish va bajarish sari qo'yilgan ilk qadamdir.

XULOSA

SHINA YO'L BILAN TO'QNASHGANDA (nazariya amaliyotga taqdim etilganida)

“Men ko‘p bora bu jamoatdan ketishni istaganman ... bu yerda faqat gunohga qarshi kurashish hamda boshqalarga xizmat qilish haqida gapiriladi; gunoh qilib yurgan odamlar mendan hisob so‘raydi.” Jamoatimizdagi bir oqsoqol yaqinda menga shu gaplarni aytdi.

U so‘zini davom ettirib, yana shunday dedi: “Lekin men aynan mana shu narsa muhim ekanini tushundim, chunki men hali ham gunohkor ekanman va gunohdan ozod bo‘lishni istayman. Menga javobgarlik, o‘rnak, g‘amxo‘rlik, sevgi va e‘tibor kerak. Jismim bularning barchasidan nafratlanadi! Lekin, agar bular bo‘lmaganda edi, ehtimol, men xotinim bilan ajrashgan bo‘lardim, keyin ikkinchisi bilan, undan keyin uchinchisi bilan ham ajrashib ketgan bo‘lardim va hech qachon farzandlarim bilan birga yashamagan bo‘lardim. Xudo menga nisbatan inoyatini va g‘amxo‘rligini jamoat orqali ko‘rsatadi.”

Sog‘lom jamoatlar, ya‘ni Muqaddas Kitobda ochib berilgan Xudoning sifatlarini tobora ko‘proq aks ettirayotgan jamoatlarda bo‘lish har doim ham oson bo‘lmaydi. Va‘zlar uzoqqa cho‘zilishi mumkin. Talablar yuqori bo‘lishi mumkin. Gunoh haqidagi suhbatlar ko‘pchilikka yoqmasligi mumkin. Munosabatlar ba‘zida nazoratdek tuyulishi mumkin. Ammo

tobora ko'proq iborasi – kalit so'z hisoblanadi. Agar biz Xudoning sifatlarini *tobora ko'proq* aks ettirayotgan bo'lsak, shaxsiy hayotimizda ham, jamoaviy hayotimizda ham Xudoning sifatlarini to'liq aks ettirmayotgan jihatlarimiz borligini tan olishimizga to'g'ri keladi, chunki ko'zgudagi dog'lar tozalanishi, oynadagi qiyshiq joylari sayqallanishi lozim. Buning uchun ancha ter to'kishga to'g'ri keladi.

Xudo O'z mehr-shafqati bilan bizni yakdillikda hayot kechirishga chaqirgan, chunki sevgiga va g'amxo'rlikka asoslangan o'zaro munosabatimiz Xudoning sevgisi va g'amxo'rligini aks ettiradi. Bu dunyoda munosabatlar sadoqatni talab qiladi. Xuddi shunday, jamoatda ham sadoqat talab qilinadi. Xudo bizning ruhan o'sishimizni kimsasiz orolda yashagandek, yolg'iz holda emas, balki bir-birimiz orqali va oramizda birlik bo'lishi orqali amalga oshishini istaydi.

Shunda sog'lom jamoat quvonchga to'ladi? Albatta, to'ladi! Haqiqiy o'zgarishdan quvonchga to'ladi. Zanjirlar uzilganidan quvonchga to'ladi. U ahamiyatli va haqiqiy birdamlikdan – o'z manfaati uchun emas, umumiy najot va sajdaga asoslangan birdamlikdan quvonadi. U Masihning sevgisini ko'rsatishdan va qabul qilishdan quvonchga to'ladi. Eng ajoyibi – u “Rabbimizning shuhratini” hamda “shuhratdan shuhratga, xuddi o'sha tasvirga o'zgarayotganlarini” aks ettirayotganidan quvonchga to'ladi (2–Korinfliklar 3:18).

Uchinchi amrda (Chiqish 20:7; Qonunlar 5:11) Xudo O'z xalqini Xudoning ismini behuda tilga olmaslik haqida ogohlantirgan. U shunchaki haqoratli so'zlar aytmalikni nazarda tutmagan. Qolaversa, hayotimiz orqali U haqda noto'g'ri guvohlik berishdan bizni saqlash uchun Uning ismini

behuda tilga olmaslik haqida ogohlantirgan. Jamoat sifatida, bu amr bizga ham tegishli.

Hozirgi jamoatlarning aksariyati buzilgan. Biz o'z nafsimiz manfaatini ruhiy o'sish deb o'ylaymiz. Oddiy his-tuyg'ularni haqiqiy sajda sifatida qabul qilamiz. Biz ilohiy tasdiqdan ko'ra, dunyoviy tasdiqlarni ma'qul ko'ramiz, aslida Xudoning tasdig'i odatda dunyoning qarshiligiga uchrayotgan hayotga beriladi. Ularning statistik ko'rsatkichlariga qaramasdan, bugungi kunda juda ko'p jamoatlar Kalomga asoslangan tirik va o'sib borayotgan jamoatni belgilovchi alomatlariga e'tibor bermay qo'ygan.

Jamoatning sog'lomligi barcha masihiylarni, ayniqsa, jamoatda yetakchi bo'lishga da'vat qilinganlarni tashvishlantirishi kerak. Bizning jamoatlarimiz Xudoni hamda Uning ulug'vor Xushxabarini butun borliqqa namoyon etishi lozim. Biz umumiy hayotimiz orqali Unga shon-shuhrat keltirishimiz kerak. Buni ko'rsatish vazifasi – katta mas'uliyat va beqiyos sharaftir.

Shuning uchun mavzuni boshlagan joyimizga qaytamiz. Siz jamoatdan nima izlayapsiz? Sizni va jamiyatingizni qadrlaydigan jamoat izlayapsizmi yoki bu dunyodan farq qiladigan, ulug'vor Xudoning sifatlarini aks ettiradigan jamoat izlayapsizmi? Ushbu ikkita variantdan qay biri zulmatda adashganlarga “tepalikda porlagan nur” bo'lib xizmat qiladi?

Ko'proq o'rganish uchun...

To'qqizta belgi haqida batafsil ma'lumot olish uchun “Sog'lom jamoatning to'qqizta belgisi” (Crossway, 2020) kitobining to'liq nashrini o'qing [*Nine Marks of a Healthy Church*]. Sog'lom jamoat barpo qilish bo'yicha amaliy

qo'llanma sifatida Pol Aleksandr bilan birgalikda yozgan "Qanday qilib sog'lom jamoat qurish kerak: Rejalashtirilgan yetakchilik uchun amaliy qo'llanma" kitobini o'qing [*How to Build A Healthy Church: A Practical Guide for Deliberate Leadership*]. Jamoat tuzilmasi, ayniqsa, a'zolik, oqsoqollik, xizmatchilik hamda kongregatsionalizm haqida batafsil ma'lumot olish uchun "Jamoat yetakchiligini tushunish" (9 belgi, 2016) kitobini o'qing [*Understanding Church Leadership*]. Nihoyat, jamoat hayotiga oid maqolalar, audio va'zlar, kitoblar va elektron darsliklar hamda "9 belgi" kabi bir qator kitoblarni topish uchun www.9marks.org veb sahifaga kirishingiz mumkin.

O'quvchilar uchun eslatma

Agar bu kitobda berilgan ma'lumotlardan ilhom olgan bo'lsangiz, cho'ponlaringizga o'zgarishni taklif qilishda e'tiborli bo'ling. Ibodat qiling, xizmat qiling, dalda bering, o'z turmush tarzingiz bilan o'rnak ko'rsating va sabrli bo'ling. Sog'lom jamoat muayyan ko'rinishdagi bino emas, balki to'g'ri munosabat qila oladigan odamlardir. Sevgi esa, odatda, bizga yoqmaydigan vaziyatlarda haqiqatdan namoyon bo'ladi. Shunchaki, Masihda bizga qanday sevgi ko'rsatishgani haqida o'ylab ko'ring!

Cho'ponga eslatma

Agar bu kitobda berilgan ma'lumotlardan ilhom olgan bo'lsangiz, o'zgarish haqida jamoatingizga aytishda ehtiyot bo'ling. Sabr qiling, odamlarga sevgi ko'rsating va Kalomni va'z qiling.

ILOVA

SOG'LOM JAMOATNING ODATIIY AHDI

Xudoning inoyati tufayli tavba qilib, Rabbiiy Iso Masihga imon keltirganimizda, o'zimizni Unga topshirganimizda hamda Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh nomi bilan suvga cho'mib, imonimizni e'tirof etganimizda, Uning marhamatiga suyangani holda, bir-birimiz bilan qilgan ahdimizni xursandchilik va tantanali ravishda yangilaymiz.

Biz tinchlik rishtasi orqali Ruhning birligini saqlash uchun mehnat va ibodat qilamiz.

Masihiy jamoatning a'zosi bo'lish orqali biz birodarlarga xos sevgi bilan birgalikda qadam tashlaymiz; bir-birimizga mehr bilan g'amxo'rlik qilamiz va e'tiborli bo'lamiz, kerak bo'lsa, sadoqat bilan tanbeh berib nasihat qilamiz.

Yig'ilishlarimizni qoldirmaymiz va o'zimiz uchun ham boshqalar uchun ibodat qilishdan to'xtamaymiz.

Rabbimizning tarbiyasi va nasihatlarini bilan qaramog'imizda bo'lganlarni doimo tarbiya qilamiz, sof va mehrli o'rnatish orqali oilamiz va do'stlarimizni najot tomon yetaklaymiz.

Bir-birimizning xursandchiligimizdan quvonamiz, muloyimlik va hamdardlik bilan bir-birimizning tashvish va g'amlarimizni ko'taramiz.

Xudoning madadi bilan bu dunyoda ziyrak yashashga, fosiqlik va o'tkinchi ehtirolardan voz kechishga harakat

qilamiz, suvga cho'mdirilish orqali bu dunyo uchun o'lib, qayta tirilganimizni yodda tutamiz, chunki endi bizda yangi va muqaddas hayot kechirish mas'uliyati bor.

Biz jamoatning ibodatini, marosimlarini, tartib-intizom va ta'limotini qo'llab-quvvatlash orqali sadoqatli xizmat davom etishi uchun birgalikda mehnat qilamiz. Biz muntazam ravishda va xursandchilik bilan xizmatni qo'llab-quvvatlashga, jamoat xarajatlarini qoplashga, kambag'allarga yordam berishga va barcha xalqlarga Xushxabar tarqalishiga hissa qo'shamiz.

Agar boshqa joyga ko'chib o'tsak, tez orada, shu ahdga va Xudo Kalomining tamoyillariga amal qiladigan boshqa jamoatga qo'shilamiz.

Rabbiy Iso Masihning inoyati, Otamiz Xudoning sevgisi va Muqaddas Ruhning muloqoti sizlarning hammangiz bilandir. Omin.

ALOHIDA MINNATDORCHILIKLAR

Sog'lom jamoat nima ekanini tushunishim hamda his qilishimda ko'plab odamlar yordam bergan bo'lsa-da, bu kitobni yozishimda ikki kishi juda katta hissa qo'shdi.

Met Shmukker jamoat haqidagi ma'lumotlardan iborat maqolalarni bitta bukletga jamlashni birinchi bo'lib taklif qildi va o'sha buklet shu kitobning ilk shakli bo'lgan. U bu kitobdagi g'oyalarni keng ommaga yetkazish uchun doimo meni ilhomlantirib kelgan. U bo'lmaganida, bu kitob paydo bo'lmasligi ham mumkin edi.

Jonatan Liman mazkur kitobning paydo bo'lishiga shunchalik katta hissa qo'shdiki, hatto kitobning muqovasiga muallif sifatida "Mark Dever va Jonatan Liman" deb yozish haqida ham o'ylab ko'rdik. Oxirgi kuni esa materiallarning asosiy qismi meniki bo'lgani, avvalgi "9 belgi" risolasi bilan bog'liqligi hamda kitobning yozilish uslubi ("men" so'zi menga tegishli bo'lgani, hayotimdan misollar keltirilgani) tufayli muallif sifatida faqat mening ismim yozilishiga qaror qildik. Shuni ta'kidlash kerakki, "Janob Burun va Qo'llar" masalini, Xudo Kalomidan foydalanish haqidagi Yangi Ahdga oid uzun ro'yxatni hamda kitobning birinchi yarmidagi boshqa qismlarni Jonatan yozgan. U eski risolani qayta tuzish hamda ushbu yangi, kengaytirilgan, shuningdek umid qilamanki, yanada foydali bo'lgan shaklga solishda katta hissa qo'shdi. U juda qobiliyatli birodar bo'lib, men undan katta yordam olyapman. Va albatta, siz ham undan o'zingiz bilganingizdan ko'proq foyda olyapsiz.

MUQADDAS KITOBGA IQTIBOSLAR

Ibtido

1	85
1:11-12.....	55
1:26	55
1:27	124
4:9	49
5:1	56
5:1-8.....	55
9:6	56
12	85, 92
12:1-3.....	56

Chiqish

4:22-23.....	57
19	92
19:5-7.....	56
20:7	164
24	92

Levit

11:44	57
19:2	57, 124
20:7	57

Sonlar

15:30-31.....	124
---------------	-----

Qonunlar

5:11	164
30:19	65

Yeshua

7	126
---------	-----

2-Shohliklar

7	94
---------	----

3-Shohliklar

8:41-43.....	57
--------------	----

Sanolar

15:10	94
50:6	108

Hikmatlar

24:1	124
24:25	124

Isha'yo

43:25	97
49:6	158
53:4-6.....	95
53:5	59

Ezekel

37	85, 111
----------	---------

Yonah

2:10	112
------------	-----

Matto

4:4	57-58, 66
4:19	60, 65
5:9	60
5:16	137
5:44	60
5:48	60

7:1	125, 128	10:10	113
7:3-5	74	12:49	58
16:18	38	13:34-35	60
16:19	116	14:9	58
18	84, 125, 126	17:1-3	58
18:15-17	125	17:20-23	60
18:17	125, 141	20:21	60, 65
18:18	116	20:23	116
22:34-40	34	21:15-17	66
23	126	21:19	113
28:18-20	17, 158		
28:19	60	<i>Havoriylar</i>	
28:20	66	1:14	150
<i>Mark</i>		2	94
3:32-35	49	2:24	94
4	66	2:42	67, 150
<i>Luqo</i>		4	147
1:2	66	5	126
2	126	6	139, 140, 145
3:38	55	6:4	86, 140
9:62	113	9:4	41
11:28	66	14:23	143
12:4-5	129	15:36	161
12:20	113	16:4	143
17:3	125	17:1	129
22:20	59	18:5	143
24:27	86	20:17	141, 143
		20:28	141
		21:18	143
<i>Yuhanno</i>		<i>Yoqub</i>	
1:13	112	1:18	69
3	92, 112	1:22	69
3:5	106	2:14	109
3:19-20	107	2:14-15	38
6:38	58	2:20-24	132
8:28	58	3:1	129
		5:14	143

<i>1-Petrus</i>	5:8	60
1:3-6.....	6	92
1:23	6:1-18.....	38
1:25	8:5-14.....	38
2:2	8:26	148
2:10	9	126
2:12	10:14-15.....	144
4:10	10:17	65, 67, 85
	12:19	126
<i>2-Petrus</i>	13	126
1:5	14-15.....	128
1:5-11.....		
1:20-21.....	<i>1-Korinfliklar</i>	
3	1:2	36
3:18	1:9	36
	1:18	67
<i>1-Yuhanno</i>	1:21	67, 85
2:5-6.....	3	125
2:19	3:6-7.....	136-137
3:2	3:9	92
4:8	5	26, 126, 129, 142
4:10	5:1	115
	5:5	126
<i>2-Yuhanno</i>	6	126
6	9:14	143
	11:28	126
<i>3-Yuhanno</i>	12:18-21.....	19
4	12:21	37
7	12:22-26.....	42
	15:23	60
<i>Yahudo</i>		
4-16.....	<i>2-Korinfliklar</i>	
15	1:20	94
20-21.....	2	141
23	2:6	116
	2:17	67
<i>Rimliklar</i>	3:14	60
3:10		
3:20		

3:16	60
3:18	61, 164
4:2	67, 111
5:11	111
6:14-7:1	124
10:15	131
13:2	124

Galatyaliklar

1	84, 139, 142
1:6	26
1:9	67
3:26-27	59
4:6	59

Efesliklar

1:5	36
1:13	67
2	35
2:1	107
2:11-22	92
2:14-16	35
2:19	35
2:21	35
3:10-11	61
4:11-13	67-68
4:13	17
4:15	17, 131
5:25	44-45
5:25-32	27
6:19-20	86

Filippiliklar

1:14	68
2:7	57
2:15	92
4:3	116

Kolosaliklar

1:10	131
1:15	58
2:19	137
3:16	68

1-Fessalonikaliklar

2:12	92
2:13	68
5:17	150

2-Fessalonikaliklar

1:3	131
2:15	68

1-Timotiy

1:20	126
3	129, 146
3:2	68, 143
3:9	68
4:13	144
5	115
5:17	42, 142, 144
6:3-5	124

2-Timotiy

3	146
3:1-5	124
3:17	54
4	139, 142
4:2-4	68-69

Titus

1	146
1:3	69
1:5	143, 144
1:9	143

Filimon

669

Ibroniylar

1:358

2:1136

4126

4:1269

10:23-25.....27, 117

10:23-27.....38-39

12126

13:1727

Vahiy

3:870

5:8148

5:9159

7161

20125

21:1-4.....96

21:22-22:596

21:27116

IX 9 BELGI

SOG'LOM JAMOATLARNI KO'TARISH HARAKATIDA

SIZNING JAMOATINGIZ SOG'LOMMI?

9Marks (9 Belgi) xizmati Xudoning ulug'vorligini sog'lom jamoatlar orqali xalqlarga namoyon etish uchun jamoat yetakchilarini Kalomiy qarash va amaliy resurslar bilan qurollantirish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Shu maqsadda biz jamoatlarga ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan to'qqizta sog'lom jamoat belgisida o'sishiga yordam berishni xohlaymiz:

1. Ekspozitsion va'z qilish
2. Xushxabar ta'limoti
3. Yuqoridan tug'ilish va Xushxabar tarqatish bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha
4. Jamoat a'zoli bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha
5. Kalomga asoslangan jamoat tartib-intizomi
6. Kalomga asoslangan shogirdlik va ruhan o'sish
7. Kalomga asoslangan jamoat yetakchiligi
8. Ibodat bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha va uni amalda qo'llash

9. Elchilik xizmati bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha va uni amalda qo'llash

9Marks (9 Belgi) da biz maqolalar, kitoblar, kitoblarga taqrizlar va onlayn jurnallar yozamiz. Biz jamoatlar Xudoning ulug'vorligini namoyon etishlari uchun ularni qurollantirish maqsadida konferensiyalarga mezbonlik qilamiz, suhbatlar yozib olamiz va boshqa har xil resurslarni tayyorlaymiz.

60dan ortiq tillardagi kontent uchun bizning veb sahifamizga tashrif buyuring va bizning bepul onlayn jurnalimizni qabul qilish uchun ro'yxatdan o'ting. Bizning boshqa tillardagi veb sahifalarimizning to'liq ro'yxatini quyidagi havola orqali ko'rishingiz mumkin:

<https://www.9marks.org/international>

Jamoat masalalari bo'yicha savollar to'plami



marvaridresurslari.org

Ko'proq kitobchalarni va maqolalarni o'qish va tinglash
uchun **Marvarid Xizmatlarining ilovasini** yuklab oling!



SOG‘LOM JAMOAT QANDAY BO‘LADI VA UNING SOG‘LOM EKANINI QAYERDAN BILASIZ?

Ushbu kitob sog‘lom jamoatning asosiy xususiyatlarini, ya‘ni ekspozitsion va‘z, Kalomiy teologiya hamda Xushxabarni to‘g‘ri anglashni o‘rganishga yordam beradi va ushbu xususiyatlarni o‘z jamoatingizda shakllantirishga chaqiradi.

Yangi Ahd mualliflarining namunasiga ergashib, jamoatning barcha a‘zolariga — cho‘ponlarga ham, oddiy imonlilarga ham murojaat qilgan holda, Mark Dever barcha imonlilarni mahalliy jamoatni saqlab qolishda o‘z ulushini qo‘shishga chaqirdi. “Sog‘lom jamoat nima?” kitobi har birimizga Masihning tanasi bo‘lgan jamoatdagi vazifamizni bajarishimiz uchun bir qator haqiqatlar va amaliy tamoyillarni taklif qiladi.

“Har bir cho‘pon va har bir imonli kishi sog‘lom jamoat qanday bo‘lishi kerakligi hamda qanday qilib o‘z jamoatini iloji boricha sog‘lom jamoatga aylantirish haqida bilishga harakat qilishi lozim. Mark Deverning tushunishiga oson va samimiy ushbu kitobi bu borada sizga yordam beradi.”

KEVIN DEYONG, Shimoliy Karolinadagi Christ Covenant Jamoatining katta cho‘poni, Reformed Theological Seminariyasida Tizimli Ilohiyotshunoslik bo‘yicha assistent professor

“Men ushbu kitobdan va uning muallifidan umrimning oxirigacha minnatdorman. Ushbu amaliy kitobni o‘qing va mahalliy jamoatingizga nisbatan muhabbatangiz ortib borsin.”

KERI FOLMAR, muallif, “Priscilla Talk” dasturi boshlovchisi

“Bu kitob imonli kishilarga Xudoning ulug‘vorligi va tabiatini aks ettiruvchi jamoatlarni ko‘tarishda yordam beruvchi juda foydali manba hisoblanadi.”

YUJIN LOU, Singapurdagi Grace Baptist Jamoatining yetakchi cho‘poni

MARK DEVER Vashingtondagi Capitol Hill Baptist Church jamoatida bosh cho‘pon bo‘lib xizmat qiladi. Dyuk universiteti bitiruvchisi bo‘lgan doktor Dever Gordon Konvell Teologiya Seminariyasining magistrlik darajasiga, Janubiy Baptist Teologiya Seminariyasining Teologiya bo‘yicha magistr darajasiga hamda Kembrij universitetining jamoat tarixi bo‘yicha doktorlik darajasiga ega. U 9 Belgi tashkilotining faxriy prezidenti bo‘lib, bir qator seminariyalarda dars bergan. Doktor Dever ko‘plab kitoblar va maqolalarga mualliflik qilgan. U rafiqasi Konni bilan Vashingtonda yashaydi va Capitol Hill jamoatida xizmat qiladi.

*Ushbu kitob “9 Belgi: Sog‘lom jamoatlarni ko‘tarish harakatida” turkumiga kiritilgan.

IX Belgi